ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2020

1-son
(yanvar-fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

4 Ilm-ma'rifat – taraqqiyot negizi

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

O. Musurmanova 6 Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot – bosh masala

F. Ibragimova 10 Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini nazorat qilish va baholashning nazariy-metodologik asoslari

A. Kenjaboyev, N. Achilov 18 Uzluksiz ta'lim jarayonida milliy tarbiyani rivojlantirish omillari

Z. Raximov 23 Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda pedagogik mahoratning zaruriyati

O. Ergasheva 30 O'quvchi-qizlarning ijtimoiylashuvida sharqona tarbiyaning o'rni

N. Atakulova 34 O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni samarali rivojlantirish vositalari

Sh. Xudoykulova 38 Bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

S. Usmonov 45 Boshlang'ich ta'limda o'quvchi-yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni

S. Qorayev 49 "Texnologiya" faninini o'qitishda muammoli amaliy mashg'ulotlarni qo'llash usullari

K. Mavlonova 56 Adabiyot darslarida tasnifiy ma'lumotlarni o'rganish zarurati

D. Avezmuratova 62 Ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishning o'quv–biluv faoliyatini rivojlantirish xususiyatlari

N. Jo'raqulova 67 Kimyo fanini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi

B. Ismailova 72 Ta'lim jarayonida ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirish metodlari

TA'LIMDA MENEJMENT

S. Maxmudov 75 Ta'lim tizimida korporativ boshqaruvni amalga oshirishning ijtimoiy va tashkiliy-pedagogik asoslari

KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

P. Ernazarova 80 O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik-psixologik jihatlari



HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA

M. Baratov 87 Ta’lim muassasalari va xo‘jalik (tadbirkorlik) yuritish huquqi



TA’LIMDA INNOVATSIYALAR

B. Baymetov, X. Sultanov 98 Uzluksiz ta’limda “Pedagogik ta’lim innovatsion klaster” texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati



PSIXOLOGIYA

S. Turg‘unboyev 103 “Ijtimoiy moslashuv” tushunchasining mohiyati hamda uning o‘ziga xos xususiyatlari

F. Exsonova 108 Innovatsion yondashish asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari



TA’LIM TARIXI

A. Samiyev 112 Umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda Abu Iso Muhammad Termiziy rivoyat qilgan hadislarning ahamiyati



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Д. Садикова 117 Приёмы формирования и совершенствования развивающей функции обучения педагогических кадров



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ф. Камилова 122 Роль педагога в формировании организаторских способностей учащихся начальных классов



СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Н. Ибрагимова 126 Прикладные аспекты личностно-ориентированных педагогических технологий в начальных классах



ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ОРИЕНТАЦИЯ

Ш. Эргашев, А. Калонтаров, Г. Нематова 132 Инновационные формы и методы профориентационной работы в современной одиннадцатилетней школе Узбекистана

ILM-MA'RIFAT – TARAQQIYOT NEGIZI

Turli tamaddunlar tutashgan Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan yurtimiz azaldan olimu ulamolari, fozilu fuzalolari bilan dovruq qozongan. Ona zaminimizda tug‘ilib, kamolga yetgan ulug‘ allomalar, buyuk mutafakkirlarimiz jahon ilf-fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shganlar.

Bobokalonlarimiz tafakkuri va dahosi mahsuli bo‘lgan minglab asarlar, tarix, adabiyot, san’at, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, kimyo, astronomiya, me’morlik va boshqa sohalarga oid noyob qo‘lyozmalar bebaho ma’naviy boyligimizdir. Bunday yuksak iftixor tuyg‘usi bizni hech kimdan kam bo‘lmagan xalq sifatida faxr bilan yashashga, ajdodlarga munosib voris bo‘lishga undaydi.

Joriy yilning 24-yanvar kuni muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Sharq donishmandlari aytganidek, **“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”** deya ta’kidladilar.

Darhaqiqat, qaysi davlatda ilmga, olimlarga e’tibor bo‘lsa, o‘sha joyda taraqqiyot bo‘ladi, barcha sohalar rivojlanishga yuz tutadi. Yurtimizda so‘nggi uch yilda nimaga erishgan bo‘lsak, albatta, buning zamirida e’zoz, e’tibor va rag‘bat mujassam.

Olimlarni e’zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish Sohibqiron Amir Temurning adolat tamoyillaridan biri bo‘lgan. “Temur tuzuklari” asarida va boshqa ko‘plab manbalarda ham ilm ahliga homiylik qilish buyuk sarkardaning asosiy maqsadi ekani bayon etiladi.

Fransuz sharqshunosi Lui-Matyo Langle o‘zining “Donishmandlik ramzi” asarida: “Amir Temur olimlarga xayrixoh bo‘lar, bilimli va halol kishilarga ishonar edi. U tarixchi va faylasuflar, ilm-fan va ma’muriy sohada bilimdon odamlar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtidan ham tushar edi”, deya yozib qoldirgan.

Davlatimiz rahbari 2020-yilga **“Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”,** deb nom berishni taklif etganida, butun zal oyoqqa turib, gulduros qarsaklar bilan qo‘llab-quvvatladi.

Yurtboshimiz: “2020-yil nomida belgilangan sohalarni ustuvor darajada rivojlantirish va isloh etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Xususan, bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini joriy yilda 60 foizga yetkazishimiz zarur. Ushbu maqsadlarga shu yilning o‘zida byudjetdan qariyb 1,8 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Bu yildan boshlab, tariximizda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilinadi. Bunga byudjetdan 130 milliard so‘m ajratilib, bu jarayonda xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari ham bevosita ishtirok etadi.

2020-yilda byudjetdan ajratiladigan 1,7 trillion so‘m mablag‘ hisobidan 36 ta yangi maktab qurilib, 211 tasi kapital ta’mirlanadi. Shuningdek, 55 ta xususiy maktab tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkaziladi”, dedi.

Xo‘sh, davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan ulkan imkoniyatlar, shart-sharoitlarga javob tariqasida olimlar yurtimiz ravnaqi uchun, xalqimiz farovonligi, yoshlarimiz kamoloti uchun qanday naf keltiryapti?

Tabiiyki, bu savolga ilm-fan fidoyilari o‘zlari yaratgan asarlari, ixtirolari, ilmiy ijod namunalari, boringki, nechta shogird yetishtirgani-yu oliy ta’lim muassasalarida yoshlarga berayotgan saboqlari bilan javob qaytarishi mumkin.

Bizningcha, bugun olim kishi nafaqat uyida, ish joyida, balki har joyda ta’limga qanday hissa qo‘sha olaman, deb o‘ylashi, bunga faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham o‘z hissasini qo‘shishi lozim.

Prezidentimiz: “2019-yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta Ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta’limni rivojlantirish uchun o‘tgan yili 19 ta yangi oliy o‘quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo‘shma ta’lim dasturi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016-yilga nisbatan 2 barobar ko‘p talaba o‘qishga qabul qilindi”, deya ta’kidladi.

Bu ishlar bejiz amalga oshirilmayapti. Bugungi zamonda ilmli, ma’rifatli yoshlar zarur.

Zotan, o‘nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo‘lib ilm-fan sohasiga joriy etgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, qomusiy olimlar Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan Mahmud az-Zamaxshariy, o‘zida mingdan ziyod yulduzlar harakatini jamlagan astronomik jadval yaratgan Mirzo Ulug‘bek singari ulug‘ mutafakkirlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Farzandlarimizni kitobxonlikka, mutolaaga o‘rgatishda ham olimlar o‘rnak bo‘lishi kerak. Bejizga Prezidentimiz har bir chiqishlarida yoshlarimizni kitobxonlikka o‘rgatish, bu ishga ijodkorlarni jalb etish haqida bot-bot ta’kidlamaydi. Zero, buning zamirida navqiron avlodni boy ma’naviy merosimiz bilan tanishtirish, qalbida tariximizga muhabbatni uyg‘otishdek ulug‘vor maqsadlar mujassam.

Kitob, avvalo, yosh avlod ongu shuurida o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat, uning taqdiri uchun daxldorlik, fidoyilik tuyg‘ularini mustahkam qaror toptirishning asosiy omillaridan biridir.

Muxtasar aytganda, davlatimiz rahbarining asosiy maqsadi yurtimizda ilm-fanni yanada taraqqiy ettirish, olimlarni rag‘batlantirish, yoshlarni ajdodlarga munosib avlod sifatida kamolga yetkazish. Xalqimiz ziyokorlar, ilm ahliga nisbatan ko‘pincha “maktab yaratgan olim” yoki ism-sharifiga chuqur hurmat va ehtirom bilan “domla” so‘zini qo‘shib aytadi. Bu ibora zamirida ustozning qancha mashaqqatli, og‘ir va shu bilan birga, sharafli mehnati mujassam. Ustozga ehtirom ko‘rsatgan davlatning kelajagi buyuk bo‘lishi shubhasiz.

Oynisa MUSURMANOVA,
Pedagogika fanlari doktori, professor

ILM-MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOT – BOSH MASALA

Annotatsiya

Maqolada Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlangan jamiyat rivojining asosini tashkil etadigan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy sohalarning bironta jabhasi chetda qolmaganligi bilan konstruktiv xarakterga egadirligi yoritilgan. Murojaatnomada ilm-fan, ta'lim (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, prorfessional ta'lim, oliy ta'lim), sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, bank, transport-logistika, soliq, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, turizm, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam aholini, yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash orqali aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi shakllantirilishi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Ilm, raqamli iqtisod, professional, soha, xalq manfaatlari, fundament, ma'naviyat, innovatsion texnologiyalar, indikator.

В статье подчеркивается, что социальная, экономическая, духовная и политическая сфера, составляющие основу развития общества, отмеченные в Послании Президента Олий Мажлису, не остались незамеченными. В Послании подчеркивается что, наука, образование (дошкольное, общее среднее образование, профессиональное образование, высшее образование), здравоохранение, экономика, банковское дело, транспорт и логистика, налогообложение, поддержка предпринимательства, сельского хозяйства, управления водными ресурсами, туризма, малообеспеченных и социально уязвимых слоев населения, молодежи и женщин способствует продвижению здорового образа жизни среди населения.

Ключевые слова. Наука, цифровая экономика, профессионал, отрасль, общественные интересы, фундамент, духовность, инновационные технологии, индикатор.

The article emphasizes that the social, economic, spiritual and political spheres that form the basis of the development of society, noted in the Message of the President to the Oliy Majlis, didn't neglected. The Message emphasizes that science, education (pre-school, general secondary education, vocational education, higher education), healthcare, economy, banking, transport and logistics, tax, supporting entrepreneurship, agriculture, water management, tourism, poor and socially vulnerable population, youth and women contributes to the promotion of a healthy lifestyle among the population.

Key words. Science, digital economy, professional, industry, public interests, foundation, spirituality, innovative technologies, indicator.

Yaqinda muhtaram Yurtboshimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasini eshitib qalban larzaga kelmagan, vijdonan uyg'onmagan O'zbekistonning biron-bir fuqarosi qolmadi, desak xato bo'lmaydi. Chunki bu Murojaatnomani eshitib Prezidentimizning xalq manfaatlari jonkuyari ekanligiga bot-bot iqror bo'ldik.

Murojaatnomada o‘z aksini topgan mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida 2020-yilda qilinadigan tub o‘zgarishlar, bu borada jamiyatimizdagi barcha ijtimoiy institutlar, mutasaddi tashkilotlar, fuqarolar oldiga qo‘yilgan vazifalar, ulardan kutiladigan natijalarni eshitib, tamoman yangi O‘zbekiston ko‘z oldimizga keldi.

Ushbu tarixiy Murojaatnomada jamiyatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi barcha sohalar uch xil yo‘nalishda batafsil o‘z aksini topgan. Mazkur tarixiy hujjatda qo‘yilgan vazifalar uch xil rakurs asosida olg‘a surilgan bo‘lib, **birinchidan,** o‘tgan qisqa uch yil davomida mamlakatimizda erishilgan salmoqli natijalar; **ikkinchidan,** jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir etuvchi mavjud muammolar va kamchiliklar; **uchinchidan,** kelgusida qilinishi lozim bo‘lgan istiqbolli rejalardan iborat bo‘ldi.

Darhaqiqat, yurt otasi 2020-yilni **“Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”** deb e’lon qilganida muhtasham zal, studiyalar, viloyat, tuman, shahar va muassasalarda Murojaatnomani tinglayotgan vatandoshlarimiz mamlakatimizda revolyutsion islohotlar, o‘ziga xos renessans davriga dadil qadam qo‘yilganligini ruhan his qildilar. Prezidentimiz tomonidan yilning bunday nomlanishi juda katta ramziy ma’noga ega bo‘lib, mamlakatni rivojlantirishning asosiy fundamenti ilm, ma’rifat, ma’naviyat, innovatsion texnologiyalar asosiy intikatorlar ekanligini, shuning uchun barchani ularga asoslanib o‘z faoliyatlarini olib borishga da’vat etdi.

O‘zbekiston tarixida Oliy Majlisga uchinchi marta qabul qilingan ushbu Murojaatnoma oldingilaridan yangi va kuchli istiqbol rejalarga boyligi, “Muhtasham 10 yillik” eshiklarini ochib berganligi, sohalar qamrovi geografiyasining kengligi, mukammallik, xalqchillik, hayotiylik va natijadorlik tamoyillarga asoslanganligi bilan barchani buyuk kelajak sari yetaklaydigan qudratli kuchga egadir.

Ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan qaraganda odatda Murojaatnoma alohida u yoki bu muammo yuzasidan tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga yo‘naltiriladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasi esa jamiyat rivojining asosini tashkil etadigan ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy sohalarning bironta jabhasi chetda qolmaganligi bilan konstruktiv xarakterga egadir. Ya’ni, ushbu tarixiy betakror hujjatda ilm-fan, ta’lim (maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, prorfessional ta’lim, oliy ta’lim), sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, bank, transport-logistika, soliq, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, turizm, kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam aholini, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allik, xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng qaror toptirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilash, madaniyat va san’at, ijro va vakillik organlarining davlat boshqaruvidagi roli va mas’uliyatini oshirish, nodavlat va notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, sud-huquq, xalqaro aloqalar va hamkorlik hamda boshqa sohalarda 2020 va undan keyingi yillarda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar aniq va ravshan belgilab berildi.

Mazkur Murojaatnomani eshitib, o‘z soham ya’ni, ilm-fan va ta’limga oid amalga oshirish rejalashtirilgan ulkan vazifalardan juda ta’sirlandim hamda qalbimda soha rivoji uchun cheksiz g‘urur paydo bo‘ldi. Darhaqiqat, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatning taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillar ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotdir. Ilmsiz, fansiz biron sohani, texnika texnologiyani rivojlantirish, biron bir ijobiy natijaga erishish mumkin emas. Chunki fan nazariya-amaliyot-nazariya zanjiri asosiga qurilgan. Ma’rifat ilm asosida vujudga keladi. Ma’naviyat esa ma’rifatning mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ilm, fan, ma’rifat, ma’naviyat kabi tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Darhaqiqat, Murojaatnomada Sharq donishmandlarining

fikrlariga tayangan holda ta’kidlanganidek: **“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlik-dir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”.**

Prezidentimiz Murojaatnomada “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” dasturiy g‘oyasi asosida “Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yigit-qizlarimizning ma’naviy va ma’rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir”, degan vazifani bajarish barchaning sharafli ishi ekanligini ta’kidladi. Chunki, inson ilm va fan bilan shug‘ullanishi, sohasi bo‘yicha mutaxassis, boshqaruvchi, tashkilotchi bo‘lishi mumkin, lekin ma’rifatlilik darajasi yetarli bo‘lmasa, ma’naviyati davr talabiga javob bermasa uning ishi samarali bo‘lishi, jamoasida, oilasida na’muna sifatida o‘zini namoyon etishi murakkab bo‘ladi.

Insonning ma’rifatli bo‘lishi ilm-fan sohasini chuqur bilishi bilan bog‘liq holatdir. Fuqarolarning ma’rifatli bo‘lishi jamiyat-taraqqiyoti omilidir. Ma’rifatli bo‘lish uchun ilm-fanning barcha sohalarini bira to‘la o‘rganish, o‘zlashtirish mumkin emas. Ma’rifatlilik indikatorlari bosqichma-bosqich shakllantirilib boriladi. Shu bois, Prezidentimiz ilm-fanning har yili bir nechta ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab olish asosida uni taraqqiy ettirish vazifasini ilgari surdi. “Joriy yilda matematika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo‘nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha sharoitlar yaratib berilishi, maqsadli grant mablag‘larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko‘rib chiqilishi” belgilab berildi.

Har bir oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasasi oldiga qator vazifalar qo‘yildi. Ya’ni, nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish; ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ishlanmalar bazasini yaratish; “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan 700 dan ziyod olimlar, professor-o‘qituvchilarni chet elga ilmiy izlanish va malaka oshirishga yuborish; grantlar miqdorini 2 barobarga ko‘paytirish, tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish vazifalari belgilab berildi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha avvalo qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog‘liqni saqlash, ta’lim, arxiv sohalarini to‘liq raqamlashtirish; Toshkent shahrida barpo etilayotgan zamonaviy infratuzilmaga ega “IT-park”dan Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida tashkil etish; 2 yilda barcha qishloq va mahallalarni tezkor internet bilan ta’minlash; 2 oy muddatda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini ishlab chiqish kabi muhim ishlarning amalga oshirilishi davr talabi ekanligi belgilab berildi. Bu boradagi ishlarni tizimli tashkil etish uchun hukumatda, vazirlik, idora va hokimliklarda alohida o‘rinbosar lavozimlari joriy etilishi, parlament ularning hisobotlarini muntazam eshitib borishi nazarda tutiladi. Prezidentimiz bu borada dastlabki harakatlar boshlanganligini, ya’ni xorijiy hamkorlar bilan “1 million dasturchi” loyihasi asosida sohaga malakali mutaxassislar tayyorlash amalga oshirilayotganligini ta’kidladilar.

Ushbu ishlarning barchasi mutaxassislardan ma’rifatli, yuksak ma’naviyatli bo‘lishni talab etadi. Ma’rifat, ilm-fanga qiziqish asosan oila, ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari, oliy ta’limdan keyingi ta’lim jarayonida samarali kechadi.

Shu bois, Prezidentimiz o‘z nutqida joriy yilda bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini 60 foizga yetkazish; tarixda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimini joriy etish; mahoratli va malaka darajasiga ega o‘qituvchilarga yuqori maosh to‘lash tizimini yaratish; ilg‘or xorijiy tajriba asosida o‘quv

dasturlari, darslik, adabiyotlar, o‘quv yuklamalari va fanlarni xalqaro standartlarga moslashtirish; 2021-yilgi xalqaro baholash jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish masalalarini amalga oshirishga alohida urg‘u berdilar. Bu esa, ilg‘or xalqaro tajribalarni milliy ta’lim-tarbiya jarayoni bilan implimentatsiya qilish asosida bog‘cha yoshidan boshlab bolalarni ilm-fanga qiziqtirish, bosqichma-bosqich fan sirlarini o‘rgatib borish, kelajakda xalqaro ahamiyatga molik zamonaviy kasb egalari bo‘lishga qiziqish uyg‘otishdan iboratdir.

Murojaatnomada o‘rta bo‘g‘in mutaxassislar tayyorlashning tubdan yangi tizimi tashkil etilishi (kasb-hunar maktabi, kollej, texnikum), kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimi ishlab chiqilishi va natijada 9 mingga yaqin kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlash imkoni vujudga kelishi nazarda tutiladi.

Yoshlarimizni bilim olishlari va mutaxassislikka ega bo‘lishlari uchun yaratiladigan shart-sharoitlar hamma uchun ayniqsa ota-onalar uchun katta mukofot bo‘ldi. Chunki, har bir oilada OTMga kiruvchi yigit va qizlar o‘smoqda. Jumladan, Prezidentimiz maktab bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 2020-yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50-60 foizga yetkazish; qabul grantlarini 2 barobar ko‘paytirish; oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini optimallashtirish; ona tili bo‘yicha bilimni baholashning milliy test tizimini yaratish; mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar sonini 2 barobarga qisqartirish; o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazish; joriy yilda pedagogik ta’limning 6 ta yo‘nalishi bo‘yicha o‘qish muddatini 3 yilga qisqartirish; oliy o‘quv yurtlariga bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqillik berish kabi shu vaqtgacha hech kimning xayoliga ham kelmagan yangiliklar farzandlarimizning porloq kelajagi uchun qilinadigan ulkan yangilik bo‘ldi.

Ayniqsa, qizlarimiz uchun alohida grantlarning ajratilishi mamlakatimizda xotin-qizlarni, oila institutini qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan davlat siyosatining olamshumul bir in’ikosi bo‘ldi. Qizlarimiz qanchalik ilmli-bilimli, ziyoli, ma’rifatli, madaniyatli bo‘lsa, oilalar, shu oilada dunyoga keladigan bolalar va ulkan bir jamiyat shunchalik yuqori ma’rifatli bo‘ladi. Qizlarning kasbiy ma’lumotliligi oila farovonligi, mamlakat iqtisodiy barqarorligi omilidir. Bunday yangilik xotin-qizlar ayniqsa, yosh qizlar uchun ilm-ma’rifatli bo‘lishning juda katta imkoniyatlar eshigi ochildi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur Murojaatnoma Yangi O‘zbekistonning oltin zarvaraqli buyuk tarixini yaralishida mustahkam poydevor bo‘lishi shubhasiz. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda “Barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, yakdil va ahil bo‘lib harakat qilsak, halol-pok bo‘lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda,tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqmiz”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Uza.uz. 25.01.2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Rasmiy nashr // O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. 112 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. // 1-jild. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 592 b.

Feruza IBRAGIMOVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti, “Tabiiy yo‘nalishlar
bo‘yicha chet tillari” kafedra katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini nazorat qilish va baholashning ayrim nazariy masalalari, xususan, OTM ta’lim sifatini ta’minlash muammosi, ta’lim sifatini shakllantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari, OTMda pedagogik monitoring va ta’lim sifatini aniqlash mezonlari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim sifati, bilim sifati, ta’lim sifati monitoringi, OTMda pedagogik monitoring.

В данной статье освещаются некоторые теоретические аспекты мониторинга и оценки качества образования в системе высшего образования, в частности проблема обеспечения качества высшего образования, основные приоритеты формирования качества образования и критерии определения качества образования.

Ключевые слова. Качество образования, качество знаний, мониторинг качества образования, педагогический мониторинг в ВУЗах.

This article highlights some theoretical aspects of monitoring and assessing the quality of education in the higher education system, in particular the problem of ensuring the quality of higher education, the main priorities for the formation of the quality of education and the criteria for determining the quality of education.

Key words. Quality of education, quality of knowledge, monitoring of the quality of education, pedagogical monitoring in universities.

Bugungi kunda ta’lim inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlilikni oshirish, turmush darajasini ko‘tarishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Ta’limning ijtimoiy mas’uliyati ko‘p jihatdan har bir insonning tez o‘zgaruvchan mehnat bozorida xaridorgir bo‘lib qolishi, rivojlanib borayotgan innovatsion iqtisodiyotda to‘laqonli ishtirok etishi va shu yo‘l bilan o‘z farovonligini hamda umuman jamiyat farovonligini ta’minlash imkonini beradigan malakaviy va ijtimoiy ko‘nikmalar olishidan iboratdir. Ko‘pgina mamlakatlarda oliy maktabning oshib borayotgan rolini hisobga olgan holda uni rivojlantirish strategiyasi milliy strategiya ustuvorliklari bilan belgilanadi va u oliy ta’lim sifatini oshirish hamda uni olish imkoniyatini kengaytirishga yo‘naltirilgandir. Yangi sharoitlar oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash tuzilmasi, ularning bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan talabini o‘zgartirdi. Endilikda yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko‘lamini tushuna oladigan kadrlarga talab yuqoridir.

Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida[1]”gi PF-4947-son Farmonini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Farmonda mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlariga o‘tishda oliy ta’lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirishda ustuvor vazifalar qo‘ydi. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirar ekan: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuchi va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, deya ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvarda qabul qilingan “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4119-son Qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga qo‘shimcha vazifalar yuklatildi. Bu vazifalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalari reytingini tuzish va rasman e’lon qilish;

– o‘quvchilarning bilim darajasini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini ta’minlash;

– yetakchi reyting tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va milliy oliy ta’lim muassasalari dunyoning yetakchi reytingiga kirishiga har tomonlama ko‘maklashish.[2]

Ta’lim sifati – ko‘p qirrali, harakatchan va doimiy o‘zgarishda bo‘lgan konsepsiya. Shu tufayli ham mazkur tushunchani belgilashda yagona yondashuv mavjud emas.

Ta’lim sifati – inson hayot-faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo‘ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir.[3]

Pedagogik ta’limda ta’lim sifati – ta’lim modelining konseptual ko‘rsatkichlari, institutsional maqsad va vazifalari hamda ta’lim tizimining aniq standartlari, ta’lim muassasalari, o‘quv dasturlari va fanlari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p qirrali, ko‘p darajali dinamik tushunchadir.

Bilim sifati – o‘quv jarayonini tugatgandan so‘ng olingan bilimlarning fundamentalligi, yuqoriligi va ish jarayonida qanchalik kerakliligi bilan belgilanadi.[4]

Ta’lim sifatini baholashda asosiy e’tiborni quyidagi savollarga javob topishga qaratish lozim:

– Nima va kim tomonidan baholanadi?

---

[1] 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini” Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – T., 2017. 197.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4119-sonli “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.01.2019-yil., 07/19/4119/2492-son.

[3] Abduxalikov T.X. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida ta’lim sifati monitoringini tashkillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss. – T., 2003. 18b.

[4] O.D.Raximov. Ta’lim sifati va hayot sifati. O‘quv uslubiy qo‘llanma. – Qarshi, 2015 y., – 44b.

– Qanday mezon va ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?

– Baholash maqsadi va istiqbollari nimalardan iborat bo‘ladi?

Ta’lim sifati iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi va kelgusi ehtiyojlariga ta’lim tiziminining mutanosiblik darajasi bilan belgilanadi. Ta’lim va kasbiy ta’lim sohasidagi islohotlar bandlik siyosati, ijtimoiy muhofaza, ishlab chiqarish, savdo va investitsiya siyosati sohasidagi chora-tadbirlar bilan uyg‘unlikda olib borilsagina samarali bo‘ladi. Shu ma’noda aytish mumkinki, ta’lim sifati – bu aniq maqsadga erishishda va hayot farovonligini ta’minlashda aniq sharoit va joyda egallangan bilimlarga bo‘lgan ehtiyojidir. U ta’lim oluvchining quyidagi sohalarning har birida qanchalik muvaffaqiyatga erishganini ko‘rsatadi:

– o‘zining salohiyatini namoyon eta olish;

– ma’naviy tushunchalarga sodiq holda ishlash va yashash;

– o‘z hayoti farovonligini ta’minlash;

– samarali qaror qabul qila olish;

– uzluksiz ta’lim.

Bugungi kunda ta’lim nazariyasi va amaliyotida ta’lim sifatini boshqarish va nazorat qilish bilan bog‘liq quyidagi muammolar va zamonaviy yo‘nalishlar vujudga keldi:

– ta’lim sifati muammosi – zamonaviy mutaxassislarni o‘qitish va tarbiyalash hamda kasbga tayyorlash jarayonida shaxsning shakllanishini baholash bilan bog‘liq obyektiv tizimlarni ishlab chiqish va joriy etish nuqtayi nazaridan dolzarb vazifa;

– ta’lim sifatining kafolatlari muammosi – ta’lim muassasasi bilan ta’lim oluvchi o‘rtasidagi shartnomaga asosan rejalashtirilgan va erishilgan natijalarning ta’minlanishi;

– ta’lim sifatini boshqarish maqsadlarini belgilash – sifat kafolatiga tegishli talablarni bajarish orqali, shuningdek, xalqaro va davlat hamda ichki va tashqi miqyosda ta’lim parametrlarini yaxshilashga qaratilgan miqdoriy va sifat nuqtayi nazaridan baholashga ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan ta’lim muassasasi va umuman, ta’lim tizimi faoliyatining barqarorligini oshirish;

– ta’lim sifatining me’yorlari – ta’lim sifatiga oid (e’tirof etilgan va hujjatlarda qayd qilingan) talablarni, jamiyat va shaxsning ehtiyojlariga mos bo‘lgan muayyan tarkib va darajani aniqlash;

– ta’lim sifati mezonlarini aniqlash – ta’lim sifatining belgilangan me’yorlar, talablar, etalonlar va standartlarga muvofiqligining alomatlari va uning darajasi;

– ta’lim sifati monitoringi – ta’lim sifatining ahvoli va o‘zgarishi ta’lim sifatini baholash va prognozlashni kuzatish bilan bog‘liq kompleks tizimni ishlab chiqish;

– ta’lim sifatini ta’minlash – ta’lim sifatini belgilangan me’yorlar, talablar va standartlar darajasida saqlab turish;

– ta’lim sifatini boshqarish – ‘‘boshqaruv subyekti’’ tomonidan ta’lim sohasidagi barcha obyektlar va jarayonlarga nisbatan ta’lim sifatining shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish hamda ta’riflangan maqsadlar, me’yorlar va standartlarga muvofiq ravishda ularga qayta aloqa (nazorat qilish, baholash va tahlil qilish) tadbirlarini tashkil qilib berish;

– ta’lim sifatini baholashning rivojlanish, umumta’lim va kasbiy bilimdonlikni tekshirish hamda baholash bilan bog‘liq didaktik tamoyillarga javob bera oladigan pedagogik tizimni ishlab chiqish.

Ta’lim sifatini shakllantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagi 5 ta komponentni belgilab olish maqsadga muvofiq:

1-jadval

№	Komponentlar	Ko‘rsatkichlar
1	Ta’lim oluvchilar (learners)	– talabalar sifati; – ularning bilim olishga qobiliyati;
2	Muhit (environment)	– OTMning material-texnik bazasi; – o‘quv materiallari va jihozlar sifati; – infratuzilma sifati;
3	Mazmun (content)	– o‘quv predmetlarining sifati va mazmuni; – innovatsiyalarni joriy etish;
4	Jarayon (processes)	– professor-o‘qituvchilar tarkibi sifati; – ularning kompetentlik darajasi; – ta’lim berish usulining sifati; – rahbariyatning innovatsion faoliyati;
5	Natija (outcomes)	– bilim sifati; – bitiruvchilarga bo‘lgan talab; – bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi; – bitiruvchilar yutuqlari.

Sifatni baholash va belgilash har doim baxs va munozaralar ichida bo‘lib kelgan. K.Kempbel va K.Roznialarning “Sifat baholanmaydi va o‘lchanmaydi, balki ilm ahli tomonidan sifatning qayerda va qachon ta’minlanishi tan olinadi” degan talqini mavjud va u ham turli munozaralarning yana ham kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Britaniyalik mualliflar N.Jakson va X.Lund oliy ta’limdagi sifatni baholash masalalariga yondashishda “konseptual tizim” asoslanadilar.[5] (2-jadval)

O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ta’lim tizimidagi faoliyatini tashkillashtirish, takomillashtirish hamda nazorat qilish borasidagi qator qarorlarining qabul qilinishi Respublika ta’lim tizimida muhim voqea hisoblanadi. Bu hujjatlarda respublika ta’lim muassasalarida yuqori malakali, bilimdon kadrlar tayyorlash, kadrlar tayyorlovchi pedagog xodimlar faoliyatini o‘rganish usullari va yo‘llari, bosqichlari aniq belgilab berilgan va ular ta’lim sohasida amalga oshiriladigan islohotlar dasturi hisoblanadi.

Yillar davomida tayyorlanayotgan kadrlarni sifatli tayyorlash, ularga ta’lim berish sifatini oshirish, ta’lim tizimidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash va amalga oshirish borasida bir qator monitoring ishlari amalga oshirilmoqda.

Monitoring deganda, Hukumat, vazirlik, oliy ta’lim muassasalari qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini kuzatish, tahlil etish, uni bajarish asosida ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, istiqbolni bashorat qilish jarayonlari tushuniladi.

Monitoring tushunchasi – ingliz tilidan monitoring, lotin tilidan monitor so‘zlaridan olingan bo‘lib, eslatuvchi, kuzatuvchi, nazoratlovchi, tekshiruvchi degan ma’nolarni anglatadi. Umumiy holatda ma’lumotlarni kompleksli tekshirish: yig‘ish, tahlil etish, shu to‘plangan ma’lumotlarni qayd etish, saqlash hamda ma’lumotlar bazasini yaratish imkonini beradi.

Monitoring tushunchasi asosan XX asrning boshlarida fanga kirib keldi. O‘tgan asrda monitoring asosan ijtimoiy sohada odamlarni ro‘yxatga olish, ularni qayd etish

[5] Benchmarking in Higher Education // N. Jackson and H. Lund. – Society for Research into Higher Education and Open University Press, 2000, 258 p

va shaxslar haqida ma’lumotlar bazasini yaratishda keng foydalanila boshlandi. Bugungi kunda esa monitoring atamasi barcha sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Turli sohalarda global, regional va lokal monitoringni o‘tkazish, o‘sha sohaning holati bo‘yicha aniq ma’lumotga ega bo‘lish, faoliyatning natijalarini analitik umumlashtirish, oldindan bashorat qilishni ta’minlab beradi.

N.Jakson va X.Lundning “konseptual tizimi”

(2-jadval)

Kirim va resurs (Input)	Jarayon (Process)	Natija maqsad (Output)
Talaba: uning dastlabki bilim saviyasi, qobiliyati, sohasi va malakasi. **O‘qituvchi xodim:** ilmiy salohiyati, malakasi, ekspertlik darajasi, kompitentligi, rivojlanuvchi ta’limga tayyorligi. **Jismoniy resurslar:** turar joy, shart-sharoitlar, texnika va jihozlar, kutubxona va informatsion texnologiya imkoniyatlari. **Moliyaviy resurslar**: talaba va o‘qituvchi xodimlarga sarflanadigan sarf harajatlar. **Tashqi resurslar:** noakademik mutaxassislardan foydalanish, oiliy ta’lim muassasasi qaramog‘ida bo‘lmagan texnika va jihozlardan foydalanish.	Ta’lim dasturlari va o‘qitish shart-sharoitlari bilan tanishtirish. **O‘quv dasturlari dizayni va baholash.** **O‘qitish va o‘rganish** strategiyalari va metodlari, effektivligi, innovatsion yondashuvlar. **Talabalarga rahbarlik va qo‘llab-quvvatlash:** akademik va individual saboq berish tizimi, qo‘llanma va boshqa turdagi ma’ruza matni hamda ma’lumotlar, loyihalarga rahbarlik qilish. **Talabalar faoliyatini qayd qilish tizimi:** talabaning o‘zlashtirishini baholash va hisobot tayyorlash. **Menejment va adminestrativ boshqaruv tizimi:** **Tahliliy ishlar va kamchiliklarni tuzatish.** Talabalardan yoki hodimlardan kelib tushadigan talab va takliflar asosida.	**Talaba**ning raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishi, yuqori reytingga ega bo‘lish, ta’lim standartlarini bajarishi, uzluksiz ta’limning keyingi bosqichiga tayyor bo‘lishi. **O‘qituvchi xodimlar:** ularning o‘qitish, ilmiy tadqiqotlarida, boshqaruvda supervayzerlikda mahsuldorlikka va kreativlikka erishishi.

Monitoringning maqsadi ta’lim muassasalari va boshqaruv organlarining mazkur sohaga doir qabul qilingan hukumat qarorlarini amalga oshirish, ta’lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarning bilim sifatini oshirish bilan bog‘liq faoliyatlarini o‘rganish va tahlil etish hamda bu borada muassasalar, jamoalarga amaliy yordam berishdan iboratdir. Ta’lim sifatini monitoring jarayonini hayotga tadbiq etish tashkiliy-pedagogik ishlardan boshlanadi. Jumladan, monitoring tizimi asosida OTMda zamonaviy talablarga javob beruvchi, ta’limning rivojlanishiga samarali ta’sir etuvchi, takomillashtirishga ijobiy yo‘l ochuvchi faoliyat dasturi belgilanib, ish uslubi va yo‘nalishlari qayta ko‘rib chiqiladi, boshqaruv tuzilmasining maqbul ko‘rinishlari joriy etiladi. Bugungi kunda monitoring jarayonida yangi axborot texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Shuning uchun ham OTMlar hozirgi paytda monitoring jarayonlariga zamonaviy kompyuter texnologiyalarini kiritib, elektron monitoring tizimini takomillashtirish dolzarblik kasb etmoqda.

OTMda pedagogik monitoring – bu pedagog faoliyatiga tegishli bo‘lgan materiallarni yig‘ish, ishlov berish pedagogik interpretatsiya qilish va pedagogik tizim faoliyati

to‘g‘risidagi ma’lumotlarni saqlash, ularning holatini uzluksiz kuzatilishini ta’minlash, zamonaviy korrektirovka va rivojlanishini prognoz qilishdir.

Adabiyotlardan (A.S.Belkin)[6] ma’lum bo‘lishicha, pedagogik monitoringning quyidagi turlari mavjud. Bular:

– didaktik monitoring negizida o‘qitish natijalarini kuzatib borish nazarda tutiladi;

– tarbiyaviy monitoring – uning asosini tarbiya jarayonining har xil tomonlarini kuzatish, bunda o‘quv jarayoni qatnashchilari munosabatlarining aloqa tizimini, o‘zaro ta’sirlari xarakterini inobatga oladi;

– boshqaruv monitoringi – tizimning har xil darajadagi boshqaruvida munosabatlarning o‘zaro ta’sirini kuzatish, masalan, rahbar-pedagoglar jamoasidagi; rahbar-ota-onalar jamoasidagi; rahbar-ta’lim muassasasidagi tashqi muhitidagi; pedagog-pedagoglardagi; pedagog-o‘quvchilardagi; pedagog-oila kabi munosabatlar turlarini inobatga oladi;

– ijtimoiy-psixologik monitoring – bunda shaxsiy, kollektiv-guruh munosabatlar tizimini kuzatish, kollektiv, guruhda psixologik muhit xarakterini o‘rganishni maqsad qilib olinadi.

Oliy ta’lim tizimida pedagog xodimlar faoliyati samaradorligini aniqlash monitoringining quyidagi turlari mavjud:

N.A.Shamkov tomonidan ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash tizimining quyidagi tarkibiy qismlari diqqatga sazovordir:

1) o‘qitish sifati hamda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini tekshirish;

2) maqsadning aniqlashtirilishi va mashg‘ulotlarni o‘tkazish metodikasida mavjud bo‘lgan xatoliklarni aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish;

3) o‘quv-tarbiya jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

4) ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash;

5) pedagoglarga zarur metodik yordam ko‘rsatish.[7]

Agar oliy ta’lim muassasasi rahbarlari ichki nazoratni tashkil etishda rejalilik, tizimlilik, har tomonlama maqsadga yo‘naltirilganlik, oshkoralik, ta’sirchanlik singari tamoyillarga rioya qilgan holdagina yuqorida ko‘rsatilgan vazifalar muvaffaqiyatli hal etiladi. Mazkur tamoyillarga rioya etilishi pedagogik ta’lim jarayonining barcha jihatlarini:

1) moddiy-texnik jihozlanishni;

2) pedagoglarning ish tizimini;

3) talabalarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalari sifatini;

4) o‘quv-me’yoriy hujjatlar va ularning prognostik holatini;

5) o‘quv reja va dasturlarning bajarilishini nazorat qilish va baholash mumkin.

Shuningdek, N.A.Shamkov tadqiqotida ta’lim sifatini tashxis etishda pedagog faoliyatining sifat ko‘rsatkichlarining ishlab chiqilganligi ham alohida diqqatga sazovordir. Mazkur sifat ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiritilgan:

1) o‘quv mashg‘ulotlarining tashkil etilishi;

2) ta’lim tamoyillari va mashg‘ulotga qo‘yilgan talablarni amalga oshirish darajasi;

3) mashg‘ulotning maqsad va vazifalarining amalga oshirilish darajasi;

---

[6] Белкин А. С. Педагогический мониторинг образовательного процесса Вып. 3. // А. С. Белкин, В. Д. Жаворонков, С. Н. Силина – Шадринск: ШГПИ, 1998. – С.47. (Педагогический мониторинг образовательного процесса.)

[7] Шамков Н.А. Работа старшего мастера по контролю производственного обучения и производственной практики учащихся. – М., 1999. – С.28-29.

4) ta’lim metod va usullarning mashg‘ulot maqsadlariga mosligi;

5) talabalarda ta’lim, tarbiya va rivojlanish birligining to‘liqligiga erishish darajasi;

6) o‘qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentligi;

7) mashg‘ulotning moddiy-texnik jihozlanishi;

8) talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholash darajasi;

9) jamoaviy, guruhli va individual ish shakllari;

10) tashkiliy-psixologik shart-sharoit.[8]

Talabalarning kasbiy bilimlari sifatini baholashning quyidagi ko‘rsatkichlari ham N.A.Shamkov tomonidan asoslab berilgan: bilimlarning to‘liqligi va ilmiyligi, tizimli va mustahkamligi, ularning talabalar tomonidan ongli o‘zlashtirilishi. U mazkur ko‘rsatkichlar mezoni sifatida quyidagilarni taklif etadi:

1) ish usullarining to‘g‘ri bajarilishi;

2) mehnat va ish joyining oqilona tashkil etilishi;

3) texnik talablarning bajarilishi;

4) belgilangan sifat ko‘rsatkichlarining bajarilishi;

5) nazariy bilimlardan foydalangan holda vazifani bajarishda onglilik va mustaqillik;

6) mehnat madaniyati va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

Hozirgi paytda oliy ta’limda V.P.Bespalko tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim sifatining mustaqil mezoni – yo‘naltirilgan parametrlar orqali tavsiflash tizimi keng tarqalgan. Muallif unda ta’lim sifatining bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlanganlik darajasi haqida dalolat beruvchi beshta mustaqil tavsifnoma (parametrlar)larni ajratib ko‘rsatadi:

1) kasbiy mahoratni egallash uchun zarur bo‘lgan o‘zlashtirish obektlari soni (o‘quv elementlarining soni);

2) ularning chuqur o‘zlashtirilganligi (o‘zlashtirilish darajasi);

3) o‘quv elementlarini ma’lum murakkablik darajasida qabul qilish imkoniyati (mavhumlik darajasi);

4) ko‘nikma va malakalarning shakllanganligi, o‘zlashtirilgan bilimlarning amaliy ahamiyati (avtomatlashtirish darajasi);

5) o‘quv elementlari o‘rtasidagi aloqalarning keng qamrovligi (anglanganlik darajasi).[9]

Ta’lim sifatini baholash uchun A.S.Belkin va S.N.Silinalar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarda boshqacha parametrlar taklif etiladi. Jumladan:

1) ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari darajasida ta’lim mazmuni (DTS, o‘quv rejasi va dasturlari va h.k.) sifati;

2) talabaning shaxsiy reytingi va guruh reytingining koeffitsienti (o‘quv va ijtimoiy-foydali mehnat sifati);

3) o‘qituvchilar tarkibining shaxsiy reytingi (o‘qitish sifati)[10].

Bunda bo‘lajak mutaxassisning shakllanganligini baholashning individual koeffitsientini hisoblashning quyidagi formula asosida amalga oshirilishi mumkin:

---

[8] Шамков Н.А. Работа старшего мастера по контролю производственного обучения и производственной практики учащихся. – М., 1999. – С.31-32.

[9] Беспалько В.П., Татур Ю.Г.Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специалистов. – М.ВЛАДОС, 2007. – С.6-7.

[10] Белкин, А. С. Педагогический мониторинг образовательного процесса [Текст] // А. С. Белкин, В. Д. Жаворонков, С. Н. Силина. – Шадринск : ШГПИ.

$$R=\frac{x+o'+z}{100}$$

Bu yerda R – talabalarning o‘quv va ijtomiy-foydali mehtnat koeffitsienti;

X – umumiy o‘zlashtirish;

O‘ – o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashish;

Z – talabaning yarim yillik davomidagi ijtimoiy-foydali faoliyati (madaniy-ma’rifiy, ilmiy, sport, maishiy-turmush va h.k.).

So‘ngra talabalar guruhi bo‘yicha o‘rtacha koeffitsient aniqlanadi.

Oliy ta’lim sifatini baholashni keng ko‘lamda tarqalgan modellaridan yana biri individual farqlarga asoslangan boshqaruv modelidir. Unda ta’lim jarayonida olingan baholar bilan real ishni bajarilishida olingan baholararo korrelyasiyasi aniqlanadi. Agar talaba o‘qishni yaxshi ko‘rsatgichlar bilan tugatib, real ishni ham yaxshi baholarga bajarsa, korrelyasiya ijobiy bo‘ladi.

Oliy ta’lim sifatini baholashning boshqa modeli “semantik moslik”dir. Uning asosini kasbiy faoliyat ko‘rsatish uchun muhim deb tan olingan bilim, ko‘nikma va malakalarning ta’lim mazmuniga nechog‘lik mosligini tashkil etadi. Mazkur model tahsil olish jarayonida o‘zlashtiriladigan xulq-atvor me’yorlarini real ish sharoitida o‘tishda qanchalik saqlanib qolganligi, ya’ni mosligini aniqlash bilan bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘tilgan modellarning parametrlari bo‘yicha olingan ma’lumotlar asosida dasturlar qayta ko‘riladi yoki ta’lim jarayonining borishiga o‘zgartirishlar kiritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini” Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – T., 2017. 197.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4119-sonli “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.01.2019-yil., 07/19/4119/2492-son.

3. Abduxalikov T.X. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida ta’lim sifati monitoringini tashkillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss. – T., 2003. 18b.

4. Raximov O.D. Ta’lim sifati va hayot sifati. O‘quv uslubiy qo‘llanma. – Qarshi, 2015 y., – 44b.

5. Benchmarking in Higher Education // N. Jackson and H. Lund. – Society for Research into Higher Education and Open University Press, 2000, 258 p

6. Белкин А. С. Педагогический мониторинг образовательного процесса Вып. 3. // А. С. Белкин, В. Д. Жаворонков, С. Н. Силина – Шадринск: ШГПИ, 1998. – С.47. (Педагогический мониторинг образовательного процесса.)

7. Шамков Н.А. Работа старшего мастера по контролю производственного обучения и производственной практики учащихся. – М., 1999. – С.28-29.

Abdusalim KENJABOYEV,
Termiz davlat universiteti, dotsent
Nuriddin ACHILOV,
Termiz davlat universiteti, katta o‘qituvchi

UZLUKSIZ TA’LIM JARAYONIDA MILLIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasi, milliy tarbiya, ma’rifat, sharq mutafakkirlari merosida barkamol avlod tarbiyasining mazmuni va mohiyati yoritilgan. Shuningdek, salomlashish madaniyati, muloqot odobi haqida ota-onalar va yosh pedagoglarga ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, milliy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, odob-axloq, salomlashish madaniyati, komil inson.

В данной статье раскрываются сущность и значение воспитания молодежи, национального воспитания, просвещения и воспитания гармонично развитого поколения в наследии восточных мыслителей. А также рекомендуется родителям и молодым педагогам проводить духовные и образовательные мероприятия по культуре приветствия, коммуникативных навыков.

Ключевые слова. Воспитание, национальное воспитание, этика, культура приветствия, совершенный человек.

This article reveals the essence and importance of educating young people, national education, enlightenment and education of a harmoniously developed generation by the heritage of Eastern thinkers. It is also recommended that parents and young teachers conduct spiritual and educational events on a culture of greeting, communication skills.

Key words. Upbringing, national upbringing, ethics, culture of greeting, perfect person.

Vatanimiz mustaqil davlat sifatida taraqqiyot yo‘liga kirib, milliy tiklanishdan milliy yuksalish taraqqiyotiga o‘tib, “jaholatga qarshi ma’rifat”, degan ezgu g‘oya asosida tobora shaxdam qadamlar bilan dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rnini topib bormoqda. Ayni vaqtda, mamlakatimizda ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan islohotlarning barchasi inson va uning manfaatlari, qolaversa kelajagimiz bo‘lgan yoshlarga qaratilgan. Biroq, “aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish”[1] dolzarb ahamiyat kasb etadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son

Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zlarining qator ma’ruzalarida yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor berib, yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish lozimligini ta’kidlab kelmoqdalar. Ayniqsa, Prezidentimizning oliy majlisga qilgan murojaatnomalarida “Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida, men yurtimizda 2020-yilga “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili, nom berishni, taklif etaman”[2] deb ta’kidladilar.

Bu maqsadni amalga oshirishda ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi va milliy tarbiyaning roli beqiyosdir. Sharq mutafakkirlarining asarlarida barkamol insonni tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor berilgan. Jumladan, ma’rifat va fazilat sohibi bo‘lgan Al Hakim at Termiziy: “besh kimsani besh narsa tarbiyalashini alohida ta’kidlaydi, ya’ni bolalarni tuzaluvi, tarbiyasi maktablarda; qaroqchilarning tuzaluvi, tarbiyasi – qamoxonalarda; ayollarniki uylarda; yoshlarniki ilmda; kesalarniki esa masjilardadir”.[3] Ushbu hikmat asrlar osha hayot sinovidan o‘tib, bugungi kunimizgacha yetib kelganligi va insonlarni ilmu-ma’rifatga chorlashi bilan ajralib turadi. Bunday umumpedagogik g‘oyalarini o‘rganish va yoshlar tarbiyasida keng targ‘ib qilish bugungi ustoz va murabbiylarning asosiy vazifalaridandir.

Hozirgi kunda ustoz-pedagoglar mavqeyini mustahkamlash va ularni rag‘batlantirish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Jamiyatimizda eng e’zozli inson o‘qituvchilar, muallimlar bo‘lishi kerak”[4] deb e’tirof etdilar. Haqiqatdan ham o‘qituvchi va murabbiylarga qilingan ehtirom mamlakat rivoji va farovonligining rivojlanishiga hamda taraqqiyotning yuqori darajada yuksalishi tarixda o‘z isbotini topgan. Jumladan, Singapur sobiq bosh vaziri Lu Kuan Yu ta’lim-tarbiya sifati haqida shunday degan edi: “Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko‘tardim. Davlatdagi “mo‘jiza”larni qilgan insonlar-muallimlardir”. Ushbu fikrga e’tibor bersak, qanchalik ibratli fikr. O‘z navbatida Prezidentimiz: “O‘qituvchini hurmat qilmaganni men ham hurmat qilmayman. O‘qituvchi jamiyatdagi eng obro‘li kasb egasi bo‘lishi shart” deb barchaga murojaat qildilar.

Darhaqiqat, xalqimizning “Ustoz-otangdek ulug‘”, “Ota-ona bolani dunyoga keltiradi, ustoz esa uni yuksaklikka, ma’naviy kamolotga yetkazadi”, kabi purma’no hikmatlarida tarbiyachi, murabbiy va ustozlarning mehnati, qadr-qimmati ulug‘langan. Chunki, xalqimizning kelajagi, O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchi-tarbiyachilarga, ularning saviyasi, bilimi, tayyorgarligi hamda yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash jarayonidagi fidoiyligiga bog‘liqdir.

Ma’lumki, o‘zbek xalqining etnopedagogikasi umuminsoniy va milliy tarbiyaning qudratli omilidir. Qadimdan turkiy xalqlar o‘z bolalarini uy-ro‘zg‘or mehnatiga o‘rgatish-

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2020.25-yanvar, -№19(7521)-son.

[3] Zahabiy U. “Mashhur daholar siyrati” –T.: Sharq nashriyoti, 2015-yil, 429-bet.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishlaridagi nutqi. 2019-yil 23-avgust.

ga alohida e’tibor berganlar. O‘zbek xalq pedagogikasida bolalarga “Kimki yaxshi mehnat qilsa, bejirim buyum tayyorlasa, u mahoratli usta”, degan g‘oya singdirilgan. Bunday tarbiya jarayonida: “Avval bil, keyin qil”, “Avval o‘rgan, keyin o‘rgat”, “Aql ko‘pga yetkazar, hunar-ko‘kka”, “Ustozsiz shogird-jonsiz kesak”, “Ustoz ko‘rmagan shogird-har maqomga yo‘rg‘alar” kabi maqollarning ahamiyati katta bo‘lgan. Eng qadimdagi yozma yodgorligimiz hisoblangan “Avesto”da ham, “Suvni bulg‘ama”, “Suvga tupurma”, “Olov o‘ynama”, “Quyoshga tik qarama”, “Harom idishni olov bilan tozala”, “O‘choqqa axlat tashlama” kabi o‘git va hikmatli so‘zlar yoshlarga milliy tarbiya, odob-axloq fazilatlarini singdirishda dastur vazifasini bajaradi.

Yoshlar tarbiyasi ularning odob-axloq masalalari oila, mahalla va jamoatchilik asosida olib borilgan. Odob, deganda rasm-taomil, xulq-odatlar, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozosi tufayli odamlar o‘rtasida paydo bo‘lgan muomala-munosabatlarning xususiyatlari tushuniladi. Odob kishilarning amaliy xatti-harakatlari, muomala-munosabatlari, deb ham qaraladi. Axloq esa, mazkur rasm-taomil, xulq-odatlarning bir qadar umumlashgan shakli bo‘lib, ularni pand-nasihatlar, qoidalar, normalar, talablar shaklida ifodalab berilganidir.[5] Shu sababli ham bu ta’limotlar o‘zbek yoshlarini tarbiyalash jarayonida ham nazariy ham amaliy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Muloqotning barcha shakllarida kishilar bir-birlari bilan uchrashganlarida salomlashib, bir-birlaridan hol-ahvol so‘raydilar. Aslida bir kishi ikkinchi bir kishi bilan salomlashar ekan “Assalomu aleykum” ya’ni “Sizga tinchlik tilayman”, javob beruvchi esa “Va aleykum assalom” ya’ni “Sizga ham tinchlik bo‘lsin” deyiladi. Katta yoshdagi kishilarni, qo‘ni-qo‘shni va qarindoshlarni, ustozni, tengdoshlarni uchratib qolguday bo‘lsa, ko‘ksiga qo‘lini qo‘yib sharqona diyonat bilan salom berib, hol-ahvollari so‘raladi. “Salom berilgan vaqtda bosh tuban qilinmaydi. Yana qo‘l, kaft, bosh bilan ishora qilinmaydi”.[6]

Shuningdek, bizda salomlashish, ko‘rishish iltifot ko‘rsatish va umuman, odamga nisbatan hurmatning jozibali ekanligini ifodalovchi bu odatning turli shakllari mavjuddir. Ayniqsa, xalqimizning milliy urf-odatlariga ko‘ra odobli kishilar hamma vaqt birinchi bo‘lib salom berishga harakat qiladilar. Odob yuzasidan ulov mingan kishi piyodaga, piyoda kishi o‘tirgan kishiga, ozchillik ko‘pchilikka, kichik kattaga, yuqoridagi kishi pastdagi kishiga salom berishi lozim. Salomlashishda manmanlik, o‘zini yuqori olish, kibrlanish yomon xulq hisoblanadi. Shu sababdan yuqoridagi kishi pastdagi kishiga salom bersa, o‘zining kibrini sindirib kamtarlik yo‘liga o‘tgan bo‘ladi. “Salom” so‘zi arabcha sulh, do‘stlik, omonlik, demakdir. Ko‘rinib turibdiki, salomlashish ikki kishi orasidagi sulh, do‘stlik ramzi, omonlik, sog‘-salomatlik nishonasidir. Inson sog‘-salomat bo‘lsa bir-biri bilan uchrashadi va salom-alik qiladi. Salomlashish ota-bobolarimizdan bizga meros bo‘lib kelayotgan urf-odatlarimizdir. Salom inson insonga bildirgan hurmati, odamlarning o‘zaro muomala va munosabatlarining boshlanishi, bir-biri bilan uchrashuvchi ikki dilning kalitidir. Salom berganingizda hatto, sizga yoqimsiz nigoh bilan turgan odam ham alik oladi. Shu alik olish davomida sizga nisbatan ko‘ngil to‘rida iliqlik, yuzida tabassum paydo bo‘ladi. Biz ota-bobolarimizning bu axloqiy merosini qanday qilib o‘zimizdan keyingi avlodlarga qoldirishimiz mumkin, degan savol tug‘iladi. “Ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni

[5] Ochilov M. Muallim – qalb me’mori. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2001-yil, 3-bet.

[6] Muxammad Sodiq Qoshg‘ariy. Odob as-solihin (Yaxshi kishilar odobi). – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2002-yil, 7-bet.

tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, aqniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”.

Demak, salomlashish, odob-axloqning boshi hisoblanadi. Salomlashish uchun berilgan saboqlar jamiyatimizda yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarimizni muvafaqqiyatli tashkil etishimiz uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Biz ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan ustoz-tarbiyachilarning bir vakili sifatida salomlashishning ba’zi bir ko‘rinishlari haqida o‘z munosabatimizni bildirishni maqsad qildik. Chunki, o‘sib kelayotgan yosh avlodda salomlashish madaniyatini shakllantirishni tarbiyalash muammosining o‘zi axloqiy tarbiyaning o‘zak qismi hisoblanadi. U shaxsning ma’naviy va ma’rifiy saviyasi bilan bog‘liqdir. Salomlashish odobi, ilk bor kichik yoshdan boshlanib farzandlarga oilada o‘rgatiladi. Salom berish, alik olish ham farz hisoblanib, buning negizida ota-onaga hurmat, ustozga hurmat, ta’lim maskaniga hurmat va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot shakllanadi. Kattalar, ayollar, qiz-juvonlar bilan uchrashganda, ularga qarshi borib salomlashishi odobdandir. Agar ko‘pchilik kishilar ichida biron-bir do‘stini yoki tanishini uchratib qolsa, u kishining o‘ziga emas, shu yerdagi o‘tirgan yoki turganlarning barchasiga salom beriladi. Quyidagi mavzu ayrim o‘quvchilar yoki ota-onalar uchun, balkim qiziq bo‘lmasligi mumkin, lekin biz ustozlar o‘zimizning pedagogik faoliyatimiz davomida respublikamizning ko‘pgina joylarida xizmat safarlarida bo‘lib, turfa xil muloqot jarayonlarida turli kasb egalari bilan suhbatlashish baxtiga muyassar bo‘ldik. Turli joylarda xalqimiz madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan salomlashish odobiga e’tibor berganimizda ba’zi yoshlarimiz salomlashish madaniyatini mukammal egallagan bo‘lsalarda, ayrim mahalla va ta’lim maskanlarida yoshlar ro‘paradan kelayotganlarga e’tiborsiz o‘tib ketishlariga guvoh bo‘ldik. Xo‘sh bunga kim aybdor?

Bizningcha, avvalambor, oila muhiti, mahallalardagi ma’naviy-ma’rifiy jarayon hamda ta’lim muassasalarimizdagi ma’naviy-ma’rifiy mavzudagi muloqotlar yetarli darajada emasligi, ba’zi ustozlarning o‘z vazifalariga sidqidildan yondoshmaganligidadir. Shu sababli yosh ota-onalar, tarbiyachi va murabbiylarga tarbiya jarayonida quydagilarga e’tibor berishlarini tavsiya etamiz:

– oilada sog‘lom muhitni shakllantirish, farzandimizga salomlashishni go‘daklik paytidayoq odatlantirishimiz lozim;

– uzluksiz ta’lim tizimida tarbiya jarayonida ustoz va shogird o‘rtasidagi salomlashish madaniyatiga alohida e’tibor berish kerak;

– mahallalarda tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda kishilar o‘rtasidagi muomila madaniyatini salomlashishdan boshlash kerakligi uqtirib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bugungi kunda axborot – texnologiyalari rivojlangan bir davrda aloqa vositalari xalqimizning muloqot madaniyati uchun keng xizmat qilmoqda. Afsuski, biz pedagoglar, ota-onalar farzandlarimizga telefonda muloqot qilish odobini to‘la shakllantira olganimiz yo‘q. Yoshlar telefondan foydalanish odobini, yaxshi egallamaganlari tufayli ota-onalarga iqtisodiy zarar yetkazmoqdalar, ya’ni rejasiz haddan tashqari telefonda gaplashmoqdalar eng muhimi, ko‘p gaplashish farzandlarimizning sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun, biz ota-onalar, pedagoglar yoshlarga telefonda muomila madaniyatini o‘rgatib borishimizni davrning o‘zi talab qilmoqda. Chunki, axloqiy pand-nasihatlarning ijodkori ham asrlar davomida yoshlarni kamolot sari yetaklab, ularga hayot ilmini, turmush saboqlarini o‘rgatib kelgan tarbiyachi ustoz ham shu xalqdir. Shu o‘rinda ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning ushbu fikrlarini keltirib

o‘tishni joiz topdik: “Alhosil, tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”.[7]

Shu sababli, yuqoridagi fikrlarga aoslanib, olib borilgan amaliy tajribalarimizga tayanib, tarbiyachi, ustoz va murabbiylarimizga quyidagilarni tavsiya qilmoqchimiz:

– uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish;

– mahallarda o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda keksa avlod vakillarini taklif etish va ularning hayotiy tajribalaridan samarali foydalanish;

– ommaviy axborot vositalarida milliy tarbiyaga bag‘ishlangan kichik video roliklarni joylashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Demak, yoshlar tarbiyasida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, fanlari o‘rniga Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek “Tarbiya”ni fan sifatida uzluksiz ta’lim tizimiga kiritishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2020.25-yanvar, -№19(7521)-son.

3. Shavkat Mirziyoyevning xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishlaridagi nutqi. 2019-yil 23-avgust.

4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T., 2008.10-bet.

5. Zahabiy U. “Mashhur daholar siyrati” – T.: “Sharq” nashriyoti, 2015-yil, 429-bet.

6. Muxammad Sodiq Qoshg‘ariy. Odob as-solihin (Yaxshi kishilar odobi). – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2002-yil, 7-bet.

7. Ochilov M. Muallim - qalb me’mori. – T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2001-yil, 3-bet.

[7] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T., 2008.10-bet.

Zokir RAXIMOV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, “Kasb ta’limi” kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TA’LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING ZARURIYATI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim jarayonida innovatsion o‘zgarishlarga e’tibor qaratish, sifat va samaradorlikka erishish maqsadida mazkur sohada pedagogik mahoratning zaruriyati va muhim elementlari mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Mahorat, pedagog, qobiliyat, sifatlar, mazmun, mohiyat, tizim, islohot.

В статье раскрывается сущность необходимых и важных элементов педагогического мастерства в данной области с целью привлечения внимания к инновационным изменениям в образовательном процессе, достижения качества и эффективности.

Ключевые слова. Мастерство, педагог, способности, качества, содержание, сущность, система, реформа.

The article reveals the essence of the necessity and important elements of pedagogical skills in this field in order to focus on innovative changes in the educational process, to achieve quality and efficiency.

Key words. Skill, pedagog, ability, qualities, content, essence, system, reform.

Bizning asosiy maqsadimiz dunyodagi taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun erkin va farovon hayot qurishdan iborat. Ana shu vazifani sidqidildan uddalaydigan bilimli va iste’dodli, hech kimdan kam bo‘lmagan navqiron avlodni tarbiyalash bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu boradagi innovatsion o‘zgarishlar, tizimga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Pedagogik mahorat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlashni talab etib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Pedagoglar doimiy ravishda o‘z faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta’lim rivojiga hissa qo‘shadi, bu esa o‘z o‘rnida pedagogik faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu masalaning nechog‘lik dolzarbligini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida ta’kidlaganidek[1]: “Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak”. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda pedagoglarning roli juda katta bo‘lib, ta’lim jarayonida pedagoglarning mahorati ta’lim

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi https: // www.pv.uz.

sifatini oshirishda benihoya zarur sanaladi. Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko‘rinadi. Shu sababli, u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo‘lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim.

Ta’lim jarayonining faol ishtirokichisi bo‘lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqeyi, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi.

Mahorat (“mahorat” – mohirlik, ustalik, epchillik[2]) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarishdir.

Pedagogik mahorat – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o‘ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi hisoblanadi.

Pedagogik mahoratning asosini pedagogik bilimdonlik tashkil etadi.

Pedagogik bilimdonlik – pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me’yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo‘lgan e’tiborliligi, kasbiy tayyorgarlik darajasi hisoblanadi.

Bilimdon pedagog mutaxassis sifatida pedagogik jarayon va munosabatlarni maqsadga muvofiq samarali shakl, usul hamda vositalarini yetarli darajada o‘zlashtira olgan bo‘lishi zarur.[3] Quyidagi sifatlar bilimdon pedagogga xos sanaladi:

– ijtimoiy subyektlar bilan o‘zaro aloqada, madaniy muloqotda bo‘lish;

– mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta’lim mazmuniga tayangan holda qayta ishlash va kasbiy faoliyat jarayonida ulardan samarali foydalana bilish;

– o‘quv axborotlarini talabalarga yetkazib bera olish.

Pedagogning kasbiy bilimdonligida talaba bilan subyektiv munosabat o‘rnata olish; pedagogik jarayonlar mohiyati, pedagogik voqeylikni izchil idrok qila bilish; jahon pedagogik madaniyati asoslarini hamda milliy pedagogik tajribani o‘rganish, ularni integratsiyalashtirish asosida o‘z faoliyatiga tatbiq etish; innovatsion yangiliklar bilan doimiy xabardor bo‘lish; shaxsiy tajribalarni umumlashtirish va talabalarga uzatish; kasbiy fidoiylik hamda pedagogik texnologiyalarni egallash borasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilganligi namoyon bo‘ladi.[4]

Pedagogik qobiliyat. Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o‘qituvchining pedagogik qobiliyatga egaligiga bog‘liq. Manbalardan birida “qobiliyat” tushunchasi shunday sharhlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyatdir.

Pedagogik qobiliyat – pedagog tomonidan pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etilishi va olib borilishini, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlashda ahamiyatli bo‘lgan xususiyatlardir.

Pedagogik qobiliyatga xos ustuvor xususiyatlar quyidagilar sanaladi:

---

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – M – Tartibli // 5 jildli. Uchinchi jild. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 575-b.

[3] Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – С.31.

[4] Turdiyeva M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 38-42-betlar.

– pedagogik takt (pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondashish malakalariga egaligi);

– pedagogik kuzatuvchanlik (pedagogning talabalarga xos bo‘lgan hatto eng oddiy xususiyatlarni ham payqab olish qobiliyatiga egaligi);

– talabalarga bo‘lgan muhabbat (ularga mehr qo‘yish, mehribonlik ko‘rsatish, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, orzu-umidlari, hayotiy intilishlari bilan o‘rtoqlashish, ular uchun qiyin bo‘lgan vaziyatlarda g‘amxo‘rlik qilish);

– bilimlarni uzatishga bo‘lgan ehtiyoj (pedagog sifatida o‘zidagi mavjud bilimlarni talabalarga berishga intilish)

Pedagogga xos qobiliyatlar quyidagilarni tashkil etadi:

Didaktik qobiliyatlar – o‘quv materiallarini aniq, ravshan, oson tushuntirish, talabalarda fanlarga qiziqishni uyg‘otish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi qobiliyat sanaladi.

Akademik qobiliyatlar – matematika, fizika, biologiya, kimyo, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirishga imkon beradigan qobiliyatdir.

Perseptiv qobiliyatlar – shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, talabaning vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog‘liq nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyatidir.

Nutq qobiliyati – shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini nutq, shuningdek, mimika, pantomimika yordamida aniq va ravshan ifodalab berish qobiliyatidir.

Tashkilotchilik qobiliyati – talabalar jamoasini uyushtira bilish, jamoani jipslashtira olish, pedagogik faoliyatni to‘g‘ri tashkillashtirish qobiliyatidir.

Avtoritar qobiliyat – talabalarga hissiy-irodaviy ta’sir etish orqali ular o‘rtasida obro‘ qozonish imkoniyatini yaratuvchi qobiliyatdir.

Kommunikativ qobiliyat – talabalar bilan muloqotda bo‘lish, ularga to‘g‘ri yondashishning samarali yo‘lini topish, birgalikda maqsadga muvofiq o‘zaro pedagogik aloqa bog‘lovchi pedagogik taktning mavjudligini ifodalovchi qobiliyat.

Pedagogik xayol – pedagogning talabalar shaxsini tarbiyaviy jihatdan loyihalashtirishda o‘z xatti-harakatlari natijalarini oldindan ko‘ra olishni ta’minlovchi qobiliyat.

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – pedagogning bir vaqtda o‘z diqqatini bir qancha jarayonga qarata olishini tavsiflovchi qobiliyat.

Zamonaviy sharoitda har bir o‘qituvchi o‘zida quyidagi pedagogik qobiliyatlarni tarbiyalay olishi kerak:

– muloqotga kirishuvchanlik;

– hissiy sezgirlik (kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo‘la olish, ichki sezgiga ega bo‘lish);

– harakatchanlik, ta’lim jarayoni ishtirokchilariga irodaviy ta’sir ko‘rsatish va ishontirish qobiliyatiga egalik;

– hissiy barqarorlik (o‘z-o‘zini tuta bilish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish);

– kelajakni maqbul holda bashoratlay bilish;

– kasbiy mustaqillik, ijodiy qobiliyatga egalik.

Qobiliyatli pedagoglarda quyidagi noyob qobiliyatlar ham ko‘zga tashlanadi:

– bir vaqtning o‘zida bir necha faoliyatni bajara olish (masalan: eshitish, ko‘rish, o‘qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.);

– atrofda kechayotgan ikki yoki bir necha voqeylikni birdek qabul qilish (bir talabaning ma’ruzasini eshitgani holda, boshqa talabalarning faoliyatlarini kuzata olish);

– o‘ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e’tiborga tashlanmaydigan bo‘lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko‘p savollarga javob topishga intilish);

– miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to‘xtovsiz faoliyat ko‘rsatib, nihoyatda kam vaqt “dam oladi”, bilish jarayonida noaniqliklar ko‘zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik qobiliyatli pedagoglarga xos xususiyat emas);

– nutqi va fantaziyasining boyligi (qobiliyatli o‘qituvchilarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli);

– kuchli xotira (yirik hajmdagi matnni, masalan: dostonlarni bir marta o‘qish bilan to‘laligiga yodlab olib, uni so‘zma-so‘z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik kabilar alohida o‘rin tutadi.

Pedagogik muloqot madaniyati. Pedagogga xos bo‘lgan mahorat asosini tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning talabalar jamoasi bilan o‘zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog talabalar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo‘lishiga intiladi.

Pedagogik muloqot madaniyati – pedagogning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbati hisoblanadi.

Pedagogik muloqot quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etiladi:

– pedagogning alohida talaba bilan muloqoti;

– pedagogning butun guruh bilan muloqoti;

– pedagogning alohida talaba orqali guruh bilan muloqoti;

– pedagogning guruh orqali alohida talaba bilan muloqoti.

Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik ta’sir kuchiga ega. Shu sababli uni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy bo‘lishini ta’minlash pedagogning zimmasiga katta mas’uliyatni yuklaydi. Agarda to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik muloqot talabada qo‘rquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tug‘ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me’yorining buzilishi kabilarga sabab bo‘lsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada, talabalarda o‘qishga va mustaqil o‘rganishga, fikrlashga bo‘lgan qiziqish ortadi.

Pedagog rahbarligi yoki uning yo‘l-yo‘riqlari, ko‘rsatmalariga asosan o‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ham muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vaqtda muloqotning faoliyatni tashkil etish vazifasi namoyon bo‘ladi. Yaqin-yaqingacha faoliyatni tashkil etishda pedagogning yetakchiligi, uning bevosita rahbarligi ustuvor omil bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda rollar almashinuvi yetakchi o‘ringa chiqdi. Endilikda aksariyat hollarda talabalarning o‘zlari ta’lim va tarbiyaviy jarayonlarni mustaqil uyushtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Biroq, bu degani, ta’limiy va tarbiyaiy ishlarni tashkil etish davrida pedagogning o‘rni va roli mutlaqo aks etmaydi, degani emas. Pedagog bu jarayonda rahbar, yetakchi, maslahatchi, ekspert sifatida namoyon bo‘ladi va talabalarni pedagogik jarayonlarni ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik jihatdan to‘g‘ri uyushtirishga yo‘naltiradi.

Muloqot madaniyati – muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik hisoblanadi.

Ta'lim amaliyoti pedagogik muloqot jarayonida pedagoglar tomonidan quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilishidan dalolat beradi: ehtiyotsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshni ortiqcha majburlash; sustkashlik, o'zini juda yuqori yoki past qo'yish; haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish.

Kommunikativ ta'sir ko'rsatish – talabalar bilan muloqotda bo'lish, ularga to'g'ri yondashish, pedagogik nazokat bilan ularga tarbiyaviy, irodaviy va hissiy ta'sir etishdir.

Pedagogik nazokat (takt). Yuqorida aytib o'tilganidek, mahoratli pedagog faoliyatida pedagogik takt ham o'ziga xos o'rin tutadi: Pedagogik (nazokat) takt – pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, xulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligidir.

Pedagogik takt pedagog faoliyatiga g'oyaviy va amaliy jihatdan bir-biriga mos keladigan pedagogik axloqning bevosita tatbiq etishning shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Takt (dahldorlik) – axloqiy xulq-atvor, xatti-harakat bo'lib, o'zida barcha obyektiv harakatlarning oqibati va ularning shaxs tomonidan subyektiv qabul qilishni avvaldan ko'ra olish, belgilangan maqsadga osonroq erishish yo'llarini izlashning namoyon bo'lishini ifodalaydi. Pedagogik takt o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy izlanishni talab etadigan amaliy harakatdir.

Pedagogga xos bo'lgan pedagog taktning asosiy tarkibiy elementlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

– shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish;
– yuksak talabchanlik;
– suhbatdoshni qiziqish bilan tinglay olish va unga nisbatan qayg'urish;
– ruhiy barqarorlik, dadillik va og'ir vazminlik;
– munosabatlar jarayonida ishonch bilan so'zlay olish;
– qat'iyatlilik (qaysarlik emas);
– talabalarga nisbatan e'tiborli va xushyor bo'lish.

Talabalarga pedagogik mahorat asoslariga doir bilimlarni berishda ularda pedagogik taktning quyidagi elementlarini tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

• talaba shaxsini hurmat qilish va unga nisbatan talabchanlik;
• turli faoliyat bo'yicha talabalarda mustaqillikni rivojlantirish va ularning ishlariga oqilona pedagogik rahbarlik qilish;
• talabaning ruhiy holatiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, unga nisbatan yuksak idrok bilan izchil talablar qo'yish;
• talabalarga ishonish va ularning faoliyatini nazorat qilib borish;
• ular bilan muloqotni tashkil etishda o'zini oqlagan ishchan va hissiy xarakterga ega munosabatlarni qo'shib olib borish.

Pedagogning pedagogik taktga egaligi uning yurish-turishi, vazminligi, o'zini tuta bilishida namoyon bo'ladi. Ushbu sifat talabaga ishonch bilan qarashni nazarda tutadi. Talabaga ishonchsizlik bilan qarash pedagogning pedagogik taktga ega emasligini ifodalaydi. Har qanday pedagogik nizo yoki ziddiyatlarning asosida pedagogning pedagogik taktga ega emasligi yotadi. Har qanday qo'pollik, kesatiq va koyishlar, talabalarni doimiy ravishda tanqid qilish, ularga ishonchsizlik bildirish pedagogik nizolarni keltirib

chiqaradi. Pedagogik takt, shuningdek, pedagogning talaba javobini diqqat bilan tinglashida, javobning mazmuniga alohida e’tibor qaratishida, bordi-yu, talaba xatoga yo‘l qo‘yadigan bo‘lsa, uni bosiqlik, vazminlik bilan to‘g‘rilashda, talaba faoliyatini haqqoniy, oqilona baholashda, qo‘yilgan bahoning mohiyatini izohlashda namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda javob berayotgan talabaga jilmayish, turli imo-ishoralar bilan, boshni qimirlatish, yuz ifodalari, qo‘l harakatlari bilan uning javoblarini ma’qullab turish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Pedagogik mahorat negizida pedagogning kasbiy, ya’ni, pedagogik tajribaga ega bo‘lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tajriba – kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan orttirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.

Pedagogik tajribani hosil qilish yo‘llari:

1) mustaqil o‘qib-o‘rganish;
2) ilg‘or ish tajribalari bilan tanishish;
3) ilmiy anjumanlarda ishtirok etish;
4) o‘zaro tajriba almashish;
5) hamkorlikda pedagogik izlanishlarni olib borish;
6) tajribali shaxslardan maslahat olish va b.

Lug‘aviy jihatdan “imidj” (ing. “*image”)* tushunchasi “siymo”, “timsol”, “qiyofa” va “obraz” ma’nolarini anglatadi.[5]

Mohiyatiga ko‘ra ushbu tushuncha yordamida “joziba”, “maftunkorlik” ma’nolari anglanadi.

Pedagogik imidj pedagog ma’naviy-axloqiy qiyofasi bilan uning tashqi ko‘rinishi o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik, mutanosiblikni ifodalaydi. Talabalarga samarali ta’sir ko‘rsata olish uchun pedagog qanday imidjga ega bo‘lishi zarur. Pedagogning imidji uning sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli yaltiroq bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq kiyinishida aks etadi. Soch turmagi uning erkin ishlashiga halaqit qilmasligi kerak.

Pedagogning kasbiy faoliyatiga mos ish kiyimiga ega bo‘lishi talabalarga u tomonidan ko‘rsatilalgan tarbiyaviy ta’sir samaradorligini oshiradi. Zero, ish kiyimi, eng avvalo, pedagogni tartibga o‘rgatadi, qolaversa, uning tartibliligi talabalar ham namuna bo‘la oladi.

Kasbiy faoliyat pedagogning pardoz maqsadlarida turli yorqin ranglar (qizil, qora, ko‘k, yashil, zarg‘aldoq va b. rangli tirnoq va soch bo‘yoqlaridan) foydalanmasligini taqozo etadi. Shuningdek, pedagog ta’lim muassasasiga o‘ta hashamdor, ochiq, yaltiroq liboslarda kelmasligi zarur. Chunki yorqin ranglar, hashamdor, ochiq, yaltiroq liboslar talabalarning e’tiborini ta’lim olishdan chetga tortadi. Bu esa o‘z-o‘zidan ta’lim sifati va samaradorligiga ziyon yetkazadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda bugungi kunda mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o‘zida kasbiy mahorat va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Pedagogik mahorat pedagoglarda kasbiy mohirlik, ijod, ko‘nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, o‘qituvchilik, tarbiyachilik mahoratining dastlabki malakalarini tarkib toptirishni asosiy maqsad qilib belgilaydi.

[5] O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 132-bet.

Ta’lim jarayonida pedagoglarni mahoratini oshirish uning mazmunini takomillashtirish zarur ahamiyat kasb etadi. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va kasbiy bilimlar sintezini ta’minlash zarur. Pedagoglarni kasbiy shakllantirish pedagogik va texnik bilimlarni fan, ta’lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o‘zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Pedagogning mahorati ta’lim jarayonini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishiga xizmat qiladi. Pedagogik mahoratga ega bo‘lish uchun pedagog o‘z-o‘zini izchil rivojlantirib borishga e’tiborni qaratishi zarur. Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy-nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash, ko‘nikma va malakalarga ega qilish, tarbiyalash albatta oson ish emas. O‘qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma’lumotlarni egallashga ehtiyojli, bilish faolligi va aqliy mehnat madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish – muhim va davlat ahamiyatidagi vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi https://www.pv.uz.

2. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – С.31.

3. Turdiyeva M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. –38-42-betlar.

4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. 132, 178, 149-betlar.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tartibli // 5 jildli. Uchinchi jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 575-b.

Obod ERGASHEVA,
Termiz davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

O‘QUVCHI-QIZLARNING IJTIMOIYLASHUVIDA SHARQONA TARBIYANING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek oilalaridagi qiz bolalarga nisbatan alohida e’tibor, ularni milliy qadriyatlar asosida iboli-xayoli, or-nomusli, tejamkor, oqila qilib tarbiya berish vositalari hamda oilalarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bayon etilgan. Shuningdek, oilada onaning o‘rni va jamiyatning rivojlanish taraqqiyotiga mosligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Oila tarbiyasi, oila muhiti, ibo-xayo, or-nomus, tejamkorlik, oqila qiz, ibratna’muna, ayolga e’tibor.

В данной статье уделено особое внимание девочкам из узбекских семей, их воспитательной работе на основе национальных ценностей, средств воспитания, бережного, рационального и гармоничного, а также воспитательной работе, проводимой в семьях. Также освещается роль матери в семье и ее совместимость с развитием общества.

Ключевые слова. Семейное воспитание, общество, семейная среда, национальная ценность, экономия, пример-поучение, внимание к женщине.

This article pays special attention to girls from Uzbek families, their educational work based on national values, means of education, careful, rational and harmonious, as well as educational work carried out in families. It also highlights the role of the mother in the family and its compatibility with the development of society.

Key words. Family education, family environment, decent, dishonor, economy, wise girl, example-teaching, attention to women.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev har bir ma’ruzalarida xotin-qizlar roliga alohida e’tibor berib, ularning jamiyatdagi faoliyatlarini rivojlantirib, istedod va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratishni aniq belgilab berdilar. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo‘mitasining roli yanada oshirildi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, ayollarimizning jamiyatdagi o‘rnini takomillashtirish maqsadida, so‘nggi ikki yilda O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalarining faoliyati tubdan o‘zgartirilib, aniq vazifalari belgilab olindi. Qabul qilingan farmon doirasida Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta qaror, 4 farmoyish va 12 ta chora-tadbirlar dasturi qabul

qilindi. Yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning barcha sohalarda teng huquqli mehnat qilishi borasida huquqiy asoslar yaratilgan.

Bugun biz ulug‘ bir millat bo‘lib tiklanish, vatanimiz qudratini oshirib, buyuk kelajak yaratish imkoniga ega bo‘ldik. Bu shu vatanda yashayotgan har bir inson zimmasiga tarixiy burch va mas’uliyat yuklaydi. Avvalo biz har birimiz shu mas’uliyatni anglamog‘imiz va uning qudratini his etmog‘imiz kerak. Bu ulug‘ vazifaning zamirida tarbiya yotadi. Ayol esa tarbiyachidir. U nafaqat bolalarning balki erkaklarning ham tarbiyachisidir. Donishmandlar “Har qanday buyuk shaxs ortida ayol turadi”, deb aytgan hikmat ham bejiz emas. Xalqimizda “Yaxshi xotin o‘zdiradi, yomon xotin to‘zdiradi”, “Erni er qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin” deb bejiz aytilmagan. Bu hikmatli so‘zlar zamiridagi haqiqatni dastlab ayollarning o‘zlari mag‘zini chaqib, bu ulkan mas’uliyatni anglab yetishlari kerak. Erkaklar oilani boqish va boshqarishni yana o‘z yelkalariga olib oilada bolalarga ayol, mehri-muhabbatidan qoniqib yashashlari uchun imkon yaratib berishlari lozim. Hukumat va jamiyat esa ayollarga millatning tarbiyachilari, deb qarab ularni ham moddiy ham ma’naviy tomondan ijtimoiy himoya eta olsagina, biz zimmamizdagi ulug‘ vazifani ko‘ngildagidek ado etgan bo‘lamiz.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, odob-axloq, tarbiya xotin-qizlar, ona va ayol haqidagi g‘oyalar eramizdan oldingi birinchi ming yillik boshlarida shakllanganligi haqidagi ma’lumotlar bor. Eng qadimgi yozma manbalarda odob-axloq g‘oyalari zardushtiylik ta’limotining muqaddas kitobi “Avesto”da qimmatli fikrlar talqin etilgan.

Turli xil davrlarda farzand tarbiyasiga bo‘lgan e’tibor turli darajada bo‘lgan. Qaysi jamiyat o‘z naslining istiqbolini o‘ylamas ekan ana o‘sha jamiyat inqirozga uchrashi, parokandalikka yuz tutishiga tarix sahifalari orqali ko‘p bora guvohi bo‘lganmiz.

O‘zbekona qarashlarda qadimdan qiz bola tarbiyasiga alohida e’tibor bilan jiddiy qaraladi. Qizlarning yurish-turishi, gap-so‘zi, o‘zini tutishiyu, epchil-chaqqonligi u ko‘zga ko‘ringan paytdan boshlab odamlarning og‘ziga tushadi. Elimizda qiz bolaning chiroyidan ko‘ra uning husni, xulqi, epchil, chaqqon, pazandayu chevarligiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Shuning uchun hamki qizning tug‘ilganidan boshlab, unga muomala madaniyati, kiyinish madaniyati, ozodalik va tozalik, oilada odob-axloq qoidalarini qat’iy o‘rgatib boriladi. Har bir qiz – ana shu oilaning yuzi deb baho beriladi.

Umuman olganda, qiz farzandimiz dunyoga kelgan kundan boshlab uni har tomonlama yetuk etib tarbiyalashga va sog‘lom bo‘lib voyaga yetishiga jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim. Dunyo go‘zallari qaddu-qomati, tiniq yuziyu va hokazo shunga o‘xshagan diqqatni tortadigan tashqi chiroyi bilan latofatli sanalsada, bunday sifatlar ikkinchi darajali hisoblanadi. Albatta, birinchi o‘rinda yuqorida aytib o‘tgan qiz bolaning odob-axloqi va o‘zida ibo-hayo va ozodaligi kabi zebo xislatlarni mujassam etgan fe’l-atvori bilan to‘kis husnga ega hisoblangan. Ajlodlarimiz hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘z oldimizga To‘maris, Qutlug‘nigorxonim, Gavharshodbegim, Zebiniso, Uvaysiy, Nodira yana yuzlab nomlarini keltirish mumkin bo‘lgan ayollarimiz borki, ularning shiddatkorligi, oqilaligi, sabr-toqatliligi bilan birga ibo, hayosi bilan ham o‘rnak bo‘lishgan.

Xo‘sh, ayol bolalarning, erkaklarning, hattoki millatning tarbiyachisi ekan, uning o‘zini kim tarbiyalaydi? Bu savol ta’bir joiz bo‘lsa, jamiyatning maqsadini ifoda etadi. Axir bizning maqsadimiz yaxshi, baxtli kelajak qurish emasmi? Shu bois bugun o‘zini ziyoliman, deb hisoblovchi, o‘z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog‘lay oluvchi, har bir fuqoro bu ulug‘ ishga bosh qo‘shmog‘i shart. Chunki, erkakni tarbiyalash – bir

odamni tarbiyalash, ayolni tarbiyalash esa millatni tarbiyalash, demakdir. Buni hech qachon unutmaslik kerak. Faylasuflardan biri “Bizga yaxshi onalarni beringlar, biz yaxshi odamlar bo‘lib yetishamiz”, deya ta’kidlaganda haq edi.

Bugungi kunda qizlarmizning tarbiyasida xotin-qizlar rolini takomillashtirish sezilarli darajada, milliy ma’naviyatga xos bo‘lgan tomonga o‘zgarish ancha sezilmoqda. Bu esa qizlarning ijtimoiylashuvini ta’minlamoqda. Shu o‘rinda ijtimoiylashuv terminiga to‘xtalib o‘tsak “Ijtimoiylashuv” atamasini birinchi bo‘lib amerikalik sotsiolog F. G. Kedsings insonlarga nisbatan qo‘llagan. U “Ijtimoiylashuv nazariyasi” kitobida hozirgiga yaqin ma’noda “ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir”, degan fikrni bildiradi. XX asr o‘rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida o‘rganuvchi hamda fanlararo bog‘lanuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli konsepsiyalarini tahlil qilish uni, shartli ravishda, ikki asosiy yondashuvga ajratish imkonini beradi:

1. Subyektiv-obyektiv. Unda insonga jamiyat ta’sirining sust iste’molchisi sifatida qaraladi (E. Dyurkgeym, T. Parsons).

2. Subyektiv-subyektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o‘rni, uning hayotiy holatlarga ta’sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda bir qator ayollar qizlarning hayotga tayyorligini ularning seplari bilan belgilamoqda. Sep, qalin va boshqa sarf-harajatlarni haddan oshirib, oilalarni tezda buzilib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Ayrim joylarda hali ham qalin, deb ko‘p mol-mulk olish xurofotidan qutila olmagan kelin olish uchun ko‘p ming so‘mlab pul, o‘nlab mol-qo‘y kiyim-kechak va jihozlar berishga, kelin kelgach, undan narsalarni undirib olishga o‘rgangan oilalar haligacha bor bunday olish berishlar qizlarimizning haq-huquqini kamsitish, ularni oldi-sotdi qilish emasmi. Hozirgi kunda qizlarning seplarida turli hashamdor ro‘zg‘or anjomlari o‘rin olmoqda, agar bu qizlarimizning hayotda o‘z o‘rnini topishga xizmat qilsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Biroq, bu narsalar qizlar baxtini kafolatlay oladimi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-avgustda ijodkor ziyoliylar bilan uchrashuvida to‘ylarni tartibga solish masalasi ko‘rib chiqildi.

Prezidentimiz dabdabali to‘ylarni “dard” deb atagan edi. To‘ylarga sarflanadigan nozu-ne’matlar bir tomon bo‘lsa, ikkinchi dard ularning seplari, ota-onani toliqtirib qo‘ymoqda. Onalarimiz qizlariga ro‘zg‘or tutish axloq-odob qoidalarini o‘rgatish o‘rniga, sep to‘plash uchun tinmay mehnat qilmoqda .Bu esa qizlarimiz ma’naviyatining pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Qizlarimizning seplarida ularning ma’naviyatini ko‘tarishga xizmat qiladigan turli mavzulardagi kitoblar, ma’naviy manbalar (onalar tomonidan tikilgan kashtalar, buvilari tomonidan qoldirilgan taqinchoqlar) bo‘lsa juda yaxshi bo‘lar edi. Shu sababli o‘zbek oilalarida qizlarni tarbiyalashda quyidagi masalalarga e’tiborni qarotmoq lozim:

– qizlarimizga yoshligidanoq o‘zbek urf-odatlarini va udumlarini singdirib borish;

– avvalo ona, qolaversa, ota qiziga har tomonlama o‘rnak, namuna bo‘lishi lozim;

– oilada ayollar o‘rnini, vazifasini, burchini huquqini tushuntirib borish;

– oilada ayollar zimmasidagi yumushlarini puxta o‘rgatib borish;

– qizlarning savollariga, tushunmagan narsalari bo‘yicha so‘rovlariga shoshilmay, mukammal javob berish;

– qarindosh-urug‘, mahalla-kuydagi obru e’tiborli oilalarning ayollarini qizlarini namuna qilib ko‘rsatib borish;

– ortiqcha erkalatmaslik ranjitmaslik, ayniqsa, yomon so‘zlar bilan haqoratlamaslik kerak;

– qiz bolaga ota-ona, aka-ukalar tomonidan zulm o‘tkazmaslik;

– noto‘g‘ri ish, xatti-harakatini tushuntirib, yengil koyish bilan birga yaxshi ishlarni rag‘batlantirib borish;

– yoshi ulg‘aya borgan sari qiz bolaga turmush, oila, turmush o‘rtog‘i, unga munosabatni shakillantirish;

– qiz bolaning adabiyotga, san’atga she’riyatga havasini ortirib borish;

– odob-axloq, sharm-hayo, ibo, muloyimlik yurish-turish va kiyinish madaniyati, tejamkorlik, sabr-toqatli bo‘lish masalalarida tushuncha berib borish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekona qarashlarda qadimdan qiz bola tarbiyasiga alohida e’tibor bilan jiddiy qaraladi. O‘zbekchilikda qizlarning yurish-turishi, gap-so‘zi, o‘zini tutishi-yu, epchil-chaqqonligi u ko‘zga ko‘ringan paytdan boshlab odamlarning og‘ziga tushadi. Elimizda qiz bolaning chiroyidan ko‘ra uning husni, xulqi, epchil, chaqqon, pazandayu chevarligiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Shuning uchun hamki qizning tug‘ilganidan boshlab, unga muomala madaniyati, kiyinish madaniyati, ozodalik va tozalik, oilada odob-axloq qoidalarini qat’iy o‘rgatib boriladi. Har bir qiz – ana shu oilaning yuzi deb baho beriladi. Umuman olganda, qiz farzandimiz dunyoga kelgan kundan boshlab uni har tomonlama yetuk, komila etib tarbiyalashga va sog‘lom bo‘lib voyaga yetishiga jiddiy e’tibor qaratamiz. Dunyo go‘zallari qaddu-qomati, tiniq yuziyu va hokazo shunga o‘xshagan diqqatni tortadigan tashqi chiroyi bilan latofatli sanalsada, bunday sifatlar ikkinchi darajali hisoblanadi. Albatta, birinchi o‘rinda yuqorida aytib o‘tgan qiz bolaning odob-axloqi va o‘zida ibo-hayo va ozodaligi kabi zebo xislatlarni mujassam etgan fe’l-atvori bilan to‘kis husnga ega hisoblangan. Bu esa qizlarning sharqona tarbiya olib hayotda o‘z o‘rnini topishga qolavesa ijtimoiylashuviga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni, 2018-yil 02.03.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining navbatdagi sesiyasidagi ma’ruzasi. 2019-yil.07.03

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: O‘zbekiston, 2005.

5. Fazliddin Iqroruddin. Nikoh va oila risolasi. –T.: Movarounnahr, 2004.

6. Egamberdiyeva N. “Ijtimoiy pedagogika” –T.: O‘qituvchi, 2009-yil.

7. Xudoyqulov X.J. Odob-axloq durdonalari. –T.: TTYMI, 2010.

8. Xudoyqulov X.J. O‘zbek qizining g‘ururi – uning or-nomusi va odobidadir. – T.: Dizayn-Press, 2011.

Nargiza ATAKULOVA,
Andijon davlat universiteti,
“Umumiy pedagogika” kafedra katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SAMARALI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI

Annotatsiya

Maqola umumta’lim maktab o‘quvchilarining o‘quv jarayonida predmetlararo aloqadorlik asosida egallagan bilimlarini nuqtayi nazarlar, ishonch va e’tiqodga aylantirish hamda ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning samarali rivojlantirish vositalarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Ilmiy dunyoqarash, ilmiy bilimlar, nuqtai nazar, his-tuyg‘u, pedagogik jarayon, e’tiqod, ta’lim-tarbiya, moddiy borliq.

Статья направлена на преобразование знаний, приобретаемых учащимися средней школы в образовательном процессе на основе предметно-ориентированного общения, во взгляды, уверенность и убеждение, а также определение средств эффективного развития в них формирования научного мировоззрения.

Ключевые слова. Научное мировоззрение, научное знание, взгляд, чувства, педагогический процесс, убеждения, воспитание, материальное бытиё.

The aim of the article is to identify means for the effective development of knowledge of secondary school students on the basis of interdisciplinary connections in the learning process with attitudes, beliefs and the formation of a scientific worldview.

Key words. Scientific worldview, scientific knowledge, attitudes, feelings, pedagogical process, beliefs, education, material existence.

Dunyoqarashning shakllanishi ilmiy ongning uzoq muddatli murakkab rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Bunday ong ilmiy bilimlar, tafakkur madaniyati, his-tuyg‘ular, hissiy munosabatlar, maqsadli intilishlar va irodaviy harakatlarga tayanadi.

Pedagogik yondashuvlar o‘quv rejasining ilmiy-falsafiy asoslaridan kelib chiqadi. Bunda o‘quvchilar ko‘z o‘ngida olamning dunyoqarashga asoslangan manzarasini ochishga xizmat qiladigan o‘quv fanlarini tanlash imkoniyati vujudga keladi. Shundagina mazkur o‘quv predmetlaridan taqdim etilgan bilimlar o‘quvchilarning amaliy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan qurollantiradi. Shu asosda o‘quvchilar o‘rganadigan o‘quv fani asoslarining ichki aloqadorligi ta’minlanadi. Maktabda o‘qitiladigan barcha o‘quv predmetlari ikkita muhim pedagogik vazifani bajaradi. Ular:

1. Muayyan fanning qonuniyatlari va aniq dalillarini o‘rganish.

2. O‘rganilgan qonuniyatlar va dalillarni o‘quvchilarning yaxlit tarzdagi ilmiy dunyoqarashlari tarkibiga singdirish. Bunda bilvosita amalga oshiriladigan vazifalar va

o‘qituvchining amaliy faoliyati muhim ahamiyatga ega. Ushbu vazifa o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchilar uchun ham nihoyatda zarur hisoblanadi.

Ilmiy dunyoqarash, birinchi navbatda, tabiiy-aniq fanlar, ijtimoiy fanlar hamda gumanitar fanlarga oid bilimlarni o‘zlashtirish natijasida vujudga keladi. O‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qituvchilar ularga tabiat va jamiyat hodisalariga oid bilimlarni taqdim qiladilar. O‘quv jarayonida o‘quv predmetlariaro aloqadorlik asosida o‘quvchi ko‘z o‘ngida moddiy borliqni yaxlit tarzda gavdalantirish imkoniyatini vujudga keltirish mumkin. Nazariy hamda amaliy xarakterdagi o‘quv materiallar yordamida o‘quvchilarga tabiat va jamiyatning uzluksiz rivojlanishi va uni bilish imkoniyatlarining kengayib borishi haqidagi bilimlar taqdim etiladi. Buning natijasida o‘quvchilarda dialektik tafakkur shakllanadi. Bu esa bilish jarayonlarini jadallashtirib, ularning intellektini rivojlantiradi.

O‘quvchilarda bilimlar, nuqtayi nazarlar, e’tiqod, his-tuyg‘u, irodaning yaxlit tarzda shakllanishida ijtimoiy-gumanitar xarakteridagi o‘quv fanlari muhim o‘rin egallaydi. Chunki ijtimoiy-gumanitar xarakterdagi o‘quv fanlari yagona falsafiy-tarixiy asosga ega. Ularni o‘rganish natijasida o‘quvchilar insonning jamiyatdagi hayoti, uning rivojlanishi va istiqbollariga oid muayyan ilmiy dalillarni o‘zlashtiradilar.

O‘qituvchilar bilan birgalikda ijtimoiy hodisalarni tarixiylik nuqtayi nazardan tahlil qilamiz. Natijada o‘quvchilar hodisalarning qaysi sabablarga ko‘ra vujudga kelganligi, ular orasidagi aloqadorlik, muayyan hodisalarning O‘zbekiston jamiyatida qanday ahamiyat kasb etishi, ular qaysi yo‘nalishda rivojlanayotganliklarini bilib oladilar. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarni ijtimoiy hodisalar orasidagi ziddiyatlar, mazkur qarama-qarshiliklarning rivojlantiruvchi quvvatini ko‘ra olishga ham o‘rgatish lozim.

Aniq-tarixiy tafakkur o‘quvchilarning maktabda ta’lim olish jarayonidayoq mamlakat va xorijiy davlatlardagi siyosiy voqelikni idrok etishlariga imkoniyat berishi kerak. Ular ilmiy-siyosiy axborotlar oqimini farqlay olishlari muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilar dunyoqarashining shakllanishida asosiy o‘rinni ijtimoiy-gumanitar hamda badiiy ta’lim sohasidagi o‘quv predmetlari egallaydi. Chunki ularni o‘quvchilar asosan o‘quv predmeti emas, balki san’at turi sifatida idrok etadilar. Adabiyot, tasviriy san’at, musiqa ta’limi kabi o‘quv predmetlari shular jumlasidandir. San’at sohasidagi o‘quv fanlaridan ta’lim berishda muhim o‘rinni o‘quvchilarning badiiy asarlarni yaxlit tarzda idrok etishlariga erishish egallaydi. Pedagogik jarayonda ushbu g‘oyani amalga oshirish nuqtayi nazarlar va e’tiqodlar, dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida o‘quvchilarning estetik g‘oyalarni ishlab chiqishlariga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarda dunyoqarashning shakllanishida san’atning amaliy turlarini egallash alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarda ta’lim jarayonida nafaqat badiiy asarni idrok etish, balki san’atga xos bo‘lgan nutqiy holatlarni ham o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Shundagina ularning layoqatlari asosida san’atga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish mumkin.

O‘quvchilarda shakllangan dunyoqarash ularning ijtimoiy foydali mehnat ko‘nikmalarini egallashlarini faollashtiradi. O‘quvchilarning ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, mehnatda muvaffaqiyat qozonishlari ularning o‘z nuqtayi nazarlarining to‘g‘riligiga ishonch hosil qiladi. E’tiqodlari bilan muvofiq ravishda harakat qilishlari va o‘zlarini shaxs sifatida his etishlariga ham ko‘maklashadi.

Shu bilan bir qatorda o‘quvchilar dunyoqarashning shakllanishida sinfdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayoni ham muhim o‘rin egallaydi. Sinfdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning ixtiyoriy ravishda ishtirok etishlarini hisobga olgan holda ularni

tashkil etishda ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ham taqozo etiladi.

O‘qituvchilar o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak. Bunda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflardayoq harakat va rivojlanish qonuniyatlariga tayangan holda o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi. Jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlarni aniq his etadilar. Chunki ushbu munosabatlar o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish xarakteriga ega. Bunday munosabatlarga tabiat hayoti haqidagi dastlabki tasavvurlar, chunonchi, mavsumiy o‘zgarishlar, olamning moddiy birligi, uning muntazam rivojlanishi haqidagi bilimlarni kiritish mumkin.

O‘smirlik davrida o‘quvchi shaxsining jadal rivojlanishi uchun o‘quv-tarbiya jarayoni yetarli darajada dialektik munosabatlarni puxta o‘zlashtirish imkonini berishi lozim. Bunda olamning dialektik-materialistik konsepsiyasining puxta o‘zlashtirilishi ta’minlanadi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarning eng zarur ehtiyojlari jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga bo‘lgan intilishni namoyon etishdan iborat. Mazkur ehtiyojni qondirish o‘z navbatida o‘quvchining muloqot doirasini kengaytiradi. Shu asnoda u shaxsiy tajribalari doirasini kengaytiradi, shuningdek, ushbu ehtiyoj o‘quvchining hayotiy tartib-qoidalari va ideallarining shakllanishiga turtki beradi. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchi o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda inqirozli vaziyatlar vujudga kelishini ham yaxshi bilishi kerak. Ular uchun hukmlar, nuqtayi nazarlar, o‘z-o‘zini nomuvofiq tarzda baholashning nobarqarorligi va taqlidchilikka moyillik xarakterlidir. Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga xizmat qiladigan o‘quv materiallarini to‘laqonli o‘zlashtirishlari bilan bir qatorda ularni rivojlantirish, voqea-hodisalar va dalillarni obyektiv baholash, asoslangan holda hukmlar chiqarish, tashabbuskorlik, mustaqillikni rivojlantirish ustida ham muntazam ish olib borishlarini talab qiladi.

O‘smirlik davrida o‘quvchilar asosan jismoniy-ma’naviy yetuklikka erishishga intiladilar. Bu esa ularning ilmiy dunyoqarashni keng ko‘lamda to‘laqonli o‘zlashtirishga tayyorliklarini ta’minlaydi. Bu davrda o‘quvchilarda tafakkurning falsafiy yo‘nalganligi namoyon bo‘ladi. Ular borliqni bilishga nisbatan ongli munosabatni namoyon etadilar. Ularda barcha narsalar, hodisalar, buyumlarning mohiyatini anglash ehtiyoji kuchayadi. Bu o‘quvchilarda yuqori darajada umumlashgan metodologik g‘oyalarning shakllanishiga asos bo‘ladi. Natijada ularda hayotda to‘g‘ri yo‘nalish olishga ko‘maklashadigan qat’iy nuqtayi nazar, e’tiqod, faoliyat va xulq-atvor prinsiplari tarkib topadi.

Bu davrda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash jarayoni amalga oshadi. Shu bilan bir qatorda o‘z-o‘zini mos tarzda baholash asosida boshqalar e’tiborini jalb qilish sifatlari shakllanadi. Ular o‘z hayotiy maqsadlari, rejalarini aniq ifodalay boshlaydilar. Mazkur yoshda muayyan dunyoqarash nuqtayi nazaridan yondashgan holda o‘quvchilar o‘zlarining kasbiy tanlovlarini aniqlashga muvaffaq bo‘ladilar.

O‘quv-tarbiya jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning asosiy vositasi o‘quvchilarning bilimlar tizimini o‘zlashtirishlari uchun munosib sharoit yaratishdir. Bunday imkoniyat qay darajada mavjud? Zamonaviy ilmiy bilimlar tarkibi metodologik g‘oyalar, nazariyalar, prinsiplar doirasida tashkil topadi. Bilimlar nuqtayi nazarlar va e’tiqodlar darajasida rivojlanishi uchun o‘quvchilarning his-tuyg‘ulari va kechinmalari sohasiga singishi lozim. Shu ma’noda o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish-

ning muhim vositalaridan yana biri pedagogik jarayonda o‘quvchilarning ijobiy hissiy holatlarini vujudga keltirish, ular oldida turgan to‘siqlar va qiyinchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

Dunyoqarash tarkibidagi intellektual, hissiy-irodaviy elementlar bilan bir qatorda amaliy harakatli qismlar ham o‘z ifodasini topadi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning ahamiyatli vositalari sifatida turli-tuman tarbiyaviy faoliyatlarni ham ko‘rsatish mumkin. Chunki o‘quvchilarning amaliy harakatlari doirasi yetarlicha keng qamrovli bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash shakllanganligining me’zonlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

− aniq dalillangan o‘quv bilimlarining mavjudligi, ularning chuqurligi va yaxlit tizim sifatida mujassamlashganligi, tabiat va jamiyat hodisalarini bir butun tarzda ifodalanganligini izohlovchi tafakkurning shakllanganligi;

− o‘quvchilarda obyektiv borliqni dialektik idrok etish layoqatining rivojlanishi, ularda tabiiy-ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish ko‘nikmasining shakllanganligi, ularni umumlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlari asosida xulosalar chiqarishlari;

− o‘quvchilarda ijtimoiy faollikning vujudga kelishi, fuqarolik pozitsiyasining shakllanganligi, iqtisodiy hamda ekologik tafakkurning hosil bo‘lganligi kabilar.

Bunday natijaga erishish uchun darslikdagi o‘quv materiallari bilan bir qatorda o‘qituvchilar tomonidan mustaqil o‘qish uchun tavsiya etiladigan asarlar, matbuot materiallari, sinfdan tashqari ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarda olgan bilimlar ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni samarali rivojlantirish uchun ularda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov M.Q., Qurboniyozova Z.Q. Ijtimoiy pedagogika – T.: RTM, 2003, 48-b.

2. Tulenov J. Jamiyat falsafasi. 6-bo‘lim. – T., 2001.

3. Ильина Т.А. Формирование мировоззрения и социализация // Школа. – М.: 2000. – № 5. – С. 38.

Shaxlo XUDOYKULOVA,
Samarqand davlat universiteti,
‘‘Boshlang‘ich ta’lim metodika’’kafedra o‘qituvchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING ILMIY-METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini davlat ta’lim standartlari talablari doirasida tayyorlashning kvalimetrik diagnostikasi, xalqaro baholash me’zonlari, ta’lim sifatini baholash muammolari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim sifati, konsepsiya, ilg‘or xorijiy tajriba, mutaxassislarni tayyorlash, integratsiya, ta’lim sifatini boshqarish, ta’lim sifati monitoringi.

В данной статье речь идет о квалиметрических стандартах подготовки будущих учителей начальных классов в рамках требований государственных образовательных стандартов, международных критериев, проблемах оценки качества образования.

Ключевые слова. Качество образования, концепция, передовой зарубежный опыт, подготовка специалистов, интеграция, управление качеством, мониторинг качества образования.

This article discusses the qualimetric standards for training future primary school teachers within the requirements of state educational standards, international criteria and problems of evaluating the quality of education.

Key words. Quality of education, conception, international best experience, training specialists, integration, quality management of education, quality monitoring of education.

Jahonda zamon talablariga mos metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan pedagogik kadrlarni tayyorlash, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish modellarini, metodik tizimi, multimediali elektron resurslar yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda, “ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish”ga zarurat borligi qayd etilmoqda.

Davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ularning munosib kasb-hunar egallashlari, ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish va milliy kadrlar tayyorlashni zamon talabi darajasiga ko‘tarish masalasiga ahamiyat berilmoqda. Respublikamizdagi umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida ta’limni zamonaviy talablar asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, uzluksiz ta’lim tizimining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muas-

sasalari tizimini yanada takomillashtirish, raqobatbardosh o‘qituvchining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlikni kuchaytirish jamiyat talablarining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu borada ham yuqori natijalarga erishildi. Respublikamizda “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash” shu bilan birgalikda umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rgatish; ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda oliy ta’lim tizimida faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi kunda an’anaviy o‘qitish o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarning egallagan bilimi, ko‘nikma va malakalarini muntazam nazorat qilib borish, ularning olayotgan bilimlaridagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida to‘ldirib borish, iqtidorli o‘quvchilardagi intellektual salohiyatning muntazam rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish, kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga qiziqtirish, ularning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va tajribalarni boyitish, sinfdan tashqari pedagogik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, o‘quv-tarbiya jarayonida innovasion pedagogik texnologiyalardan hamda pedagogika fanining ilg‘or yutuqlaridan muntazam foydalanish, ya’ni ta’lim jarayoniga axborot-kommunikasiya texnologiyalari elementlarini olib kirish, ulardan samarali foydalanish, o‘qituvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishini yo‘lga qo‘yish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning malakalarini muntazam oshirib borishda innovasion metodlardan foydalanish kabi vazifalarni samarali bajarish dolzarb tus olmoqda. Ta’limga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ham boshlang‘ich sinflar uchun o‘qituvchilarni tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratiladi.

Ta’lim sifatini boshqarish va monitoringini olib borish masalalari N.Axmedova, R.Ahlidinov, M.Vaxobov, R.Jurayev, U.Inoyatov, R.Karimov, X.Rashidov, C.Turg‘unov, Q.Shodmonov, Sh.Qurbonov, M.Yuldashev, M.I.Zaretskiy, B.P.Yesipov, M.A.Danilov, I.L.Lerner, M.N.Skatkin va boshqa olimlar bilim tarkibi va uni baholash sifati muammosi bilan shug‘ullanadigan yangi pedagogik kognitologiya ilmiy yo‘nalishiga asos solishgan. Ular tomonidan pedagogik atamalar sifatida bilim sifati mezonlari, bilmlarning to‘liqligi, to‘g‘riligi, aniqligi, hajmi, tizimliligi, ongliligi, chuqurligi, amaliyligi, umumiyligi, aniqligi, mustahkamligi va boshqa sifatlari keng iste’molga kiritilgan.

Bu borada N.Azizxo‘jayeva, L.Golish, B.Ziyomuhammedov, R.Ishmuhammedov, U.Nishonaliyev, M.Ochilov, E.Ruziyev, N.Sayidahmedov, O‘.Tolipov, J.Tolipovalar tomonidan ham bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari hamda elektron adabiyotlarni yaratish texnologiyasi A.Abduqodirov, Sh.S. Axrarov, U.Begimqulov, R.Boqiyev, M.Lutfullayev, I.Tayloqov, A.Haitov, U.Yuldashevlarning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari hamdo‘stlik mamlakatlarida M.Bantova, G.Beltyukova, N.Istomina, L.Nesterenko, A.Poleshikova, A.Pishkalo, O.Tarasova, S.Shvetsovalar hamda xorijiy tadqiqotlar tajribasida Sh.Ainsvorth (Sh.Ainsworth), S.Blessing (S.Blessing), T.Jong (T.Jong), V.Kouvenhoven (W.Kouwenhoven), T.Murray (T.Murray), C.Coutrac (C.Coutras), K. Thaung (K.Thaung), S.Erduran (S.Erduran)lar ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Metodik adabiyotlarda bilimlar sifati o‘quvchilarning o‘quv predmeti mazmunini har tomonlama o‘ziga xos tarzda o‘zlashtirilganligi bilan tavsiflanadi. Ta’lim faoliyati amaliyotida bilimlar sifati tushunchasini o‘quvchilarning o‘rganilayotgan fanni a’lo va yaxshi baholarga o‘zlashtirish darajasi belgilab beradi.

Jumladan, J.O.Tolipovaning doktorlik disertasiyasida biologiya o‘qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligini tarkib toptirish va mazkur tayyorgarlikni orttirishning konseptual asoslari; ularni ilmiy tayyorgarlik darajasini orttirish mazmuni va metodik tizimini tashkil etish, boshqarish, samaradorlikka erishish yo‘llari; umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida biologiya o‘qitish jarayonini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari hamda biologiya o‘qitish jarayonida pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

R.Ibragimovning tadqiqot ishida esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini boshqarish, boshlang‘ich ta’limga muammoli yondashuv texnologiyasi bilish faoliyatini boshqarish, ta’lim jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etish, o‘quvchilar mustaqil ishlarining mohiyati, roli va ahamiyatiga to‘xtalib o‘tilgan.

Olim va tadqiqotchi V.P.Panasyuk o‘zining izlanishlarida ‘‘ta’lim jarayoni sifati’’ kategoriyasi rivojlanishi tahlilini amalga oshirgan. U ta’lim jarayoni sifatini optimal uyg‘unlikdagi turli elementlardan tashkil topgan yaxlit xususiyatlar asosida maktab o‘quvchisi rivojlanishi, ta’limi, tarbiyasi yuzasidan vazifa va topshiriqlarni samarali amalga oshirishida ko‘radi.

Amaliy maqsadlarda ta’lim sifati tushunchasi ta’lim oluvchini o‘rab turgan o‘quv jarayoni muhitining ‘‘sifat o‘zgarishlari’’, ma’lum bir kurs, bo‘lim yakuni asosida to‘plagan bilim, egallagan ko‘nikma va malakalari, qadriyatlari sifatining yaxshilanganligi tushuniladi.

Ta’lim sifati tushunchasining toraygan ma’nosida tayyorgarlik sifati tushunchasi paydo bo‘ladi. Tayyorgarlik sifati tushunchasini o‘zlashtirilayotgan o‘quv predmeti yuzasidan amalga oshirilayotgan o‘quv jarayonida ta’lim dasturlarini amalga oshirish darajasida ta’limni rejalashtirish, uning natijalarini baholash sifatida muhokama qilish mumkin bo‘ladi. Tayyorgarlik sifati tushunchasi hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda o‘quv yutuqlari atamasi bilan parallel tarzda qo‘llanilib kelmoqda.

Bizning fikrimizcha bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limda erishgan yutuqlarini baholashda, odatda, ularning tayyorgarlik sifati va darajalari e’tiborga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tayyorgarlik darajasi talabaning muayyan o‘quv fanidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka va tasavurlari jamlanmasi bilan belgilanadi. Bilimlar tasnifiga ularning mustahkamligi, ongliligi hamda umumlashganligini kiritadi.

Keyingi yillarda xorijda o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi sifati yuzasidan ma’lum tasavvur va ma’lumotlarni olish imkonini beradigan bir qator qiziqarli metodlar tavsiya qilinib kelinmoqda. Masalan, bilimlarni loyihalash indeksini baholash metodi (method S-P lines). Metodni qo‘llash mazmuni mutaxassislar tomonidan maxsus tarzda tanlab olingan testlar majmuasini ishlab chiqishni talab qiladi. Bu holatda testlar nafaqat talabaning tayyorgarlik darajasi, balki uning bilimlari tarkibi, aniqrog‘i, pedagog tomonidan o‘quv yili yoki chorak boshida oldindan belgilangan ideal darajadagi bilimlarga nisbatan og‘ish darajasini ham aniqlash imkoni tug‘iladi. Talabaning qiyinchilik darajasi ortib boradigan test savollariga bergan javoblari to‘g‘rilik darajasi yuqoriligi uning bilimlari tarkibining boshqa sinfdoshlarinikiga nisbatan yaxshiligini anglatadi.

O‘z navbatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorgarlik darajasi ularning tirishqoqligiga, uning bilim olishga bo‘lgan intilish va qiziqishiga bog‘liqligini hamma vaqt ta’kidlash lozim. Talabaning bilimlari tarkibi ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishda o‘z aksini topadi. Ularning bilim tarkibini shakllantirishda o‘qituvchining talabalarni tayyorlash dasturini to‘g‘ri tashkil qilishiga, mashg‘ulotlarni shakllantirishda bo‘shliqlarga o‘rin qoldirmasligi, materiallarni samarali ifodalashiga, guruh va individual ishlash mahoratiga bog‘liq.

Hozirgi zamon taraqqiyoti sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarilani tayyorlash, pedagogik tizimni baholash, o‘qitish sifatini baholash, ular egallagan bilimlar tarkibini diagnostika qilish mummosi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

M.I.Zaretskiy, B.P.Yesipov, M.A.Danilov, I.L.Lerner, M.N.Skatkin va boshqa olimlar bilim tarkibi va uni baholash sifati muammosi bilan shug‘ullanadigan yangi pedagogik kognitologiya ilmiy yo‘nalishiga asos solishgan. Ular tomonidan pedagogik atamalar sifatida bilim sifati mezonlari, bilmlarning to‘liqligi, to‘g‘riligi, aniqligi, hajmi, tizimliligi, ongliligi, chuqurligi, amaliyligi, umumiyligi, aniqligi, mustahkamligi va boshqa sifatlari keng iste’molga kiritilgan.

Metodik adabiyotlarda bilimlar sifati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarilarning o‘quv predmeti mazmunini har tomonlama o‘ziga xos tarzda o‘zlashtirilganligi sifatida tavsiflanadi. Ta’lim faoliyati amaliyotida bilimlar sifati tushunchasini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘rganilayotgan fanni a’lo va yaxshi baholarga o‘zlashtirish darajasi belgilab beradi.

V.P.Panasyuk o‘zining tadqiqotlarida ‘‘ta’lim jarayoni sifati’’ kategoriyasi rivojlanishi tahlilini amalga oshirgan. Ta’lim jarayoni sifatini optimal uyg‘unlikdagi turli elementlardan tashkil topgan yaxlit xususiyatlar asosida maktab bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini rivojlanishi, ta’limi, tarbiyasi yuzasidan vazifa va topshiriqlarni samarali amalga oshirishida ko‘radi.

Amaliy maqsadlarda ta’lim sifati tushunchasi ta’lim oluvchini o‘rab turgan o‘quv jarayoni muhitining ‘‘sifat o‘zgarishlari’’, ma’lum bir kurs, bo‘lim yakuniy asosida to‘plagan bilim, egallagan ko‘nikma va malakalari, qadriyatlari sifatining yaxshilanganligi tushuniladi.

Ta’lim sifati tushunchasining toraygan natijasi sifatida tayyorgarlik sifati tushunchasi paydo bo‘ladi. Tayyorgarlik sifati tushunchasini o‘zlashtirilayotgan o‘quv predmeti yuzasidan amalga oshirilayotgan o‘quv jarayonida ta’lim dasturlarini amalga oshirish darajasida ta’limni rejalashtirish, uning natijalarini baholash sifatida muhokama qilish mumkin bo‘ladi. Tayyorgarlik sifati tushunchasi hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda o‘quv yutuqlari atamasi bilan parallel tarzda qo‘llanilib kelmoqda.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limda erishgan yutuqlarini baholashda, odatda, ularning tayyorgarlik sifati va darajalari e’tiborga olish kerak, ularning tayyorgarlik darajasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining muayyan o‘quv fanidan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka va tasavvurlari jamlanmasi bilan belgilanadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini yanada qandaydir darajalarga bo‘lib o‘tirishga hojat yo‘qligi, chunki o‘qituvchi a’lochi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim darajasi hajmi, sifati bir-biridan ajralib turishi kerak. Shuning uchun ham, tayyorgarlik sifatini bir xil tayyorgarlikka ega bo‘lgan a’lochi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarilarda mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarini differensiatsiyalashga yordam beradi.

O‘z navbatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorgarlik darajasi ularning tirishqoqligiga, uning bilim olishga bo‘lgan intilish va qiziqishiga bog‘liqligini hamma vaqt ta’kidlash lozim, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilimlari tarkibi ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishda o‘z aksini topadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilimlari tarkibini shakllantirishga o‘qituvchining ularni tayyorlash dasturni to‘g‘ri tashkil qilishiga, mashg‘ulotlarni tashkil qilishda bo‘shliqlarga o‘rin qoldirmasligi, materiallarni samarali ifodalashiga, guruh va individual ishlash mahoratiga bog‘liq.

Hozirgi kunda bilim tushunchasining bir qator izohlari, ma’no ahamiyatiga ega: filologik, falsafiy, semantik, didaktik, metodologik, ilmiy, o‘quv va boshqa.

Bilim – amaliyotda tekshirilgan haqiqatni bilish natijasi; taassurot, tushuncha, mulohaza, nazariya tarzida inson ongidagi unga adekvatning (haqiqatan) aks etishi.

‘‘Bilim’’ tushunchasiga ikki jihatdan qaraladi: o‘quvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan narsa va u tomonidan o‘zlashtirilgan, qo‘llanilgan yoki verbal (so‘zlarda) va predmeti amaliy faoliyatda tegishli tarzda foydalanilgan narsa, uning shaxsiy xossasi bo‘lib qoladi, ya’ni bu o‘rganilgan materialni esda saqlash va qayta tiklashdir. Kasbiy pedagogikada quyidagi ta’riflardan foydalaniladi: bilim, bu – faktlar, tushunchalar, qonunlar, qonuniyatlar, nazariyalar tizimini o‘quvchining o‘zlashtirishi natijasi; bu – xodimning materiallar, mashinalar tuzilishi va boshqalarning xossalari, mehnat va ishlab chiqarishning usullari, muayyan kasb, ixtisoslikka, shuningdek jamiyatning umumiy madaniy-texnikaviy rivojlanishi haqida to‘plagan axboroti.

Bilim o‘zlashtirishning dialog shakli – bilimni o‘zlashtirish shakli, bilim beruvchi mutaxassis va uni oluvchi shaxs o‘rtasidagi faol hamkorlik va barqaror qayta aloqa asosiga quriladi; suhbat, disput, seminar va h.k.lar shunday shakl hisoblanadi.

Bilimlar o‘quv jamlanmasi (BO‘J) – o‘qitish programmaviy tizimi, ayrim fan sohalariga yo‘naltiriladi. BO‘Jda fan sohasi ma’lumotlar jamlanmasining bo‘lishi, bular asosiy tushunchalar tavsifi, masalani yechish strategiyasi va taktikasi, misollar yoki mazkur fan sohasi topshiriqlari majmui, ta’lim metodikasi, mumkin bo‘lgan xatolar va ularni tuzatish uchun axborotlar bo‘yicha ma’lumotlar jamlanmasi, metodik yusinlar va o‘quvning tashkiliy shakllari ruyxatini o‘z ichiga olishi ko‘zda tutiladi. BO‘J dialogni tashkil etishga imkon beradi.

Bilimlarni saqlanish puxtaligi – ta’lim tamoyillaridan biri; pedagogik mahorat, o‘qish istagi, ishga layoqatlilik va mehnatsevarlik kabi o‘quvchilardagi ijobiy omillar ta’siri natijasi. Bilimlarni saqlanish puxtaligi uchun o‘quvchilar hayotida bilimlarning qimmatini subyektiv baholash, o‘qitish sharoiti, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat katta o‘rin tutadi. Bilimlarni saqlanish puxtaligi tamoyilining asosiy mazmuni quyidagi qoidalardan iborat: o‘rganilayotgan o‘quv materialidan asosiysini ajratish; o‘rganilayotgan masala bo‘yicha mavjud bilim bilan asosiy qoidaning bog‘liqligi; ilmiy dunyoqarash, qarashlar va e’tiqodlar subyektiv tizimini shakllantirilishi; o‘rganilayotgan bilimlarni o‘quvchi amaliy faoliyatiga qo‘shish.

Bilimlarning obyektiv nazorati – aniqlik, natijalarni qayta tiklash zaruratiga ega nazorat va u ‘‘o‘lchash soxta priborlari’’ – testlardan foydalanib bajariladi. Testlar o‘zida nazorat topshiriqlari va etalonlarni mujassamlashtiradi, bular bo‘yicha o‘zlashtirish sifati haqida mulohaza yuritish mumkin. Testlashtirish natijasi bir xilda va qayta tiklanadigan o‘lchash va baholash imkonini beradi, bunda imtihon oluvchi mazkur natijaga o‘z tuzatishlarini kirita olmaydi (bunday hol subyektiv nazoratda mavjuddir).

Atama va tushunchalar muayyan bir bilimlar majmuasi yoki obyekt turlarini belgilash uchun xizmat qiladi. Bu bilimlarni o‘zida birlashtiradigan, fikrlarni shakllantirib

beradigan tilning o‘zi.

Faoliyat usullari to‘g‘risidagi bilimlar faktik materiallarni ma’lum bir belgilariga asoslangan holda tahlilini amalga oshirish hamda amaliy faoliyatda qo‘llaniladigan algoritm xarakteridagi qoidalarga asoslanadigan kabi turlarga ajratiladi.

Metodologik bilimlar borliqni o‘zgartish faoliyatining turli usullari, bilish tarixi, yo‘llari, jarayonlari to‘g‘risidagi fanning aniq metodlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Baholovchi bilimlar u yoki bu obyektlar tizimi ahamiyati, ular o‘rtasidagi munosabatlar me’yorlarini xarakterlaydi.

M.I. Maxmudov o‘quv materiallariga singdirilgan bilimlarni uch toifaga bo‘ladi, ularni o‘zlashtirishning uch darajasini ajratib ko‘rsatadi:

1) umumlashtirilgan bilimlar – asosiy tushunchalar, qonun va qoidalar (tushunmasdan o‘rganilishi mumkin (1-yo‘l), ongli (2-yo‘l) mustaqil egallangan (3-yo‘l);

2) umumlashtirilgan harakat usullari: narsa va hodisalar mohiyatini bilish usullari priemlarini bilish, ularning o‘zaro aloqadorligini his qilish, bilimlarni egallashda aqliy faoliyat usullarini bilish, muammolarni hal qilish yo‘llarini bilish (1, 2 va 3-yo‘llar);

3) ‘‘konkret’’ bilimlar: atamalar, sanalar, joy nomlari, ismlar, raqamli materiallar va boshqalar (1-2-yo‘llar).

Bilimlar o‘zining predmetli-mazmunli sifat darajasiga ko‘ra to‘liqligi, umumlashtirilganligi hamda tizimliligi jihatidan guruhlarga ajratiladi.

Bilimlarning to‘liqligi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining obyekt belgilaridan unga tanish bo‘lgan jihatlari asosida obyekt to‘g‘risida to‘laqonli tushunchani shakllantirish imkonini beradigan darajada ifodalab bera bilishida aks etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarilar bilim sifatini nazorat qilishda aynan shu jihatga alohida e’tibor qaratish tavsiya qilinadi.

Bilimlar tizimliligi o‘rganilayotgan obyektning ikki yoki undan ortiq munosabatlari va aloqalarini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarilar tomonidan ishga solishning natijasi sifatida tasniflanadi va uning asosida ularning tashkil etilishi va vazifalarni bajarishlarida yaxlitligini anglatadi. Bilmlar tizimliligini diagnostika qilishda o‘rganilayotgan obyekt o‘quv materialini tizimlashtirish uslubi va xarakterini hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan uning o‘zlashtirish darajasini inobatga olish zarur.

Bilimlar sifati mazmuniy-faoliyatli darajasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv materiallarini muayyan izchillikda o‘zlashtirishlari o‘z aksini topadi. Mazkur darajadagi bilimlar sifati mustahkamligi bilan xarakterlanadi (esda olib qolish natijasi, xotirada tutib turish, to‘liq umumlashgan, tizimli bilimlarni saqlash), safarbarlik (notanish vaziyatlar sharoitida bilimlarni qo‘llay bilish, ularni qayta ishlash, o‘zgartirish), harakatliligi (bilimlarni yangi ta’lim sharoitlarida qo‘llash).

Bilmlar sifatining mazmuniy-shaxsiy darajasi deganda shaxsning ta’lim-tarbiya jarayoni ta’sirida o‘zlashtiradigan xususiyatlari anglaniladi va o‘zlashtirgan bilmlarini o‘quv yoki o‘qishdan tashqari faoliyatlarida mustaqil qo‘llash tajribalarini ifodalaydi. Bunday sifatlar sirasiga mustahkamlik, moslashuvchanlik, tafakkur faoliyatining chuqurligi hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarilarning mustaqillik ko‘rsatkichlarini kiritish mumkin. Tafakkurining mustahkamligi tushunchasi fikrlarni shakllantirish qobiliyatini xotirada ushlab turish zarur paytda ulardan samarali foydalana bilish, dolzarblashtira olish ko‘nikmalari tushuniladi. Tafakkurning moslashuvchanligi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv vaziyatlarini tahlil qila olishi, ularni qayta xotirlash imkoniyatlariga bo‘lgan original yondashuvida namoyon bo‘ladi. Tafakkurining chuqurligi o‘rganilayotgan obyektni to‘laligicha tasavvur qilishi, uning barcha kompo-

nentlari ichki aloqalari tizimliligini mustaqil mushohada qila bilishi, boshqa obyektlar bilan dialektik aloqadorligini, qarama-qarshiliklari birligi imkoniyatlarini ifodalaydi.

Umuman olganda, ta’lim sifati va samaradorligining pedagogik muammo sifatida o‘rganilishi uning tub mohiyatini anglashda, ta’limni rivojlantirish tizimini loyihalashda muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aniq algoritmli tizimga ega bo‘lgan uzviylashgan faoliyati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilimining kvalimetrik ko‘rsatkichlarida aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., O‘zbekiston, 2017. – 48 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5847-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019-yil 9-oktyabr.

3. Tolipova J.O. Biologiya o‘qituvchini ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti Ped.fan.dok..diss. – T., 2006. – 305 b.

Ibragimov R. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari: dok. dis. ped. fan. –T., 2001. – 250 b.

4. Панасюк В.П. Научные основы проектирования педагогичесих систем внутри школьного управления качеством образовательного процесса. – СПб. – М.,1997. –С.297.

5. Oliy ta’lim. lug‘at ma’lumotnoma, – T., “Moliya”-2003, –454 b.

6. Махмутов М.И. Проблемное обучение. Основные вопросы теории. – М.: Педагогика,1975. –С.368.

Saydiahmat USMONOV,
Samarqand viloyati XTXQTMOHM dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHI-YOSHLARNI KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilar ma’naviy-ma’rifiy ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ushbu masalarning boshlang‘ich ta’lim bilan aloqador tomonlari tahliliy aspektda o‘rganilgan. Shuningdek, muallif mazkur masala borasidagi milliy olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilgan hamda o‘zining taklif hamda tavsiyalarini keltirgan.

Kalit so‘zlar. Shaxs tarbiyasi, ma’naviyat, ta’lim, aholi qatlami, bilim, tarbiya, boshlang‘ich ta’lim.

В статье изучены аналитические аспекты формирования духовно-просветительских навыков учащихся, а также аспекты, связанные с начальным образованием. Также автор проанализировал научные работы национальных ученых по данному вопросу и привел свои предложения и рекомендации.

Ключевые слова. Воспитание личности, духовность, образование, слои населения, знание, воспитание, начальное образование.

The article examines the analytical aspects of the formation of spiritual and educational skills of students, as well as aspects related to primary education. The author also analyzed the scientific work of national scientists on this issue and gave his suggestions and recommendations.

Key words. Personal education, spirituality, education, population groups, knowledge, education, primary education.

Hozirgi dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari ta’lim oldiga ham yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Shunday vazifalardan biri – yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga yuksak ma’naviyat egasi, insoniy qadr-qimmatni va milliy urf-odatlarni e’zozlaydigan insonlar qilib tarbiyalashdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda jismonan sog‘lom, bilim va tafakkuri o‘tkir, ma’naviyatli, g‘oyaviy sobitqadam farzandlar, ya’ni barkamol avlodni tarbiyalash modeli yaratildi va uni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbekistonda komil inson, ya’ni ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli shaxsni tarbiyalash – davlat siyosatining ustuvor siyosati deb e’lon qilindi. Masalaning bu darajadagi yuksak siyosiy maqomi ta’lim va tarbiya tushunchalarini ilmiy talqin qilishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yili 16-apreldagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5416-sonli farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha islohotlar olib borilishida dasturiy asos hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar mazmuni, shakl va uslublarini ishlab chiqish masalasi tahlili muhim masalalardan biridir. Buning uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlar – “tarbiyaviy ishlar”ning sinonimi ekanligidan kelib chiqib, ta’lim va tarbiyaning o‘ziga xos vazifalarini yangicha talqin qilmoq zarur.

Ta’lim – o‘quvchi faolligiga tayangan holda **bilim** berishdir. Uning maqsadi – ana shu bilimlarning idrok etilishini, tushunilishini, mustahkamligini va amalda tatbiq etilishini ta’minlashdir.

Tarbiya esa, ijtimoiy ahamiyatga molik ehtiyojlarni shakllantiradi. U nafaqat xulq-atvor me’yorlari to‘g‘risida bilimlarni egallab, rag‘batlanish yoki jazodan qutilib qolish uchun ularga amal qilishni, balki ularni xatti-harakatlarning ichki me’yorlariga aylantirish va ularga ongli amal qilinishini ta’minlashi kerak.

Milliy pedagogikamiz asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning nazariy xulosalariga ko‘ra, “Tarbiya “pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdir... Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujuddidagi jahl maraziga yaxshi xulq degan davoni ichidan, poklik degan davoni ustidan berib, katta qilmak lozimdur...” deb ta’kidlagan edi. Xalq maqollaridagi “Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin” yoki Abdulla Avloniyning:

“Xudoning rahmati, fayzi hamma insonga yaksardur,
Vujudi tarbiyat topsa, bo‘lur ul rahnamo sizga.
Temurchining bolasi tarbiyat topsa, bo‘lur olim,
Buzulsa xulqi, Luqmon o‘g‘li bo‘lsa, bo‘lg‘usi zolim.
Yomonlarga qo‘shildi Nuhning o‘g‘li bo‘ldi beimon,
Yururdi Kahf iti xo‘blar ila bo‘ldi oti inson.”

kabi g‘oyalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib boriluvchi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning milliy-pedagogik asoslarini tashkil qiladi. Mazkur yondashuv mustaqil O‘zbekistonning ta’limga oid hujjatlarida o‘z aksini topdi. Masalan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlis IX sessiyasida so‘zlagan “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” ma’ruzasida **birinchidan,** o‘qituvchi kasbini avvalo tarbiyachi, murabbiy deb tushunishni olg‘a suradi. **Ikkinchidan,** boshlang‘ich ta’limni bolaning dunyoqarashini, didini, salohiyatini shakllantiruvchi xususiyati alohida qayd qilinadi:

“...Zamonaviy boshlang‘ich ta’limning o‘zi nimadan iborat bo‘lishi kerak?

Bola 1-4 sinflarda qanday bilimga ega bo‘lishi lozim? Ularning tarbiyasi qanday bo‘lishi kerak?

Shu masalalarga javob topishimiz zarur.

Yana bir muhim savol...

Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o‘rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak? Afsuski, bu haqda hech kim bosh qotirayotgani yo‘q...

Mazkur ma’ruza O‘zbekiston xalq ta’limida keskin burilish yasadi. Jumladan, 1999-yilda “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi”ning ishlab chiqilishiga asos bo‘ldi. Galdagi vazifa “maktab tarbiyasini ko‘rgan” shaxslarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish sifatida amalga oshirildi. Bu esa, eng avvalo, boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajalarining joriy holatini ilmiy o‘rganishdan boshlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyalanganlik darajasi, mezonlari, ko‘rsatkichlari masalasi o‘zbek pedagog olimlari R.A. Mavlonova, T.R. Hasanov, M. Quronovlarning tadqiqotlarida ma’lum darajada ochib berilgan. Lekin masalani aynan ma’naviy-ma’rifiy ishlar nuqtayi nazaridan, tizimli hal qilish yuqoridagi tadqiqotchilarning vazifalariga kirmaganligi tufayli bu yo‘nalish maxsus yondashuvni talab qiladi. Chunki, R.A. Mavlonova boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnatsevarlik, T.X. Hasanov – intizomlilik va xulq-atvor madaniyati, M. Quronov – milliy tarbiya nuqtayi nazarlaridan yondashganlar. Keyingi yillarda o‘quvchilar shaxsini, tarbiyalanganligini o‘rganishga oid maxsus psixo-pedagogik, maktab o‘qituvchilari uchun ilmiy-uslubiy tavsiyalar, qo‘llanmalar chop qilindi. Mazkur tavsiyalar va qo‘llanmalardan ijodiy foydalanib, boshlang‘ich sinflarda olib boriluvchi ma’naviy-ma’rifiy ishlar xususiyatidan kelib chiqqan holda biz “Boshlang‘ich sinflarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini o‘rganish dasturi”ni tuzdik. Uni tuzishda yuqorida qayd qilganimiz, ya’ni “pastdan yuqoriga” va “yuqoridan pastga” yo‘nalgan ijtimoiy-psixologik motivlar mexanizmiga asoslanildi. Yondashuvning pedagogik qimmati esa, bir tomondan, o‘quvchilar milliy ma’naviyatini, uning tarkibiy qismlarini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, ma’naviy-ma’rifiy ishlar mazmuni, shakl va uslublarini obyektiv belgilanishida namoyon bo‘ladi. Uni “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ifodalangan shaxs mohiyatidan kelib chiqqan yondashuv asosida belgiladik.

Dasturning maqsadi – kichik yoshdagi o‘quvchi shaxsini, xarakterini tashkil etuvchi sifatlarni shartli ravishda baholash orqali o‘rganish va olingan natijalardan kelib chiqib ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishdan iborat etib belgilandi.

Dasturga asosan **“O‘quvchi ma’naviyati xaritasi”dagi** barcha savollarga javoblar tegishli ko‘rsatmalar asosida ball qo‘yib, baholab borildi. Natijada, o‘quvchi ma’naviyatining joriy holati qayd qilindi. Bu esa sinf rahbariga ma’naviy-ma’rifiy ishlar maqsadi, vazifalarini aniqlashtirishga yordam berdi. Qaydnomaning har bir savoliga sinf rahbari tegishli ballar qo‘yib bordi. Sinf jamoasi, har bir o‘quvchi ma’naviyati xaritasi o‘quv yilining boshida, o‘rtasida va oxirida to‘ldirib, solishtirildi. Natijada, bu – sinf rahbari uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlarning qanchalik samarali ekanligini o‘lchash mexanizmiga aylandi.

“Shaxs ma’naviyati xaritasi”da so‘rovnoma to‘ldirilgan kun, o‘quvchining ismi va familiyasi, yoshi, o‘qiyotgan sinfi, sog‘ligi, oila sharoiti, sinf jamoasi va tengdoshlari orasidagi mavqei, qobiliyatlari, unga xos ijobiy va salbiy sifatlar, ruhiyati va boshqa xususiyatlari qayd qilinadi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini o‘rganish va amalga oshirishning usullari ko‘p. Shulardan biri – kuzatuv. Bu usul maktab, sinf ma’naviy muhitini bevosita qayd qilish imkoniyatini beradi. Kuzatuv ikki xil bo‘ladi. **Birinchisi** – oddiy, umumiy, **ikkinchisi** – pedagogik kuzatuv oldindan belgilab olingan maqsad asosida, tizimli, izchil amalga oshiriladi. Pedagogik kuzatuv ma’naviy muhitning nafaqat ko‘rinib turgan jihatlarini, balki ko‘zga ko‘rinmas sabablarini ham qayd qilish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan o‘tkazilgan suhbatlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini o‘rganishda eng samarali usul – bu pedagogik kuzatuv degan

qarash ko‘p uchradi. Biroq ma’naviy muhitni turli yo‘llar, turli manbalar, turli mezonlar orqali o‘rganish ma’naviy-ma’rifiy ishlar to‘g‘risida rang-barang ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Shu sababli turli shakllardagi **so‘rovlar** o‘rganishning yanada xolisligiga xizmat qiladi. Shu maqsadda foydalanish lozim bo‘lgan usullardan yana biri **intervyudir.** U o‘qituvchi, o‘quvchilar, ota-onalar, mahalla qo‘mitasi faollari, olimlar bilan oldindan belgilab olingan reja asosida amalga oshiriladi. Intervyuning samimiy, do‘stona, o‘zaro manfaatdorlik muhitida o‘tishi muhim hisoblanadi. Anketa so‘rovlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan emas, ularning ota-onalari, o‘qituvchilari orasida qo‘llaniladi.

Boshlang‘ich sinflarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini o‘rganish va amalga oshirish usullaridan yana biri – **retrospektiv tahlildir.** Bu usul, odatda, maktabni bitirib ketgan ishchi, xizmatchi, talabalardan maslahat olish, maktab tarbiyaviy ishlariga “uzoqdan”, ularning ko‘zlari bilan qarash, kamchiliklarni kamaytirish maqsadida qo‘llanib kelingan. Shu paytgacha bu usul boshlang‘ich sinflarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish niyatida qo‘llanilmagan. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini o‘rganish va amalga oshirish usullaridan yana biri – **tezkor tahlildir**. Bu usul boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan biror tadbir (masalan, Navro‘z)dan keyin amalga oshiriladi. Tezkor tahlil tadbir o‘tgan kuni tashkil qilinadi. Bu bolalarda tadbirdan qolgan taasurotlarning hali yangiligi, qizg‘inligi tufayli yaxshi samara beradi. Bunda bolalarning mustaqil fikr bildirishlariga sharoit yaratib berish, yutuq va kamchiliklarning xolis baholanishiga erishish katta ahamiyat kasb etadi.

Xullas, boshlang‘ich sinflarda olib boriluvchi ma’naviy-ma’rifiy faoliyat – murakkab ijtimoiy-psixologik va pedagogik jarayonni hosil qiladi. Bu jarayon “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan ijobiy fazilatlarni mujassam qilgan shaxsni ma’naviy-ma’rifiy ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur faoliyat ijtimoiy-psixologik motivlar mexanizmi va ilg‘or pedagogik metodlar asosida tashkil qilinishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy fazilatlari maktabda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tizimi yaratilganligiga va muayyan tamoyillar asosida izchil amalga oshira borilishiga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma’naviyatini shakllantirishda ta’lim va tarbiya nisbatini yangicha talqin qilishni, tarbiyaga ustuvorlik berilishini taqozo qiladi. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ma’naviyati” xaritasini tuzish va undan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini o‘rganish hamda amalga oshirishda foydalanish mazkur faoliyatni ilmiy-uslubiy ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., 1997.

3. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. – T., TDPU, 2006.

4. Quronov M. Milliy tarbiya. – T., Ma’naviyat, 2007.

5. Usmonov S. Boshlang‘ich sinflarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari: Pedagog. fan. nomz. ...diss. – T., 2004.

Samaridin QORAYEV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, dotsent v.b,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“TEXNOLOGIYA” FANINI O‘QITISHDA MUAMMOLI AMALIY MASHG‘ULOTLARNI QO‘LLASH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada Respublikamiz maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish sifatini yaxshilash bo‘yicha bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar, mashg‘ulotlarni muammoli texnologiyalar asosida tashkil etish, darslarda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Muammoli dars, texnologiya, ta’lim, duradgorlik, mashg‘ulot, qobiliyat, ijodiy, yo‘riqnoma, muammoli vaziyat, amaliy, bilim, malaka, baholash, faollik, jihoz, vosita, qurilma, detal.

В статье речь идет о работах, которые должны выполняться в школах нашей республики, по улучшению качества профессиональной ориентации учеников, организации занятий на основе проблемных технологий, создании на уроках проблемных ситуаций, путях выхода из проблемных ситуаций.

Ключевые слова. Проблемные уроки, технология, образование, столярное (плотничье) ремесло, занятие, способность, творческий, инструкция, проблемная ситуация, практический, знание, квалификация, оценка, активность, оборудование, средство, устройство, деталь.

The article describes the work that needs to be done to improve the quality of vocational guidance at schools in the Republic, how to organize lessons based on problematic technologies, to create problem situations in classrooms and how to overcome promlematic situations.

Key words. Problematic lesson, technology, education, carpentry, training, ability, creativity, instruction, problematic situation, practical, knowledge, skills, evaluation, activity, equipment, tool, device, detail.

Ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va faol metodlarini qo‘llash orqali bo‘lajak kadrlarning ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, yangi bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini rivojlantirishga erishish mumkin. Chunki, bugungi kunda faqat mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsgina o‘z muammolarini o‘zi mustaqil hal qila oladi va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Hozirda Respublikamiz maktablarida kasbga tayyorlash sifatini yaxshilash bo‘yicha qator pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning aksariyatida pedagog olimlar, amaliyotchi va tadqiqotchilarning diqqat e’tibori o‘qitish maqsadi va uning natijalariga erishishga, ta’limni texnologiyalashtirish orqali sifatli o‘qitishni tashkil etishga, shuningdek, ilmiy asoslangan zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etishga qaratilgan.

O‘zbekiston respublikasi prezidentining ta’limga oid qaror va farmonlarini[1] hayotga tatbiq etish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu tadbirlar o‘z navbatida maktab o‘quvchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanib o‘quv-tarbiya jarayonini samaradorligi va sifatini oshirish talablarini qo‘ymoqda.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi paytda maktablarda kasbga yo‘naltirish ishlari odatdagidek an’anaviy ta’lim texnologiyalari asosida olib borilmoqda. An’anaviy o‘qitish tizimida o‘quvchining pedagogik ta’sirlar ostida bilim olishi yotadi, bunda uning faoliyati faol ijodiy xarakterga ega bo‘lmaydi. Turli kasblarni berishda zamonaviy pedagogik, innovatsion, interfaol texnologiyalar[2], shu jumladan muammoli vaziyatni tashkil etishga asoslangan ta’lim, an’anaviy ta’limga qaraganda ancha yuqori samara berishi kun sayin o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Muammoli o‘qitish o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini, ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishi, ularni mustaqil fikr yuritishini tashkil etishda samara berishi kun sayin aniqlanmoqda.

Muammoli o‘qitish ta’lim mazmunining to‘rtta (bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat) komponentlarini o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir etadi. Ular o‘quvchilarni kasblar bo‘yicha juda muhim bo‘lgan holatlar, ya’ni mustaqil muammoni ko‘rish, uni ifodalash, yechish yo‘llarini izlash va uning yechimini topishga imkoniyat beradi.

Maktablarda texnologiya fani doirasida nazariy bilimlarni o‘quvchilarga to‘laqonli yetkazish va olingan bilimlarni amaliyotda mustaqil ravishda qo‘llay olishga o‘rgatish vazifalarini yetarlicha tez hal qila oladigan metodik jihatdan asoslangan muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llash mumkin. Muammoli o‘qitish qayerda samara beradi? Undan qachon va nega foydalaniladi? Bu masalalar hozirgi kungacha maktab ta’limiga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda yetarlicha o‘rganilmagan.

Muammoli o‘qitishda muammoli vaziyatni yaratish yo‘li bilan o‘quvchining izlanish faoliyati va ijodiy fikrlashining rivojlanish sharti modellashtiriladi. Muammoli o‘qitishda o‘quvchilarning fikrlashini boshqarish vositasi sifatida – muammoli masalalar xizmat qiladi.

Muammoli masalalar o‘quv muammosining mavjudligini va o‘quvchilarga ma’lum bo‘lmagan bilimlarni izlash sohasini ko‘rsatadi. Muammoli o‘qitishda muammolilik tamoyili o‘quv fani mazmunida ham, mazmunning o‘quv jarayonida tarqalishida ham joriy qilinadi. Birinchisiga, fanning asosiy mazmunini aks ettiruvchi muammolar tizimini ishlab chiqish bilan, ikkinchisiga, muloqot turidagi muammoli o‘qitishni tashkil etish bilan erishilib, unda o‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham intellektual faollik va tashabbuskorlik ko‘rsatadilar, bir-birlarining fikrlashlariga qiziqadilar, yechimlarning teng ehtimolligi variantlarini muhokama qiladilar. Shu bilan birga sermahsul fikrlash, o‘quvchi shaxsi rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Texnologiya darslarida tashkil qilinadigan muammoli amaliy mashg‘ulot muammoli o‘qitish texnologiyasining ikkinchi va uchinchi darajasini amalga oshirish shakli bo‘lib, muammoli topshiriqlar uslubini qo‘llash orqali ta’lim maqsadlariga muvaffaqiyat bilan erishiladi.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekistonning yangi qonunlari. 18-son. Adolat. – 1998.– 281 b.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313 sonli Farmoni.

Muammoli topshiriqlar asosan muammoli vaziyatlarni yaratish, baholash, tahlil qilish hamda yechimini qabul qilishdan iborat bo‘lgan o‘quvchilarning faol o‘rganish faoliyatiga asoslangan.

Muammoli vaziyatning mohiyati o‘quvchilarga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlar va tushunishi uchun oldingi bilimlar yetarli bo‘lmagan yangi omillar va hodisalar o‘rtasidagi dialektik zidlikni yuzaga keltirish ekanligini nazarda tutib, mazkur kasb bo‘yicha tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlarda bunday ziddiyatlar o‘quvchilarning bu kasb bo‘yicha olgan bilimlarini ijodiy o‘zlashtirilishini harakatlantiradi va muammoli topshiriqni yechish jarayonida o‘qituvchi bilan birga izchil ochib beriladi. Bu uslubni amalga oshirish doirasida o‘quvchi muammoni hal etishga intiladi va quyidagi bir qator ishlarni bajaradi:

– muammoli vaziyatni o‘rganish;

– muammoni ifodalash;

– muammoni hal etish usulini izlash;

– muammoni hal etish;

– muammo yechimini tekshirish, xulosalar chiqarish.[3]

Shundagina o‘quv maqsadi muammoning muvaffaqiyatli yechimini o‘quvchiga mavzu bo‘yicha chuqur bilim hosil qilish va nazariyani amaliyotda ijodiy qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi.

O‘quvchilarning mashg‘ulotlarda muammoli tahlil ko‘nikmalariga ega bo‘lishi ularga muammolarini yechishda muvaffaqiyatga erishishga imkon beribgina qolmay, balki ularga ta’lim jarayonida muammoli topshiriqlar uslubi asosida tahlil qila olishi uchun yo‘l ham ochib beradi.

Muammoli tahlil bosqichlari: **Dastlabki bosqich** – muammoli vaziyatning asosiy jihatlarini ajratilishini nazarda tutadi. Mazkur kasb bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan muammoli topshiriqlarni bajarish odatda o‘quvchi tomonidan barcha taklif etiluvchi materiallarni diqqat bilan o‘rganishdan boshlanadi. Keyin tahlilning o‘zi boshlanadi, ya’ni muammoning barcha ko‘rsatkichlari (asosiy muhim mazmun jihatlari va muammoli vaziyat batafsil) tavsiflanadi.

Ikkinchi bosqich – muammoli vaziyatni tahlil qilish, ya’ni obyekt holatini aniqlash.

Tahlilli jarayon operatsiyalari uch blokdan iborat:

1. Tanlangan ko‘rsatkichlarga mos obyektning haqiqiy holatini ta’riflash.

2. Shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha obyektning kerakli holatini aniqlash.

3. Haqiqiy va kerakli holatlarni taqqoslash hamda obyektning sabablari, yo‘nalishlari va usullarini aniqlash.

Uchinchi bosqich – alternativ maydonni shakllantirib muammoni hal etishning barcha variantlari aniqlanadi.

Keyin, muammo yechimini baholash va muqobil variantini tanlash amalga oshiriladi. Muammoli topshiriqni ishlab chiqish katta mehnat va pedagogik mahoratni talab etadi. Muammoli topshiriq o‘quvchilar o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Amaliy mashg‘ulotlarning tanishtiruv materiallari katta hajmda yoki murakkab bo‘lsa, o‘quvchilar barcha ma’lumotlarni qabul qila olmaydilar, yechimini ham topish qiyinchilik tug‘diradi hamda ularda o‘quv faoliyatiga bo‘lgan har qanday motivatsiya yo‘qoladi.

To‘g‘ri ishlab chiqilgan muammoli topshiriqlar o‘quvchilarga nazariyani haqiqiy vaziyat bilan bog‘lashga imkon beradi, ularga o‘rganilayotgan nazariy materialning kelgusi kasbiy faoliyat uchun amaliy ahamiyatini tushunib olishga ko‘maklashadi.

[3] Глазунов С.Н. Метод анализа проблемных ситуаций как способ активации мыслительной деятельности учащихся // преподавание истории в школе. – 2010. -№6. – С 154-158.

Muammoli amaliy mashg‘ulotlarning tuzilmalari namunasini keltiramiz (1-jadval):

1-jadval

“Duradgorlik ishi” mavzusi bo‘yicha muammoli amaliy mashg‘ulotning namunaviy tuzilmasi

Mavzu	**“Duradgorlik ishlarida mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yong‘in va elektr xavfsizligi qoidalari”**
O‘quv vaqti: 2 soat	O‘quvchilar soni: 10-15 kishi
O‘quv mashg‘uloti shakli	Muammoli amaliy mashg‘ulot
Amaliy mashg‘ulotda muhokama uchun qo‘yiladigan muammoli masalalar va savol hamda topshiriqlar.	1. 2. 3.
O‘quv mashg‘uloti maqsadi: mavzu yuzasidan nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, muammoli masala va topshiriqlarni hal etish orqali o‘quvchilarning amaliy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.	
Pedagogik vazifalar: – muammoli masalalarni hal etishda mavzu yuzasidan nazariy bilimlarni ongli qo‘llab o‘rganishga motivatsiya va sharoitlar yaratish; – mavzu yuzasidan bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va chuqurlashtirish; – o‘quvchilarda muammoli masala va topshiriqlarni hal etish ko‘nikma va malakasini, muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammoni ajrata olish, maqbul yechimlarni ilgari surish, baholash, yakuniy xulosani ifodalash malakasini rivojlantirish.	O‘quv faoliyati natijalari, o‘quvchi: – asosiy tushunchalarni ta’riflash; – tavsiflashi; – ko‘rsatib o‘tishi; – mazmunini ochib berishi; – muammoli yechim yo‘nalishlari ro‘yxatini tuzish; – nazariy bilimlarni muammoli masalalar va topshiriqlarni hal etishda qo‘llashi; – muammoli vaziyatni tahlil qilish, muammoni ajratish, maqbul variantlarni aniqlash va baholash, muammo yuzasidan yakuniy xulosani ifodalab berishi kerak.
Ta’lim mezonlari va usullari.	Muammoli, suhbat, aqliy hujum, bahs, taqdimot kabilar.
Ta’lim vositalari.	Darslik, o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy ko‘rsatmalar, tarqatma va o‘quv materiallari, elektron ta’lim resurslari.
Ta’lim shakllari.	Jamoa bo‘lib, kichik guruhlarda yoki individual ishlash.
Ta’lim sharoitlari.	Guruhlarda ishlash uchun barcha sharoitlarga ega o‘quv xonasi.
Bilim va ko‘nikmalarni baholash.	Savol-javob usuli, muammoli topshiriqni bajarilish natijalari taqdimoti bo‘yicha baho qo‘yish, testlar.

Quyida muammoli amaliy mashg‘ulot ishlanmasini keltiramiz:

Amaliy mashg‘ulot. Mavzu: “Duradgorlik ishlarida mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yong‘in va elektr xavfsizligi qoidalari”.

Mashg‘ulot maqsadlari:

O‘quv maqsadi: duradgorlik ishlari to‘g‘risida umumiy ma’lumot. Duradgorlik o‘quv ustaxonasi va undagi jihozlar bilan tanishish. Sanoat va turar-joy binolarni qurish. Yog‘och qurilma va detallarni tayyorlash usullari bilan tanishish. Duradgor kasbida

mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yong‘in va elektr xavfsizligi qoidalari.

Ularni o‘rgatish hamda o‘quvchilarda nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, muammoli savollar va topshiriqlarni hal etish orqali amaliy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish.

Ta’limiy: duradgor kasbi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarni o‘z-o‘zini nazorat qilish, ish joyini toza tutish, texnika, yong‘in va elektr xavfsizligiga qat’iyan rioya qilish, ish joyida kiyinish va o‘zini tutish etikasini o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarni mustaqil ishlashga, sanoat va turar-joy binolarni qurishga, yog‘och qurilma va detallarni tayyorlashga o‘rgatish.

Mashg‘ulot turi: muammoli amaliy mashg‘ulot.

Mashg‘ulot o‘tish joyi: zamonaviy jihozlangan o‘quv ustaxonasi.

Mashg‘ulotning boshqa fanlar bilan bog‘likligi: chizmachilik, tasviriy san’at, matematika, duradgorlik texnologiyasi.

Foydalaniladigan jihoz va vositalar: duradgorlik jihozlari, yog‘och qurilma va detallar, texnologik xarita.

Birinchi bosqich: mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism (mashg‘ulotga tayyorgarlik).

Tashkiliy tadbirlarni o‘tkazish.

Salomlashish, o‘quvchilar davomatini aniqlash, ish o‘rinlari va ustaxonaning sanitariya-gigienik holatini ko‘zdan kechirish.

Ikkinchi bosqich: Kirish yo‘riqnomasi.

Amaliy mashg‘ulot quyidagi reja asosida olib boriladi:

– duradgor kasbi to‘g‘risida umumiy ma’lumot olish;

– duradgorlik o‘quv ustaxonasi va undagi jihozlari bilan tanishish;

– sanoat va turar-joy binolarni qurish hamda yog‘och qurilma va detallarni tayyorlash usullari bilan tanishish;

– duradgor kasbida mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yong‘in va elektr xavfsizligi qoidalarini bilish.

Amaliy mashg‘ulot mavzusi va maqsadi, mashg‘ulotdan kutiladigan natijalar, uni tashkil etish va o‘tkazish tartibini tushuntirish, o‘quvchilarga baholash mezonlarini e’lon qilish.

O‘quvchilarni o‘zlashtirgan bilimlarini suhbat va savollar orqali faollashtirish. Shu maqsadda beriladigan savollardan namunalar keltiramiz.

1. Bino qurilishida duradgorlik ishlari qanday o‘rin egallaydi?

2. Duradgorlik buyumlari – deraza va eshiklar qurilish maydonchasiga qanday keltiriladi?

3. Deraza o‘rnatishda avval uning nimasi o‘rnatiladi?

4. Kesakining pastki qismi nima bilan tekshiriladi?

5. Derazaning vertikalligi nima yordamida tekshiriladi?

6. Mos kelmagan taqdirda tavaqa chetlari qanday moslanadi?

7. Derazaning o‘rtasidagi o‘q chizig‘i va qoldirilgan oraliq nima bilan mos kelishi lozim?

8. Deraza diagonallari kesishgan nuqtadan nima o‘tadi?

9. Deraza kesakisi va devor orasidagi bo‘shliq nimalar bilan to‘ldiriladi?

10. Oddiy eshikning shchitli tavaqalarini yasashda uning nimasini hisobga olish

kerak?

11. Oshiq-moshiqlar qanday bo‘ladi hamda ularni o‘rnatish uchun dastlab eshik yoki deraza qanday qo‘yilib, joyi belgilanadi?

12. Iskana yordamida oshiq-moshiqning qalinligiga qanday qilib o‘yiladi va ular nimalar bilan mahkamlanadi?

Bilimlarni faollashtirish jarayonida amaliy mashg‘ulot o‘tkazish uchun muammosini hal qilish, o‘quvchilarning muammoli topshiriqlarni hal etish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalari yetarliligini aniqlash.

O‘quvchilarga muammoli topshiriqlarni shakllantirish.

Muammoli topshiriq mazmuniga mos holda yechimi zarur bo‘lgan muammoni shakllantiradi shuningdek, o‘quvchilarga turli namoyishlarni ko‘rsatadi. Ushbu, ishlarni bajarishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va nuqsonlarga to‘xtalib o‘tadi.

Guruhni uchta kichik guruhlarga ajratish.

O‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlarga ajratish jarayonida ularning bilim darajasiga e’tibor berishi kerak, ya’ni ularni tabaqalashtirib guruhlarga ajratish va ularga murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar berilishi nazarda tutiladi. Ularga quyidagi muammoli topshiriqlar taqsimlanishi ma’qul.

1. Pol yotqizish uchun parket keng qo‘llaniladi. Bu ish har xil pol yotqizish ishlariga nisbatan murakkab hisoblanadi. Parket taxtachalarning uzunligi va qalinligi turlicha bo‘ladi. Fikrlab ko‘ringchi! Buning nimaga ta’siri bor? Bu uning tannarxiga ta’sir ko‘rsatadimi?.

2. Yotqizilgan parket taxtachalarining yuzasini silliqlash asosiy jarayonlardan biridir. Umumiy tekislash uchun yuza randalanadi. Randalashni osonlashtirish uchun taxtacha yuzasi avval ho‘l latta bilan artiladi. Randalash odatda tizzalab olgan holda bajariladi. Tizza ostiga biror yumaloq material qo‘yish kerak. Bu nima uchun kerak? Bunda yana qanday yangi shakllardan foydalanishimiz mumkin?

3. Bo‘yash ishlari paytida binodagi elektr simlari uzib qo‘yilgan bo‘lishi, devor usti va shiftlarni bo‘yash ishlari olib borilayotgan bino shamollatib turilishi hamda bo‘yash ishlari bilan shug‘ullanuvchi ishchilar himoya ko‘zoynaklari, kombinzon va respiratorlar bilan ta’minlangan bo‘lishlari kerak. Fikrlab ko‘ringchi! Aks holda nima bo‘lishi mumkin?

Muammoli topshiriqni bajarish bo‘yicha zaruriy uslubiy ko‘rsatmalar, tarqatma materiallar o‘quvchilarga tarqatiladi. Muammoni hal etishda, kutilayotgan natijalar bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar beriladi.

Taqdimot boshlanganini e’lon qilish. O‘quvchilarning bajargan ishlarini ko‘rib chiqiladi, izohlanadi, to‘g‘ri bajarilgan ishlar ajratib ko‘rsatiladi, xatolar aniqlanadi.

Xuddi shunday, guruhlar o‘zaro almashib, barcha muammoli topshiriqlarni bajarib, ko‘nikma va malakalar hosil qiladilar. So‘ngra, o‘quvchilarning kichik guruhlarda bajargan ishlari va testlarga javoblari baholash mezonlariga asoslangan holda baholanadi.

Muammoli yechim bo‘yicha yakun yasaladi hamda xulosa qilinadi.

3-bosqich. Mashg‘ulot yakuni.

Baholash. O‘qituvchi o‘quvchilar bilimini baholashda rangli kartochkalardan foydalanadi. Bunda mashg‘ulot davomida guruhlar tomonidan berilgan javoblariga, bajargan ishlariga qarab kartochkalar tarqatiladi. Guruhlar o‘z faoliyatini baholab borishadi. Mashg‘ulot oxirida baholar o‘zaro guruh a’zolari o‘rtasida taqsimlanadi. Baholash bo‘yicha umumiy xulosa chiqarilib, guruhlar rag‘batlantiriladi.

Muammoli amaliy mashg‘ulotga yakun yasaladi. O‘quv maqsadlari natijalariga

erishishdagi muvaffaqiyatlar qayd etiladi.

O‘qituvchi mustaqil ishlash uchun o‘quvchilarga topshiriq beradi. Muammoli o‘qitish ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, chunki o‘zida yuqori darajali faollik elementlarini, ya’ni zarurat-ehtiyoj-qiziqishni mujassam etadi.

Shunday qilib, duradgor kasbi bo‘yicha tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarda muammolarni tahlil qila olish va tashxislash o‘z nuqtayi nazarini aniq ifodalay olish, munozara qila olish, ma’lumotni qabul qilish va baholay olish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi, ularni mustaqil ijodiy izlanishga yo‘naltiradi, faol o‘rganishni rag‘batlantiradi, bo‘lajak kasb egasi bo‘lishiga zamin yaratadi.

Ushbu ishlanmalar asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining yuqori sinf o‘quvchilari uchun “Texnologiya” o‘quv dasturida berilgan barcha mavzularning ishlanmalarini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekistonning yangi qonunlari. 18-son. Adolat. – 1998.– 281 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-yanvardagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308 sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313 sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son Qarori.

5. Бабанский О.Е. Проблемное обучение: обоснование и реализация Наука и школа. – М.:2000. -№1 – С.19-25.

6. Глазунов С.Н. Метод анализа проблемных ситуаций как способ активации мыслительной деятельности учащихся // преподавание истории в школе. – 2010. - №6. – С 154-158.

Klaraxon MAVLONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari doktori (PhD)

ADABIYOT DARSLARIDA TASNIFIY MA’LUMOTLARNI O‘RGANISH ZARURATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot darslarida o‘rganiladigan badiiy tasvir vositalari, badiiy (she’riy) va lafziy san’atlarning tasnifiy ma’lumotlar tarzida taqdim etilishi o‘quvchilarning adabiyotdan o‘rganayotgan adabiy-nazariy tushunchalarini tartibga solishi, birini ikkinchisidan farqlash uchun asos bo‘lishi va darslar samaradorligini oshirishga, badiiy asarni estetik idrok etish sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Badiiy matn, badiiy tasvir vositalari, badiiy va lafziy san’atlar, badiiy matnning til xususiyatlari, adabiy-nazariy tushunchalar.

В статье рассказывается о том, как излагаются литературно-выразительные средства, литературные (поэтические) и лингвистические искусства, обеспечивающие классификацию литературно-теоретических концепций учащихся, являющемуся основой для отличия одного от другого, повышение эффективности уроков и положительного влияния на качество восприятия эстетических литературных произведений.

Ключевые слова. Художественный текст, средства художественного изображения, художественное и лингвистическое искусство, языковые особенности художественного текста, литературно-теоретические концепции.

The article describes how to present literary and expressive means, literary (poetic) and linguistic arts that provide a classification of literary and theoretical concepts of students, which is the basis for distinguishing one from the other, increasing the effectiveness of lessons and a positive impact on the quality of perception of aesthetic literary works.

Key words. Literary text, features of artistic representation, artistic and linguistic art, linguistic features of the literary text, literary and theoretical concepts.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida “uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash”, “o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish”[1] kabi vazifalarning belgilab berilishi ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitish mazmunini ham integrativlik asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘quv fani borki, hammasida, jumladan, adabiyot o‘quv fanida ham tasnifiy ma’lumotlar o‘rganiladi. Bunday ma’lumotlar o‘quvchilarning atama-tushunchalar si-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019-yil, 29-aprel.

fatida olayotgan bilimlarini tartibga soladi, u yoki bu toifaga kiritgan holda xotirada saqlash uchun xizmat qiladi, kerak bo‘lganda, tez xotirlash vositasi sifatida maydonga chiqadi. Adabiyot darslarida o‘tiladigan badiiy tasvir vositalari, badiiy (she’riy) va lafziy san’atlar ham tasnifiy ma’lumotlar tarzida taqdim etilishi mumkin va bu narsa ma’lum darajada zaruriyat ham hisoblanadi. Zero, o‘quvchilarga adabiyot nazariyasidan o‘rganayotgan tushunchalar tasniflar ko‘rinishida taqdim etilmasa, ular ushbu tushunchalarning mohiyatini to‘liq anglab yetmaydilar. Fikrimizning dalili sifatida maktablarda o‘tkazilgan nazorat ishlari natijalarini keltirib o‘tamiz:

1. Faqat badiiy tasvir vositalari keltirilgan qatorni ko‘rsating.

A) jonlantirish, sifat, sifatdosh, o‘xshatish, ko‘chim.

B) tashbih, mubolag‘a, o‘xshatish, ko‘chim, majoz, ravishdosh.

D) jonlantirish, sifatlash, o‘xshatish, ko‘chim, mubolag‘a.

2. Faqat she’riy san’atlar keltirilgan qatorni ko‘rsating.

A) tashbih, irsoli masal, sifatlash, ravish, sifatdosh.

B) tanosub, tajnis, tashbih, irsoli masal, tazod.

D) majoz, kinoya, qofiya, ruboiy, g‘azal, mubolag‘a, o‘xshatish.

Nazorat ishida jami 227 o‘quvchi qamrab olindi. To‘g‘ri, 5-9-sinf adabiyot darslarida badiiy tasvir vositalari, she’riy (badiiy) san’atlar, lafziy san’atlar yuzasidan tasnifiy ma’lumotlar o‘tilmagan, lekin, kuzatishlardan shu ham ma’lumki, yoshlar ularni tasniflashga harakat qiladilar. Ikkala test topshirig‘iga ko‘ra uch variantdagi javoblardan biri tanlanishi va belgilanishi lozim edi. Tanlangan javoblar biz taxmin qilganimizdek bo‘lib chiqmadi: 1-test topshirig‘iga ko‘ra o‘quvchilarning atigi 121 nafarigina, 2-test bo‘yicha 55 nafarigina to‘g‘ri javobni topa olgan. Demak, aksariyat yoshlar chamalab bo‘lsa-da, talab etilgan vositalarni tasniflay olmaganlar. Bu holat tasnifiy ma’lumotlar maxsus o‘rganilmasa, bunday ma’lumotlar darslik-majmualar sahifalaridan joy olmasa, o‘quvchilar o‘zlari mustaqil ravishda tasnifiy xulosalar chiqara olmasliklarini, bunday ma’lumotlar taqdim etilishi nechog‘lik zaruriyat ekanligini isbotlab berdi.

1-test bo‘yicha to‘g‘ri javob variantini chamalab aniqlashdan adashtirgan jihat – badiiy tasvir vositalari sirasiga kiritilgan morfologik tushunchalardir. **A** javob variantida sifat, sifatdosh atamalari, **B** javobda ravishdosh atamasi qatnashtirilgan. Aksariyat o‘quvchilar ana shu **B** variant javobini belgilaganlar. To‘g‘ri javob **D** variantda edi.

2-savolga havola qilingan javoblar ham o‘quvchilarni ma’lum darajada adashtirgan. Chunonchi, **A** javob variantida ravish, sifatdosh atamalari, **D** javobda she’riy asar janri (ruboiy, g‘azal), she’r tuzilishiga doir qofiya atamasi qatnashtirilgan. Aksariyat, o‘quvchilar shu **D** javobni tanlaganlar, natijada janr, lafziy san’at va she’riy san’atlarni farqlay olmaganlar.

Navbatdagi nazorat ishi tarqatma sifatida tashkil etilib, sinfdagi har bir qator alohida variant topshirig‘ini oldi.

Topshiriqda badiiy matn, bir-ikki baytdan iborat she’r berildi (Quyida topshiriqlardan namunalar keltiriladi).

Topshiriq. Matnni o‘qing va quyida berilgan topshiriqlarni bajaring.

Yoshim bir yerga borib qolganida, yurtim boshiga kulfat tushdi. La’nati urush kattalargamas, begunoh norasidalarga ham changalini soldi. Qarab turolmadik. Baholi qudrat shulardan bir nechtasini bag‘rimizga oldik. Endilikda qurbim yetib, ana shu

toychoqlarga o‘zim taqa bo‘la olsam, shular toymay, qoqilmay, yiqilmay yurib ketsa, gurs-gurs bosgan qadamlarining ovozi quloqlarimga kirib tursa, dunyodan bearmon o‘tardim. Niyatim shu!

1. Matnda qaysi badiiy tasvir vositalari qo‘llangan?

2. Ma’no-mazmunni kuchaytiruvchi til hodisalarini aniqlang va izohlang.

Topshiriq. Furqat g‘azalidan keltirilgan baytni o‘qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Labing g‘uncha, yuzing ikki qizil gul,
Qading sarv-u, soching go‘yoki sunbul.

1. Baytda she’riy san’atning qaysi turi ishlatilganligini yozing va qisqa izohlang.

2. Baytdagi ma’no-mazmunni kuchaytiruvchi so‘z shaklini (munosabat shaklini) aniqlab yozing va qisqa izohlang.

O‘quvchilar matnni (she’rni) o‘qib, so‘ralgan til hodisasini aniqlashi va uning qaysi badiiy tasvir vositasi yoki she’riy san’at turi ekanligi, yoxud qaysi ma’noni kuchaytiruvchi so‘z, so‘z shakli ekanligini atash va izohlashlari kutildi.

Bizning e’tiborimizni o‘ziga tortgan narsa shu bo‘ldiki, o‘quvchilar aksariyat holatlarda tasvir vositasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z shaklini aniqlamasdan, izohlamasdan, atash bilan kifoyalanganlar. Ana shu o‘rinda ular badiiy tasvir vositasi bilan she’riy san’atlarni qorishtirganlar. Nasriy badiiy matndagi o‘xshatishni tashbih deb, she’riy parchadagi tashbihni o‘xshatish deb biri o‘rnida ikkinchisini ishlatganlar. Buning sababi 7-sinf “Adabiyot” darslik-majmuasida farqli vositalar bir narsa ekanligiga ishora qilingan: “Badiiy tasvir vositalari she’riy san’atlar deb ham yuritiladi”.

She’riy san’atlar boshqa, lafziy san’atlar boshqa. Keyingisi ko‘proq she’r tuzilishi, ritmi bilan bog‘liq. Mumtoz adabiyotda she’riy san’atlarning o‘zi bir ilm. Bu ilmni ma’lum darajada bo‘lsa ham bilmaslik nazmiy asarda shoir ilgari surgan g‘oyaviy mazmunni, so‘zlar sehri orqali tuyilgan jozibani anglamaslikka sabab bo‘ladi. Vaholanki, mumtoz asarlarni o‘qib-o‘rganish, ayniqsa, Alisher Navoiyni mutolaa qilish talab etilayotgan bugungi kunda ushbu ilmni o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning she’riy (badiiy) san’atlarni lafziy san’atlardan ajrata olmaganlik sabablaridan biri shuki, 7-sinf “Adabiyot” darslik-majmuasida biror sarlavhaga, tushunchaga birlashtirmagan holda, biror umumiy nom bilan atamagan holda qofiya va radif haqida nazariy ma’lumot berilgan.

Badiiy tasvir vositalaridan ayrimlari (mubolag‘a, sifatlash, jonlantirish) she’riy san’atlar sirasida aynan atalsa, ba’zilari (o‘xshatish, qarshilantirish) tashbih, tazod kabi atamalar bilan nomlanadi. Shunga qaramay, takrorlarga yo‘l qo‘ygan holda badiiy tasvir vositalarini alohida, she’riy san’atlarni alohida, lafziy san’atlarni alohida tasniflash va ushbu tasniflardan o‘quvchilarni boxabar qilish maqsadga muvofiqdir.

O‘tkazilgan nazorat ishlari o‘quvchilarning badiiy tasvir vositalari va she’riy san’at turlariga doir bilimlari bo‘sh, tasnifiy ma’lumotlarga ehtiyojmandligini, badiiy matndan ushbu til hodisalarini ajratish va izohlash ko‘nikmalari shakllanmagan holatda ekanligini ko‘rsatdi. Bunday vaziyatda yoshlarning ko‘tarinki ruhda yozayotgan insholarida badiiy qiymat yaratishga bo‘lgan intilishlari tegishli poydevorga ega emasligi tufayli ularga oz darajada murojaat etilishi tabiiydir. O‘quvchilarga ushbu

til hodisalarini o‘rgatish, ularga doir BKMlarni hosil qilish ustidagi metodik ishlarni qayta ko‘rib chiqish zarur.

Ma’lumki, she’riy san’atlar bilan lafziy san’atlar o‘zaro farqlanadi. Keyingisi ko‘proq she’r tuzilishi, ritmikasi bilan bog‘liq. She’riy san’atlarni ma’lum darajada bo‘lsa ham bilmaslik nazmiy asarda shoir ilgari surgan g‘oyaviy mazmunni, so‘zlar sehriga tuyilgan jozibani anglamaslikka sabab bo‘ladi. Vaholanki, mumtoz asarlarni o‘qib-o‘rganish, ayniqsa, Alisher Navoiyni mutolaa qilish zaruriyatga aylangan bugungi kunda ushbu ilmni o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. N.Afoqovaning kuzatishlari, shoir A.Oripov she’riyati yuzasidan amalga oshirgan tahlillari mumtoz poetikaga xos badiiy san’atlarning faqat shaklga asoslangan ko‘rinishlarini inobatga olmaganda, aksariyati bugungi she’riyatning ham asosiy ifoda-tasvir vositasi bo‘lib xizmat qilayotganligini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning she’riy (badiiy) san’atlarni lafziy san’atlardan ajrata olmaganlik sabablaridan biri shuki, 7-sinf “Adabiyot” darslik-majmuasida biror sarlavhaga, tushunchaga birlashtirmagan holda, biror umumiy nom bilan atamagan holda qofiya va radif haqida nazariy ma’lumot berilgan.

Badiiy tasvir vositalaridan ayrimlari (mubolag‘a, sifatlash, jonlantirish) she’riy san’atlar sirasida aynan atalsa, ba’zilari (o‘xshatish, qarshilantirish) tashbih, tazod kabi atamalar bilan nomlanadi. Badiiy tasvir vositalari, she’riy san’atlar va lafziy san’atlarni alohida-alohida tasniflash va ushbu tasniflardan o‘quvchilarni boxabar qilish maqsadga muvofiqdir.

A.Hojiahmedovning ‘‘She’r san’atlarini bilasizmi?’’ nomli risolasida “she’riy san’atlar” ifodasi ishlatiladi. Muallif quyidagi san’at turlariga keng izoh beradi: *mubolag‘a; tashbih; tamsil; husni ta’lil; tajohuli orifona; tashxis; intoq; talmeh; laff va nashr; ruju’; istiora; tansiq as-sifat; kinoya; irsoli masal, tazmin; savol-u javob; iqtibos; tajnis (yoki jinos); tanosub; tazod; ishtiqoq; ta’lil; tard-u aks; takrir; mukarrar; tazmini muzdavaj; kitobot; talmi’ (mulamma’ yoki “shir-u shakar”); muvozana; raddi matla’.*

A.Hojiahmedov qofiya haqidagi fikrlarini risolaning “Aruz ilmi” qismida bayon qiladi, ya’ni she’riy san’atlardan ajratadi. Nazarimizda, qofiya, radif va boshqa san’atlar ko‘proq bahr, vazn va boshqa tushunchalar singari she’r tuzilishi bilan bog‘liq.

A.Asallayev, V.Rahmonov, F.Musurmonqulovlarning “Badiiy san’atlar” nomli risolasida she’riy san’atlar “Ma’naviy san’atlar” sarlavhasi ostida bayon qilingan. Qofiya, radif va boshqa san’atlar “Lafziy san’atlar” sarlavhasi bilan ajratib berilgan. Ko‘rinadiki, mualliflar ma’naviy san’atlar, lafziy san’atlar va harfiy san’atlarni bir-biridan farqlagan holda uchalasini badiiy san’atlar deb nomlashgan. H.Umurov muallifligidagi “Adabiyotshunoslik nazariyasi” nomli darslikda bular qisqartirilgan holda badiiy tasvir vositalari sarlavhasi ostida bayon qilingan. Unda ko‘chimlar (jonlantirish, mubolag‘a, litota, sifatlash, o‘xshatish), lafziy san’atlar, ma’naviy san’atlar, lafziy-ma’naviy san’atlar kabi tasniflar qo‘llangan. Bu ham o‘ziga xos tasnif. She’riy san’atlarning deyarli hammasi lafziy, ma’naviy, lafziy-ma’naviy san’atlar tasnifida berilgan.

T.Boboyev va Z.Boboyevalarning “Badiiy san’atlar” nomli metodik qo‘llanmasi hamda T.Boboyevning “Adabiyotshunoslik asoslari” nomli darsligida she’riy nutq badiiyati, dastavval, uch guruh – poetik ko‘chimlar, badiiy san’atlar va poetik sintaksisga ajratib o‘rganish lozim deb topilgan. Istiora, sifatlash, jonlantirish, mubolag‘a kabi tasvir vositalari poetik ko‘chimlarga kiritilgan. Lafziy san’atlar, ma’naviy san’atlar (tashbih,

tazod, talmih va boshqalar) badiiy san’atlar bahsida yoritilgan. Ushbu tasnifga ko‘ra badiiy san’atlar tushunchasi she’riy san’atlar tushunchasi o‘rnida qo‘llangan. Lekin, bizningcha, “she’riy nutq badiiyati” deganda badiiy san’atlar nazarda tutilishi kerak. Shunda she’riy san’atlar badiiy san’atlar tarkibida ko‘rilishi mumkin. Boshqacha aytganda, she’riy (ma’naviy) san’atlarning o‘zini badiiy san’atlar deb atash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

5-9-sinflar uchun adabiyotdan nashr qilingan darslik va darslik-majmualarida she’riy san’at, badiiy san’at, badiiy vosita ma’nodoshlar kabi birining o‘rnida ikkinchisi qo‘llanishi, ba’zan birortasining atalmaslik holatlari kuzatiladi.

5-sinf “Adabiyot” darsligida Hamid Olimjonning she’rlariga nisbatan she’riy san’atlar ifodasi ishlatilgan: “Hamma gap – Hamid Olimjon qalami kuchi bilan qayta yaratilgan badiiy tilning xalq tiliga juda yaqinligi, bu til o‘xshatish, jonlantirish, qiyoslash va yana boshqa ko‘plab she’riy san’atlar ila mohirona bezalgani, boyitilganidadir” [6; 83-84-b.].

6-sinf “Adabiyot” darslik-majmuasida ifoda-tasvir vositasi an’ana deb atalgan: “Shu ma’noda badiiy til o‘z zamirida milliy adabiyotimizning asrlar osha shakllanib kelgan an’analarini (an’anaviy sifatlashlar, ramz va majozlar, o‘xshatish va boshqalarni) saqlab qolgan”.

7-sinf “Adabiyot” darslik-majmuasida qofiyaning lafziy san’at turi ekanligi aytilmaydi: “Qofiya she’rning asosiy unsurlaridan biri sanaladi” deyish bilan kifoyalaniladi. 8-sinf “Adabiyot” darslik-majmuasida qofiyaga badiiy san’atning bir turi sifatida tushuntirish beriladi: “Aslida qofiya ham – alohida bir badiiy san’at”. O‘quvchi bu yerdagi badiiy san’at tushunchasini uch san’at turi uchun umumiy nom sifatida tushunsagina, u to‘g‘ri atalgan bo‘ladi. Buning uchun esa, darslikda ana shunday tasnif berilgan bo‘lishi kerak.

7-sinf darslik-majmuasida ko‘chim tushunchasiga ham noaniq izoh beriladi: “Ko‘chim eng ko‘p ishlatiladigan badiiy vositalardandir”. Badiiy vosita badiiy tasvir vositasi sanaladimi yoki badiiy san’atmi, bunisi qo‘shimcha tushuntirishni talab etadi. She’riy san’atlar mumtoz adabiyotdan zamonaviy poetik asarlarga kirib kelganligi adabiyotshunoslikka doir manbalardan ma’lum. Ular she’riyatniki. “Adabiyot nazariyasi” kitobida yuqoridagi kabi san’atlarni ko‘p qo‘llash nasriy matn mazmunini tushunishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi degan ma’noda “Bu xil subyektiv obrazli vositalar nasriy badiiy nutq yuzasida hadeb jilvalanaversa, asosan, nutq tubida shakllanib boruvchi eng muhim narsalarni, qalamga olinayotgan hayotning tipik va ayni chog‘da individuallashtirilgan obyektiv lavhalarini to‘sib, xiralashtirib qo‘yishi hech gapmas” deyiladi. Proza tilida ramzli ifodalar yaratuvchi badiiy tasvir vositalari haqida so‘z yuritilar ekan, asosan, o‘xshatish, sifatlash, istiora, mubolag‘a va aks mubolag‘a (litota) va boshqa ayrim badiiy tasvir vositalari qo‘llanishi mumkinligi aniq misollarda bayon etiladi. Bizningcha, nasriy asarlarga nisbatan badiiy tasvir vositasi ishlatilgani to‘g‘ri bo‘ladi.

Demak, o‘quvchilarning bilimlarini tartibga solish uchun badiiy tasvir vositalarini she’riy san’atlardan farqli hodisalar sifatida tushuntirish, ularni, shuningdek, lafziy san’atlardan qofiya bilan radifni ham farqlantirish, shu maqsadda o‘quv qo‘llanmasi sahifalariga tasnifiy ma’lumotlarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ma’lumotlar 9-sinfni bitirayotgan o‘quvchilar bilishlari zarur bo‘lgan quyidagi adabiy-nazariy tushunchalardan iborat tarzda berilish mumkin:

1. Adabiy tur va janrlar. Nasriy asarlar janrlari.
2. Poetik asarlar janrlari. Aruzda bahr va vazn.
3. She'riy san'atlar.
4. She'r tuzilishiga doir lafziy san'atlar.
5. Nasriy asarlarga doir badiiy tasvir vositalari.

Tasnifiy ma'lumotlar shuning uchun zarurki, ular yoshlarning adabiyotdan o'rganayotgan adabiy-nazariy tushunchalarini tartibga soladi, birini ikkinchisidan farqlash uchun asos bo'ladi, darslar samaradorligini oshiradi, badiiy asarni estetik idrok etish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tasnifda sanalgan asosiy tushunchalar bilan qoniqmagan iqtidorli, ijod bilan shug'ullana boshlagan yoshlarning o'z bilim doirasini kengaytirishlari uchun yo'l ko'rsatkich vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2019-yil, 29-aprel.

3. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? – T.: Sharq, 2001. – 95 b.

4. Asallayev A., Rahmonov V., Musurmonqulov F. Badiiy san'atlar. – T.: Tafakkur, 2014.

5. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar: Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2001. – 121 b.

6. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1- qism, 3-nashri // S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. – T.: Sharq, 2015. – 176 b.

7. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua // S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. 2-qayta ishlangan nashri. – T.: Ma'naviyat, 2009. – 320 b.

8. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua: Birinchi qism // S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov (Mas'ul muharrir: V.Rahmonov). Qayta ishlangan uchinchi nashri. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – 384 b.

9. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua // Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Qayta ishlangan uchinchi nashri. – T.: Sharq, 2013. – 368 b.

Diyora AVEZMURATOVA,
Urganch davlat unversiteti xorijiy filologiya fakulteti mustaqil izlanuvchisi

TA’LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING O‘QUV-BILUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishda tahsil oluvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish masalalari haqida fikrlar bayon etilgan bo‘lib, unda O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitishga davlat tomonidan alohida katta ahamiyat qaratilayotganligi pedagog olimlar tomonidan yangi innovatsion texnologiyalar nuqtayi nazaridan jahon tajribasini o‘rganish, uni tanqidiy asosda milliy pedagogik ta’lim tizimiga tatbiq etish usul, vosita va shakllarini o‘rganish lozimligi e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar. Ingliz tili, o‘qitish jarayoni, tahsil oluvchi shaxsi, o‘quv-biluv faoliyati, rivojlantirish, jahon tajribasi.

В данной статье освещаются вопросы развития познавательной активности обучающихся в сфере преподавания английского языка. Также в ней отражены широкомасштабные реформы, в которых государством уделяется особое внимание преподаванию иностранных языков, способствующие изучению методов, средств, и форм внедрения их в образовательную систему.

Ключевые слова. Английский язык, учебный процесс, личность обучающихся, образовательная деятельность, развитие, мировой опыт.

This article highlights the development of cognitive activity of students in the field of teaching English language. It also displays large-scale reforms in which the state pays special attention to the teaching of foreign languages in Uzbekistan, contributing to the study of methods, means and forms of introducing them into the educational system.

Key words. English, the educational process, the personality of students, educational activities, development, international experience.

Dunyo hamjamiyati va respublikamizning boshqa mamalakatlar bilan madaniy, ta’limiy va iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlardagi faol ishtiroki chet tillarni mukammal bilgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, yetuk mutaxassislarni shakllantirishga zamin yaratadi.

O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitishga davlat tomonidan alohida katta ahamiyat qaratilayotganligi pedagog olimlar tomonidan yangi innovatsion texnologiyalar nuqtayi nazaridan jahon tajribasini o‘rganish, uni tanqidiy asosda milliy pedagogik ta’lim tizimiga tatbiq etish usul, vosita va shakllarini o‘rganishga, tahsil oluvchilar o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Bugungi kundagi oliy ta’lim tizimidagi pedagogik jarayonning bosh xususiyatlardan biri uning innovatsion xarakterda ekanligi bilan belgilanadi. Innovatsion omil zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridandir. 2017-yil 7-iyulda qabul qilingan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2012-yil

28-mayda e'lon qilingan "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarda[1] ham ta'lim tizimi xodimlari, xususan o'qituvchi-pedagog kadrlar salohiyati, ularning ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlarni amalga oshirishga tayyor bo'lishi zarurligi masalasi ta'kidlanadi.

Oliy ta'lim tizimidagi tub islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri chet tillarini o'qitish, mazkur jarayonga innovatsion shakl, vosita va usullarni joriy etish, buning uchun maxsus tayyorgarligi mavjud bo'lgan pedagogik kadrlarni yetishtirishdan iboratdir.

2012-yilning 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror, "O'zbekiston Davlat Jahon tillari universitetining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2013-yil 23-maydagi PQ-1971-sonli Qaror, 2013-yil 8-mayda Vazirlar Mahkamasining 124-son ''Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risidagi'' gi 124-son Qarori[2], 2013-yil 27-mayda 143-son O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining ''2013-2016-yillarda ta'lim muassasalarining chet tillari kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya, o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan jihozlash (qo'shimcha jihozlash)ni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror[3]larida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va uni dunyo miqyosiga olib chiqishda chet tillarni erkin bilgan raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan zamonaviy talab ortib borayotganligi ta'kidlanadi va mana shunday kadrlarni shakllantirish ta'lim tizimining bosh vazifalaridan biri ekanligi haqida so'z ketadi. Qarorlarda ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida chet el tajribasini chuqur va har tomonlama o'rganib chiqish, chet el tajribasini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini yangi mazmunda tashkil qilish uchun yangi o'quv rejalari va dasturlarini qaytadan ishlab chiqish, ularda an'anaviy maktab ta'limi uslublaridan voz kechib, amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha soatlar ko'paytirilishini ta'minlash belgilab qo'yildi.

Ingliz tili mashg'ulotlarida doimiy amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga tahsil oluvchilarda o'quv-biluv faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni shakllantirish hamda rivojlantirish, idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, ''rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish'', ''o'zib ketish'' darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, tahsil oluvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi ''sakrash''larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun esa ta'lim jarayoni sifati, uning zamonaviy bilimlar va innovatsion shakl hamda mazmun bilan ta'minlanganligi, uning mohiyatini muntazam tarzda takomillashtirishni taqozo etadi. Shuningdek, ta'lim jarayonini bevosita olib boruvchi va tashkil qiluvchi, uning amaliyotini ta'minlovchi shaxs – o'qituvchi shaxsi va uning innovatsion pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni qay darajada egallagani, ularni o'z faoliyatida tatbiq etishga tayyorligi, o'qituvchining ijodiyligi, innovatsion

[1] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 22-son, 241-modda; 2013-y., 23-son, 300-modda.

[2] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-y., 20-son, 251-modda.

[3] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-y., 22-son, 283-modda, 34-son, 453-modda.

mahorati, tafakkuri, madaniyati, qobiliyati, dunyoning istiqbol taraqqiyotini baholay olishi masalalari dolzarblik kasb etadi. Muhim bo‘lgan talab – ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil qila bilishdir. Mazkur vazifa esa o‘qituvchilarni maxsus va maqsadli ravishda pedagogik jarayonga tayyorlashni taqozo etadi. Zamonaviy ta’lim – o‘qituvchining innovatsion maqsadga yo‘naltirilganligi, o‘z faoliyatini tashkil qilishning innovatsion shakl, usul, vosita va metodlarini egallaganligi, ta’lim mazmuniga mos ravishda innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qila olishini taqozo etadi.

Muammoli o‘qitish asosida tahsil oluvchilarning o‘quv-biluv faoliyati ingliz tilidan bilim, malaka, ko‘nikma, kompetensiyalarni egallash jarayoni bo‘lib, yangi kadrlarni yetishtirishga yo‘naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy tadbirlari yig‘indisidir.

Ta’limning yangi paradigmasining paydo bo‘lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan.

Muammoli o‘qitish asosida bo‘lajak kadrlarning kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlik va muvofiqlik darajasi, ularning ingliz tilidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallaganligi, kundalik ta’lim tizimida yaratuvchilik xususiyatlari bilan ta’limdagi sifat va samaradorlik bilan belgilanadi.

Muammoli ta’lim jarayoni – o‘qituvchi shaxsining innovatsion maqsadga yo‘naltirilganligi, o‘z faoliyatini tashkil qilishning innovatsion shakl, usul, vosita va metodlarini egallaganligi, ta’lim mazmuniga mos ravishda innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qila olishini taqozo etadi.

Muammoli ta’limga yangicha yondashuv yotadigan g‘oyalarning rivojlanishida tahsil oluvchilarning “yaqin zonadan rivojlanish” va ularning refleksiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilimga yo‘naltirilgan ingliz tilini o‘qitish paradigmasida ta’limning tayanch, asosiy, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o‘tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta’minlashga asoslanadi. Mazkur paradigma ta’lim muassasasiga ingliz tilidan ta’lim oluvchilarning maqbul kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida bilimlarni o‘zlashtirish yo‘li sifatida qaraladi. Muammoli o‘qitish paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

– ta’limning ijtimoiylashuvi – mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, o‘zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta’minlash, tahsil oluvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g‘oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

– milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo‘lish;

– ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g‘oyalariga asoslanish;

– shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

– shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishida o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

– ta’lim jarayonida o‘quv dasturlarining tahsil oluvchilar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko‘ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

– pedagogik ta’limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya’ni, tahsil oluvchilar tomonidan o‘zgaruvchan sharoitlarda shaxsiy ijodiy rivoji asosini ta’minlovchi invariant bilimlarning o‘zlashtirilishiga erishish;

– mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ra-

vishda o‘zgarib turuvchi ehtiyojlarga to‘laqonli javob bera oladigan ta’limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

– ta’limning uzluksizligi, ta’limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta’minlovchi kasbiy ta’lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta’limning u yoki bu bosqichida o‘qitilishi yoki o‘qishni boshqa tipdagi o‘quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

– ta’limning ekvivalentligi, ya’ni uning davlat ta’lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me’yorlarga muvofiq darajasi.

Ingliz tilidagi o‘quv materialini idrok etishda tahsil oluvchi material mazmunini tushunish yo‘lida asosiy ko‘rsatma sifatida tahsil oluvchi matn tuzilishining algoritmini qabul qiladi.

Matnni algoritmlashtirish – ta’limiy masalalarni yechish yo‘llarini aniqlash va ularni tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilish algoritmini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ayni shu ma’noda algoritmlashtirish o‘quv materialining tarkibi, tahsil oluvchi faoliyatining tartibi hamda ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning didaktik tamoyili hisoblanadi. Ta’lim jarayonida tahsil oluvchilarning fikrlash qobiliyatiga ega ekanliklarini aniqlashga imkoniyat beradigan algoritmik nazoratni tashkil etish maqsadga muvofiq. Masalan, ingliz tilidan tahsil oluvchilar bilimini baholashda test nazorati keng qo‘llaniladi. Algoritmik nazorat metodi tahsil oluvchilarning bilimlari darajasini matnning mantiqiy mazmuniga tayangan holda aniqlashga imkoniyat yaratadi.

London The Crown of Europe

Famous for red double-decker buses and phone boxes, London, the capital of the United Kingdom (UK), is the most visited city in the world. With a population of around 18,000 people 1,000 years ago, London is now home to approximately 12 million people from all over the world.

Getting to know all of the London’s charms is a daunting task, but even a short visit will be an unforgettable experience for every tourist.

Ko‘rib turganimizdek, tahsil oluvchilarning nazariy va amalay bilimlari darajasini algoritmik nazorat metodi yordamida aniqlash ularni o‘rganilayotgan material mohiyatini tushunib olishga undaydi.

Tahsil oluvchilarning ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, mazkur o‘quv fanini tashkil etuvchi bo‘limlar yuzasidan bilimlari, malaka va ko‘nikmalari darajasini aniqlovchi anketa so‘rovnomalari, test nazoratlari, yozma ishlar o‘tkazish hamda ularning natijalarini har tomonlama tahlil qilgan holda ingliz tilini o‘qitishda ta’lim mazmunini boyitish mumkin.

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida tahsil oluvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun ularning til o‘rganish qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish zarur. Bunda tafakkur usullaridan foydalanish ahamiyatlidir.

Tafakkur E.G‘oziyev fikricha “insonning shunday aqliy faoliyatiki, bu faoliyat voqeylikni eng aniq, to‘liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga, insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi”. Bundan tashqari, tafakkurning A.V.Brushlinskiy ta’kidlab o‘tgan xususiyatlari – yangilikni qidirish va yaratish, faraz va nazariyalarni bashorat (prognoz) qilish, oldindan payqash kabilarni e’tiborga

olsak, u holda ingliz tili fanlarni o‘qitish jarayonida tahsil oluvchilar ingliz tili tafakkurini rivojlantirish va takomillashtirish muhim vazifa ekanligi o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi.

Tahsil oluvchilarning ingliz tilidagi definitsiyalarni o‘zlashtirishlari orqali ularda ingliz tili grammatikasi rivojlantiriladi. Tahsil oluvchining uy vazifasini bajarish va mustaqil bilim olish, qo‘yilgan muammoni paydo bo‘lishi, uni hal qilish imkoniyatlari to‘g‘risida o‘ylash (faraz yaratish), topshiriqni bajarishga kirishish, test variantlarini yechish, yo‘llari va usullarini tanlash, yechish davomida vaqti-vaqti bilan ichki nutqning tashqi nutqqa ko‘chib turishi, psixofiziologik xatti-harakatlarning namoyon bo‘lish jarayonini kuzatish orqali uning aqliy faoliyatiga baho beriladi. Tahsil oluvchi bilan ma’lum bir muammoni hal qilish maqsad qilib olingan suhbat qurish orqali uning ingliz tili tafakkuri, aql-zakovati, mulohaza yuritish uslubi aniqlanadi. Suhbat yordamida o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash, tafakkurning tanqidiyligi, mahsuldorligi, teranligi kabi fikr yuritish xususiyatlarini o‘rganish mumkin.

Shunday qilib, mamlakat iqtisodiyoti uchun barkamol, zamonaviy bilimlarni to‘liq egallagan, ma’naviyatli, kompetentli, harakatchan, ijodiy yondashuvli, kreativ kadrlarni yetishtirib berishda ingliz tilini mukammal o‘rgatish davr talabi ekanligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018-y., 22-son.

2. Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника. – М.: Мысль, 2017. – С.190.

3. Брушлинский А.В. Лингвистическая основа коммуникативных методов обучения иностранному языку // Иностранные языки в школе. – М., 2019. -№ 3. – С. 12-15.

4. Бондаревский В.Б, Воспитание интереса к знаниям и потребности к самообразованию. – М.: Просвещение, 1995. – С.143.

5. Буранов Дж. Концепция обучения иностранным языкам в вузах Республики Узбекистан. – Т.: УзГУМЯ, 1997. – С.32.

6. G‘oziyev E.G‘.Tafakkur psixologiyasi. –T.:O‘qituvchi, 2008.–188b.

Nigora JO‘RAQULOVA,
Qarshi davlat universiteti ‘‘Kimyo kafedra’’ o‘qituvchisi

KIMYO FANINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim tizimida kimyo fanini sifatli o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va elektron ta’lim vositalardan foydalanishga e’tibor qaratilgan. Elektron ta’lim – 3D texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarni qo‘llab, ta’lim jarayonida modernizatsiyani jadallashtirish, shuningdek, kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasi bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kimyo fani, elektron ta’lim vositalari, virtual ta’lim, 3D muhit, virtual reallik, modernizatsiya.

В статье внимание уделяется использованию современных педагогических технологий и электронных средств обучения в процессе эффективного преподавания химии в системе высшего образования. Даны рекомендации по использованию технологий электронного образования – 3D и образовательных технологий, ускорению модернизации образовательного процесса, а также методике применения современных педагогических технологий в преподавании химии.

Ключевые слова. Современные педагогические технологии, химия, электронные средства обучения, виртуальное образование, 3D среда, виртуальная реальность, модернизация.

The article focuses on the use of modern pedagogical technologies and electronic learning tools in the process of effective teaching of chemistry in the higher education system. Recommendations are given on the use of e-education technologies – 3D and educational technologies, acceleration of the modernization of the educational process, as well as the method of applying modern pedagogical technologies in teaching chemistry.

Key words. Modern pedagogical technologies, chemistry, electronic learning tools, virtual education, 3D environment, virtual reality, modernization.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarorning birinchi bandida “ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etib takomillashtirish” ko‘zda tutilgan. Elektron ta’lim muhitida o‘qitishning psixologik-pedagogik xossalarini aniqlashtirish, ta’lim jarayonida optimal o‘quv variantlarni tanlashni amalga oshirishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.[1]

Yaqindagina Prezidentimiz tomonidan 2020-yilni nomlashda ham yosh avlodni yuqori bilimli qilib tarbiyalashga alohida urg‘u berildi:

[1] O‘zbekiston qonun hujjatlar to‘plami.PQ-2909, 1-bandi.

“Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida men yurtimizda 2020-yilga **“Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”**, deb nom berishni taklif etaman”. Sharq donishmandlari aytganidek, **“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak**.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi.[2]

Har qanday ishni bajarishda, har qanday muammoni hal qilishda ishni bajarish metodikasi, ya’ni usuli muhim ahamiyatga ega. To‘g‘ri usul bilan bajarilgan ishlar buyuk kashfiyotlarga sabab bo‘lgan. Har qanday mutaxassis bajarayotgan ishini metodikasiga qanchalik katta e’tibor bersa, u shunchalik katta natijalarga erishadi. O‘qituvchi ishining asosi o‘qitish metodikasi – o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalash masaladir.

O‘z kasbini fidoyisi har sohada topiladi, ammo o‘qituvchilikni tanlashda yetti o‘lchab bir kesmoq kerak. Chunki bu kasb egalari – kelajak avlod tarbiyachisidir. Qaysiki tumanda, viloyatda, respublikada o‘qituvchilar kuchli bo‘lsa, o‘sha joyda albatta, o‘quvchilar (talabalar) kuchli bo‘ladi. O‘quvchilarni kuchli bo‘lishi sog‘lom raqobatni kuchaytiradi, jamiyatni ma’rifatli qilishga o‘z hisasini qo‘shadi. Allomalarning fikricha, pedagoglik kasbi bilan quyidagi tug‘ma xislatni mujassamlashtirgan kishilargina shug‘ullanishi lozim:

– barcha organlari mukammal taraqqiy etgan;
– barcha masalani tez va to‘g‘ri tushuna oladigan;
– xotirasi kuchli va zehni o‘tkir bo‘lgan;
– nutqi ravon bo‘lgan;
– bilish va o‘qishga muhabbati kuchli bo‘lgan;
– ko‘zi to‘q, pokiza bo‘lgan;
– g‘ururli va vijdonli bo‘lgan;
– pulni sevmaydigan, haqiqatparvar va adolatli;
– qat’iyatli, qo‘rqmas va jasur kishilar.[3]

Ana shu xislatlar bilan birga o‘qituvchi ijodkor bo‘lishi, o‘z fanini chuqur bilishi va bolaga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. O‘rtacha o‘qituvchi-dars davomida hikoya qiladi, yaxshi o‘qituvchi tushuntiradi, a’lo darajadagi o‘qituvchi bolaga ilhom beradi (U.Uilyam Artur). Shuning uchun ham, biz bolani qalbini to‘g‘ri kashf qilishni o‘rgansak, bola dunyoni kashf qiladi.

Hozirgi kunda ta’limning zamonaviy bosqichida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, asosiy e’tibor ulardan amaliyotda foydalanishga qaratilishidir. Kimyo fani aniq fanlar jumlasiga kirib, bu fanni amaliyot, laboratoriyalar bilan birgalikda olib borilsa fanni tushunish, o‘zlashtirish ancha osonlashadi. Ma’lumki, ishlab chiqarish jarayonlarida kimyo fanini o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida kimyo fanini talabalarga mukammal yetkazib berish, aniq va tushunarli bayon qilish – ularda kuchli qiziqish uyg‘otadi, kimyoviy reaksiyalarni o‘zi mustaqil bajarishga urinib ko‘radi,

[2] https: // uz // bizning_sharhlar // 2020-yil.
[3] Pedagogika jurnali, TDPI.2019-yil.2-son,11-b.

alomatlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib xulosalar chiqaradi. Kimyoviy reaksiyalar asosida hisoblashlar olib boradi, fikrlay oladi, masalalarga yechim topa oladi.

Lekin barcha kimyoviy reaksiyalarni ham birday bajara olish imkoni mavjudmi, kimyoviy reaktiv va asboblarni doimo topish mumkinmi, degan savollar bo‘lishi tabiiy. Masalan, yadro reaksiyalari, optik izomeriyalarning aylanma jarayonlari (tautomeriya holatlari), faol metall va metallmaslarning kimyoviy reaksiyalarini bajarish ancha qiyin masala. Shu sababli ham kimyo fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan birgalikda elektron ta’lim vositalaridan: innovatsion elektron darslik, v-academiya, 3D texnologiyalaridan foydalanish fanni modernizatsiyalashtirilganligidan dalolat beradi.

Kimyo sohasida ta’lim jarayonini tashkillashtirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan, ayniqsa 3D virtual ta’lim tizimidan foydalanish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish xalqaro kommunikatsion hayot muhiti, ta’lim, muloqot va ishlab chiqarishni shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Elektron ta’lim tez o‘zgaruvchan dunyoda, bugungi kunda o‘rganilayotgan kursni yangi va qiziqarli qilish, kurs mazmunini doimo o‘zgartirish, shuningdek, talabalarga eng oxirgi axborotni olish imkonini berishi uchun tez yangilash imkonini beradigan texnologiyadir.

Kimyo fanidan elektron qo‘llanma va darsliklar universitet, institutlarning talabalari uchun o‘qitiladigan ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlarini avtomatlashtirish maqsadida yaratiladi. Elektron darslik shakllari va xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

– o‘quv materialini multimedia, ya’ni ma’lumot berishning vizual, gipermatn, ovoz shakllaridan foydalangan holda taqdim etilishi;

– turli o‘quv adabiyotlari – darslik, lug‘at, masalalar to‘plami va amaliy – laboratoriya mashg‘ulotlari uchun tegishli barcha o‘quv qo‘llanmalarining bir joyda jamlangan holda ko‘rinishi;

– o‘rganuvchi va o‘rgatuvchi o‘rtasida o‘zaro bevosita aloqa o‘rnatilishi (interfaollik);

– o‘qituvchining o‘quv jarayonini boshqarish va nazorat qilish bo‘yicha vazifalarining ma’lum qismini kompyuterli o‘quv vositalari zimmasiga yuklatilishi;

– o‘quvchi tomonidan qabul qilinadigan – maslahat, tushuntirish, ma’lumotni izlash bo‘yicha savol-javob va bilimni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilishning tezkor uslubiga o‘tish imkoniyati;

– kompyuter vizualizatsiyasi orqali o‘rganilayotgan obyektning kompyuterdagi imitatsiya modellaridan foydalanish;

– o‘quv materialiga nisbatan yengil o‘zgartirishlar kiritilishi va takomillashtirish imkoniyatlarining yaratilishi.[4]

Ana shu elektron darslik asosida o‘qitishdagi innovatsion texnologiyalar o‘zida uchta maqsadni ko‘zda tutadi:

– ta’limiy – talabalarda kasbiy-pedagogik faoliyatga oid bilim ko‘nikma va mehnat malakalarni shaxsiy-intellektual jihatdan yuqori darajada shakllanishini ta’minlash;

– tarbiyaviy – talabalarda ilmiy-ijodiy tadqiqot ko‘nikmalarining shakllanishi va bunga mos keluvchi mustaqil fikrlash tarzini paydo qilish;

– rivojlantiruvchi – ijtimoiy-iqtisodiy va kasbiy-pedagogik faoliyatga oid yangiliklarlar asosida tegishli bo‘lgan taklif va ko‘rsatmalar kirita olish qobiliyalarini rivojlantirish.

[4] Taylakov N.I. Elektron darslik yaratishga qo‘yiladigan talablar. // Xalq ta’limi jurnali, 2005-yil.2-son, 17-20-b.

Ta’limda pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi – o‘qitish tizimida o‘quvchi (talaba) ni dars jarayonining markaziga olib chiqish, o‘quvchi (talaba) larni o‘quv materiallarini shunchaki yod olishlaridan avtomatik tarzda takrorlashlaridan uzoqlashtirib mustaqil, ijodiy va aqliy faoliyatni rivojlantirish, darsning faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Shundagina ular muhim hayotiy yutuq va muammolar, o‘tiladigan mavzularning amaliyotga tatbiqi bo‘yicha o‘z fikriga ega bo‘ladi va asoslab bera oladi.

Qanday metodlardan foydalanilganda belgilangan, kafolatlangan natijaga erishish mumkin? Ushbu savolga javobni har bir pedagog o‘ziga darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘yishi, darsning turi va xususiyatidan kelib chiqqan holda u yoki bu metodikaga murojaat etishi mumkin.

Masalan, oliy ta’lim muassasalarida bioorganik kimyo fanidan “Aminokislotalar” mavzusini o‘qitishni zamonaviy pedagogik texnologiya va elektron ta’lim texnologiyalar asosida tashkil qilamiz: Buning uchun, “Idrok xaritasi”, “Keys”, “Bumerang” pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Idrok xaritasi metodi mavzu yoki o‘quv materialini grafikli bayon etish usuli bo‘lib, axborotlarni tizimli, tartibli va vizual o‘zlashtirish imkonini beradi. Idrok xaritasi texnologik jarayonlarni amalga oshiruvchi murakkab tuzilmaga ega texnik qurilmalar qismlarining bir-biriga sabab oqibatli bog‘liqligini namoyish etish, ularni xotirada mukammal saqlab qolish, tizimlashtirishda samarali omil hisoblanadi. Unda tarmoq qancha ko‘p bo‘lsa, bu o‘quv materialini batafsil tahlil etish, birinchi darajali o‘quv materialigi imkon qadar diqqat-e’tibor qaratilishini oldindan belgilab olish imkonini beradi. Boshqacha aytganda idrok xaritasi metodi kafolatlangan yakuniy natijani berish imkoniga ega.

“Idrok xaritasi” metodining (seminar va amaliy darslarida) dastlabki bosqichida talabalarning mavjud bilimlariga tayangan holda quyidagi savollar beriladi:

Aminokislotalar nima?	bitta uglerod atomining o‘zida ikkita funksional guruhlarning – karboksil va amino guruhlari bor bo‘lgan birikmalar
Oddiy oqsillar nima?	α-aminokislotalarning bir-biri bilan peptid bog‘lari orqali birikkan polimerlari
Aminokislotalar nega ikki xil optiq faol holatda bo‘ladi?	Asimmetrik uglerod atomiga ega bo‘lganligi uchun (glitsindan tashqari)
Oqsillarda uchraydigan barcha α-aminokislotalar qanday konfiguratsiyaga ega bo‘ladi?	L-konfiguratsiyaga
O‘ngga (D) buruvchi aminokislotalarga qaysi moddalar kiradi?	serin, treonin, sistin, sistein, metionin, prolin, oksiprolin, gistidin, asparagin va boshqalar.

Talabalar bu savollarga javoblarni yozib bo‘lganlaridan so‘ng ekrandagi elektron darslikdan savollarga javobni ko‘radilar, o‘zlari bergan javoblar bilan solishtiradi va asosiysi α-aminokislotalarni optik holatda o‘ngga va chapga buruvchi konfiguratsiyalarini animatsiyalar yoki 3D virtual ta’limda tasvirni vizual va tovushli uzatib berish orqali ko‘rishsa mavzuni to‘liq tushunishlari, idrok qilishlari osonlashadi. Keyingi mavzularni ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni elektron ta’lim vositalari orqali to‘ldirilsa, darsning sifat samaradorligi oshishi shubhasiz.

‘‘Keys-stadi” metodi – “Keys-stadi’’aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod bo‘lib kimyo fanida qo‘llash mumkin. Oliy ta’lim muassasalarida kimyo ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “organik kimyo”yoki “bioorganik kimyo” fanidan “Uglevodlar” mavzusini o‘qitishda quyidagicha keysni tashkil qi-

lish mumkin: Nargiza ertalab sutni pishirib, stol ustida kun bo‘yi qoldirib ketdi. Natijada, sut tarkibi buzilishi kuzatildi. Qanday jarayon sodir bo‘ldi? Kimyoviy jihatdan sababini izohlang. Uglevodlarning bijg‘ish turlarini ko‘rsating. Xilma-xilligining sababini izohlang.

Keys javobi: Sut mahsulotlari tarkibidagi uglevodlarning sut kislotali bijg‘ishi natijasida sut kislotasi hosil bo‘ladi. Shu jarayonni elektron darslikdagi bijg‘ish reaksiyalaridan vizual ko‘rsatiladi.

Virtual makon tizimining rivojlanishi jahon ta’lim tizimida evolyutsion takomillashtirishning yangi istiqbollarini ochib berdi. Bugungi kunda, an’anaviy ta’lim uslublari internet, elektron-kompyuter setlari va telekommunikatsiya muhitiga asoslangan yangi o‘qitish uslublari bilan to‘ldirilmoqda Multimedia sohasida 3D texnologiyalarining kirib kelishi bu sohada yangi davrni boshlab berdi. Ta’kidlash joizki, 3D texnologiyasi tasvirni vizual va tovushli uzatib berishning dunyodagi eng ilg‘or usulidir.[5]

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, zamonaviy o‘qitish metodlaridan foydalanish talabalarning o‘quv bilish faoliyatini, o‘z-o‘zini o‘qitish jarayonini uzviy va elektron ta’lim vositalariga bog‘liq ravishda rivojlantiradi. Mavzu bo‘yicha mukammal bilimlarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi va darslarda talaba mustaqil fikrlashni, o‘z fikrini erkin bayon qilishni va xulosa chiqarishni o‘rganadi. Har bir dars faoliyatini zamonaviy bilim va malakalar bilan olib boorish – jonkuyar o‘qituvchini asosiy vazifasi bo‘lishi darkor.

Bioorganik kimyo – tirik mavjudotlar organizmida uchraydigan va hayot uchun muhim bo‘lgan biopolimerlar (oqsillar, peptidlar, fermentlar, nuklein kislotalar, uglevodlar, lipidlar, biologik membranalar) va kichik molekulali bioregulyatorlar (alkaloidlar, vitaminlar, flavanoidlar, gormonlar, antibiotiklarni o‘rganadigan fan bo‘lganligi uchun ham talabalar uchun juda qiziqarli. Tirik organizmidagi jarayonlarni nafaqat ko‘rish, balki bu jarayonni o‘zi boshqarishi (3D texnologiyalar orqali) fanni yuqori darajada o‘zlashtirishga imkon beradi. Oqsillarni hosil bo‘lish jarayonlarini 3D va virtual ta’lim dasturlari orqali turli reaktivlarni o‘zaro aralashtirib bir necha marta takror kimyoviy reaksiyalarni kuzatish mumkin. Kimyoviy reaksiya vaqtida reaktivlarning rangi, gazlarning ajralishi, cho‘kmaga tushishi va kimyoviy reaksiya formulalarini va modellarini, maxsus oynada ko‘rish imkoniyati dasturning kuchli pedagogik qurol sifatida foydalanish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston qonun hujjatlar to‘plami.PQ-2909, 1-bandi.

2. https: // uz // bizning_sharhlar // 2020-yil.

3. Pedagogika jurnali, TDPI.2019-yil.2-son,11-b.

4. Taylakov N.I. Elektron darslik yaratishga qo‘yiladigan talablar. // Xalq ta’limi jurnali, 2005-yil.2-son, 17-20-b.

5. Jo‘raqulova N. X., Ixtiyarova G.A., Egamberdiyev E.“Bioorganik kimyo”dan elektron darslik. DGU 05482 .23.04.2018-yil.

6. Jo‘raqulova N. X., Ixtiyarova G.A. Kimyo sohasida 3D virtual texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. “Olima ayol-intellektual salohiyat va jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi fidoyi kuch” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2019-yil 16-may, 23b.

7. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008. – 180b.

[5] Jo‘raqulova N. X., Ixtiyarova G.A. Kimyo sohasida 3D virtual texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. “Olima ayol-intellektual salohiyat va jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi fidoyi kuch” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: 2019-yil 16-may, 23-b.

Barno ISMAILOVA,
Urganch davlat universiteti “Xorijiy filologiya” fakulteti o‘qituvchisi

TA’LIM JARAYONIDA INGLIZ TILIDAGI O‘QUV MATERIALINI SAMARALI O‘ZLASHTIRISH METODLARI

Annotatsiya

Maqolada o‘qitishning ilg‘or metodlarini joriy qilish orqali xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash masalalari o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, muallif talabalarning ingliz tilidan o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonini ingliz tilini o‘qitishning maqsad va talablari asosida tashkil etish bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Xorij tillar, o‘qitish metodlari, ilg‘or tajribalar, ijodiy fikrlash qobiliyati, ta’lim jarayoni, axborot uzatish.

Статья посвящена вопросам изучения английского языка на основе современных технологий, способствующих оперативному овладению иностранными языками. Также автор дал свои рекомендации по организации процесса усвоения студентами учебного материала с английского языка на основе целей и требований преподавания английского языка.

Ключевые слова. Иностранные языки, методы обучения, передовой опыт, умение творческого мышления, процесс обучения, передача информации.

The article addresses the issue of training professionals who can communicate freely in foreign languages through the use of advanced teaching methods. The author also provided feedback on how to organize the learning process for students based on English language learning objectives and requirements.

Key words. Foreign languages, teaching methods, best practices, creative thinking skills, educational process, information transfer.

Mustaqillik yillarida respublikamizda yosh avlodni chet tillarga, xususan, ingliz tiliga o‘rgatish tizimini tubdan o‘zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or metodlarini joriy qilish orqali xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratildi.

Ta’lim jarayonida innovatsion uslublar (pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi

bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

− birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan;

− ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi;

− uchinchidan, pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi;

− to‘rtinchidan, innovatsion pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo‘llashga asoslanganligi sababli, ularning qo‘llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talabalarini amalga oshirishni ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonida talabalarning ingliz tilidagi o‘quv materialini samarali o‘zlashtirishlari ularning kelgusida yetuk mutaxassis sifatida faoliyat yuritishlariga xizmat qiladi.

Ingliz tilidan tanlangan o‘quv materiali auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar unumdorligi va o‘qitish samaradorligini oshiradi. O‘qitish metodlarini tanlashda o‘qituvchi ta’limning aniq sharoitida eng kam vaqt sarf qilgan holda o‘quv-tarbiya vazifalarining samarali hal qilinishiga qaratilgan eng qulay usul tanlashi maqsadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni xulosalab shuni aytish mumkinki, ta’lim muassasalarda ingliz tilini o‘qitish jarayoni davlat talablarida belgilangan ta’lim mazmuni, maqsadi va tarkibiy tuzilishi asosida tashkil etilishi; o‘quvchilarda ingliz tili o‘quv kursi asoslarining ilmiylik elementlari singdirilgan poydevorini shakllantirishi; o‘quv faniga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishi; talabalarda ingliz tilida o‘qish, yozish, tinglab tushunish, og‘zaki nutqni takomillashtirishi; ijodiy fikrlash malaka va ko‘nikmalariga asos solishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Ingliz tili bo‘yicha mavjud bo‘lgan adabiyotlar, dastur va o‘quv rejalarning tahlillaridan ma’lum bo‘lishicha, ta’lim jarayonini modernizatsiyalash jarayonida o‘qitish metodlari va vositalarini tanlashda, ayniqsa nazariy bilimlarni mustahkamlash, fanga qiziqtirish, fanni bo‘lg‘usi kasb bilan bog‘lashda amaliy mashqlarni talabalarga taqdim etish tavsiya etilgan. Biroq, amaldagi darsliklarda ko‘rsatilgan maqsadga erishish yoki qo‘yilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan amallar ketma-ketligi borasida ijrochiga tushunarli va aniq ko‘rsatmalar berish har doim ham nazarda tutilmaydi.

Ingliz tilidagi o‘quv materialini idrok etishda talaba material mazmunini tushunish yo‘lida asosiy ko‘rsatma sifatida talaba matn tuzilishining algoritmini qabul qiladi.

Ta’lim tizimida ingliz tilini o‘zlashtirishda ulardan quyidagilari inobatga olinadi: amaliy, ko‘rgazmali, ifodali, matn bilan ishlash, video, audio, multimediali metodlar (1- jadval).

1-jadval

Ta’lim tizimida ingliz tilidagi o‘quv materialini o‘zlashtirish metodlari

Ingliz tilidagi o‘quv materialini o‘zlashtirish metodlari	Ingliz tilini o‘rganish metodlari
Axborot berish – bayon qilish	Ijro etish
Tushuntirish	Reproduktiv
Ko‘rsatma berish – amaliy	Produktiv – amaliy
Tushuntirish – ishontirish	Qisman ijodiy
Ishontirish	Ijodiy

Demak, jadvaldan ko‘rinadiki, o‘rganish metodlari ingliz tilidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni ijodiy egallashga hamda metodik va g‘oyaviy-siyosiy e’tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati yo‘li sifatida belgilanadi. Shunday ekan, talabalarning ingliz tilidan o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonini ingliz tilini o‘qitishning maqsad va talablari asosida tashkil etish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim muassasalarida ingliz tili bo‘yicha qo‘yiladigan umumiy talablarda bilimlarni o‘zlashtira olish, o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga, mehnat faoliyatiga tatbiq eta olish; bilimlarni muntazam oshirib borish va unga ijodiy, mustaqil yondashish; o‘z fikrlarini mantiqiy yozma va og‘zaki bayon etish, lingvistik kompetensiyalarni egallash kabilar o‘z ifodasini topadi. Bunday talablarga javob beruvchi yoshlarga bilim berish uchun ularga ta’lim beruvchi pedagog kadrlar shunday kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishlari kerakki, bu tayyorgarlik ingliz tilidan ta’limni muvaffaqiyatli, yuqori ilmiy-pedagogik saviyada olib borish; ta’lim jarayoniga ilg‘or ta’lim metodlarini o‘z o‘rnida mohirlik bilan qo‘llay olish, ingliz tili o‘quv kursining boshqa fanlar, ayniqsa kasbiy faoliyatga qo‘llash imkoniyatlarini ochib bera olish; talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlari va ingliz tilida tafakkur etishni rivojlantirish kabi maqsadlarga erishishga olib kelishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni –T.: Sharq, 1997. – 34 bet.

2. Ibragimov X. Pedagogika nazariyasi. – T., 2008.

3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. В 2-х т. – М.: Педагогика, 2009. – С-589.

4. Бабанский Ю.К. Педагогика. 5-е изд.– М.: Логос, 2011.– С.224.

5. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 2011. – С.580.

Sarvar MAXMUDOV,
pedagogika fanlari nomzodi

TA’LIM TIZIMIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIY VA TASHKILIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada uzluksiz ta’lim tizimini boshqarishning zamonaviy nazariyalari qisqacha bayon qilingan. Korporativ boshqaruv tushunchasiga iqtisodiy nuqtayi-nazardan emas balki, ijtimoiy boshqaruv nazaridan, korporativ boshqaruvning keng ma’nodagi mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, uzlukiz ta’lim tizimida korporativ boshqaruvning asosiy vazifalari hamda korporativ boshqaruv tizimining tashkiliy modeli keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Korporativ boshqaruv, ta’limni boshqarish, korporativ menejment, muvofiqlashtirish, ta’lim sifati, iste’molchilar.

В статье освящен обширный теоритический и практический опыт в области управления непрерывным образованием, изложены современные теории в аспекте корпоративного управления. Обширно раскрыто понятие корпоративное управление не только с экономической, но и с социальной точки зрения. Также определены оснавные задачи корпоративного управления непрерывного образования, представлена организационная модель корпаративного управления.

Ключевые слова. Корпоративное управление, образование, корпоративный менеджмент, согласование, качество образование, потребители.

The article highlights the extensive theoretical and practical experience in the field of continuing education management, outlines modern theories in the aspect of corporate governance. The concept of corporate governance is widely disclosed not only from an economic, but also from a social point of view. The main tasks of the corporate governance of continuing education are also identified, the organizational model of corporate governance is presented.

Key words. Corporate governance, education management, corporate management, coordination, quality education, consumers.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanish davrida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan olamshumul o‘zgarishlar, keng qamrovli tub islohotlar, albatta, hayotning o‘zi taqozo qilgan u yoki bu muammolar va masalalar bilan to‘qnashadi. Bu – qonuniy va tabiiy rivojlanish jarayonidir. Shu bois, ta’limining barcha bosqichlaridagi boshqaruvchilarning vazifasi mazkur muammolarga o‘z vaqtida yechim topish orqali butun tizimning rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Ma’lumki, O‘zbekiston qadimiy tarixga ega. Ajdodlarimiz bizga minglab kishilar zakovatining mahsuli bo‘lgan san’at, fan, adabiyot namunalarini meros qilib qoldirganlar. O‘sha davrlarda yaratilgan olamshumul me’morchilik namunalari: mavzoleylar, obser-

vatoriyalar va boshqalar shu kungacha salobat bilan turibdi va kelajakda ham albatta saqlanib qoladi.

Bularning hammasi chuqur bilim, mehnatni maromida tashkil qilish, ish sifatini nazorat qilish, mahalliy sharoitlarni hisobga olish, yon-atrofdagilarga ta’sir ko‘rsatish, qisqasi biz boshqarish deb atagan jarayonlar bo‘lishini talab qilgan.

Bizga mashhur bobokalonlarimiz boshqarishga katta o‘rin berilgan tarixiy yodgorliklarni qoldirishlari tasodifiy emas. Abu Nasr Forobiy, Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy kabi ko‘pgina allomalarimiz tomonidan ming yillar oldin yozilgan asarlarda bugungi boshqaruvchilar uchun ham o‘z qadr-qiymatini yo‘qotmagan fikrlar, tamoyillar mavjud. Ularda boshqarish masalalariga obyektiv yondashish, aniq rejalashtirish, haqqoniylik tamoyillari bayon qilinadi, maqsadlarga qanday erishish kerakligi, qo‘l ostidagi odamlarga qanday talablar qo‘yilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar, boshqaruvchilarga esa maslahatlar keltiriladi.

Yoshlarni bag‘rikenglik, mehribonlik va o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalash xalq pedagogikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblangan.

Davlat mustaqilligiga erishilgandan so‘ng, evolyusion tarzda bozor munosabatlariga o‘tish va jahon hamjamiyatiga qo‘shilish davrida masala oydinlashib, ta’lim tizimida ham boshqa sohalardagi kabi boshqarishni tubdan o‘zgartirish, liberallashtirish, demokratlashtirish, boshqarishning yangi konsepsiyasini yaratish zarurligi aniq bo‘ldi.

Biz yashayotgan o‘zgarishlar davrida jamiyatimiz hayotida murakkab, lekin davr taqozo qilgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatda, iqtisodiyotda, umuman, hayotimizning barcha jabhalaridagi bunday olamshumul o‘zgarishlar amalga oshirilishi bizning o‘zimizning ham o‘zgarishimizni, ya’ni o‘zligimizni anglashimizni talab qiladi. Bu masala islohotlar davrida oldimizga qo‘yilgan vazifalarning eng murakkabi desak, adashmaymiz.

Davr taqozo qilgan bunday o‘ta murakkab vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarish uchun bizning avlodimiz oldida – yangi bilimlarni egallash va uni amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha bu bilimlarning eng muhim tarkibiy qismi boshqarish san’ati va fani ekanligini bildirmoqda.

Jahonda boshqarish fani va san’ati sohasida ulkan nazariy va amaliy tajriba to‘plangan. Biz, qisqa muddat ichida, demokratik mamlakatlarda o‘nlab yillar mobaynida vujudga kelgan g‘arbning boshqarish fanini faqat o‘rganib qolmay, balki uni tahlil qilib, fikrlab, undan biz uchun zarur bo‘lgan va muhitimizga mos keladiganini ajratib olishimiz zarur.

Ta’kidlash joizki, boshqarishning zamonaviy nazariyalari hayotning barcha muammolariga tayyor yechimlar bera olmaydi. Alohida ta’kidlash kerakki, tadqiqotlarimizda rivojlangan g‘arb va sharq mamlakatlari yutuqlari bilan hayratlanish davri o‘tib ketganligini, urushlar, turg‘unlik va inqirozlarni boshidan kechirgan holda bu mamlakatlarning olamshumul muvaffaqiyatlarga erishganligini, ularning tajribasini jiddiy o‘rganish hamda yechimlarni izlashga tanqidiy va konstruktiv yondashish davri kelganligini nazarda tutdik.

Taqdqiqotimizga turtki bo‘lgan g‘oyani ilgari surishda, asosiy diqqat-e’tiborimizni bir tomondan aynan ta’lim tizimini boshqarish uchun muhim bo‘lgan, ikkinchi tomondan uning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan manbalarga qaratishga harakat qildik.

Ta’lim muassasalari, qolaversa butun ta’lim tizimi rahbarlarida rahbarlik ko‘nikmalari, yo‘lboshchilik mahorati yetishmasligi yoki umuman yo‘qligi, boshqarish va ta’sir ko‘rsatishning zamonaviy uslublari hamda mexanizmlarini bilmasligi yoki ularni umuman rad etishi natijasida ko‘pgina muammolar yuzaga kelmoqda.

Yuqorida qayd qilinganidek, jahonda ko‘p sonli boshqarish nazariyalari va yondashuvlari ishlab chiqilgan. Bu nazariyalarni to‘g‘idan-to‘g‘ri, ko‘r-ko‘rona ko‘chirish va amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq emas.

Hozirgi kunda ta’lim muassasalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati va ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda ularning huquq va erkinliklarini kengaytirilgan, muvofiqlashtiruvchi, vasiylik va kuzatuv kengashlari tuzish orqali ta’lim muassasasida samarali jamoatchilik boshqaruvini – korporativ boshqaruvni qo‘llash o‘z samarasini berishi aniq.

O‘rganishlar natijasida aniqlandiki, hozirgi kungacha “korporativ boshqaruv” tushunchasining yagona talqini mavjud emas. Ilmiy adabiyotlarda korporativ boshqaruvning har xil jihatlari haqida gapirib o‘tilgan, ushbu tushunchani ochib berishga juda ko‘p harakatlar qilingan.

Biz o‘z izlanishlarimizda korporativ boshqaruv tushunchasiga iqtisodiy nuqtayi nazardan emas balki, ijtimoiy boshqaruv nazaridan qarashlarni ko‘rib chiqmoqchimiz. Ijtimoiy boshqaruv deganda, tartibga solish, sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolish, takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida jamiyatga ta’sir ko‘rsatish tushuniladi.

Korporativ boshqaruv – tushunib, anglab yetilgan boshqaruvdir, u muassasa ichida maxsus tashkillashtirilgan organ tomonidan amalga oshiriladi.

Shuning uchun korporativ boshqaruv – bu avvalambor, qonunlar asosida va qonunlar asosida ishlab chiqilgan muassasaning ichki hujjatlari asosida boshqaruv nazarda tutiladi.

Shu sababdan, tor ma’noda, korporativ boshqaruv – muassasani boshqarish – bu muassasaga tashkiliy tuzilma sifatida ta’sir ko‘rsatish, ushbu ta’sir maxsus tashkil etilgan, o‘z kompetensiyasi miqyosida faoliyat yurituvchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Keng ma’noda, korporativ boshqaruv – bu tashqi muhit bilan o‘zaro munosabat, aloqa, boshqaruv organlari va rahbarlar bilan munosabatlar tizimi, hamda ta’lim tizimiga bevosita va bilvosita aloqasi bo‘lgan tashkilotlar, shaxslar bilan munosabatlar yig‘indisi tushuniladi.

Ta’lim tizimida korporativ boshqaruvning keng ma’nodagi mohiyati – bu ta’lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohasiga qiziqishi bo‘lgan tomonlarning talab va ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblikni (balansni) izlash, amaliyotga tezkor joriy etish jarayonidir. Bu ta’lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohaga qiziqishi bo‘lgan ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqilgan ma’lum ma’nodagi standartlar, kodekslar (sifatlar, fazilatlar, talablar, me’yorlar va h.k.) asosida ta’minlanadi.


Ta’limda korporativ boshqaruv – bu ta’limni boshqarish organlari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o‘z-o‘zini boshqaruv organlari, huquq-tartibot organlari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini muvofiqlashtirib, ta’lim sifatini amaldagi qonunchilik, davlat ta’lim standartlari va xalqaro standartlar asosida ta’minlashdir *(1-rasm).*

Korporativ boshqaruvning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

● joriy va strategik boshqaruvni samaradorligini tahlil qilish mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish;

● ta’limni boshqarish organlari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o‘z-o‘zini boshqaruv organlari, huquq-tartibot organlari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini ustivor bilish, ularning huquq va mafaatlari buzilgan hollarda, ularning huquq va mafaatlarini himoya qilishning samarador usullaridan foydalanish;

● ta’lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohasiga qiziqishi bo‘lgan tomonlarning talab va ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblikni (balansni) ta’minlash.




1-rasm. Ta’limda korporativ boshqaruv tizimining tashkiliy modeli

Ko‘p hollarda korporativ boshqaruv deganda umumiy menejment yoki strategik boshqaruv va h.k. tushuniladi. Bizning fikrimizcha bu noto‘g‘ri. Avvalambor, korporativ menejment *(corporate management)* va korporativ boshqaruv *(corporate governance)* tushunchalarini alohida-alohida ko‘rib chiqish zarur. Shuningdek, ayrim mutaxassislar korporativ boshqaruvga an’anaviy menejmentni funksiyalarini kiritishadi ya’ni, rejalashtirish, tashkillashtirish, qiziqtirish va nazorat.

Korporativ menejment *(corporate management)* deganda, malakali mutaxassislarning biror-bir vazifani bajarish faoliyati tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, menejment vazifalarni bajarish mexanizmlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Korporativ boshqaruv *(corporate governance)* tushunchasi ancha keng: u ko‘pgina tashkilotlar va shaxslarning ta’lim-tarbiya sohasidagi hamkorlikdagi faoliyatini muvofiqlashtirilishini ta’minlaydi. Korporativ boshqaruv menedjmentdan, ko‘proq faoliyatni yuqori sifat darajasida bajarishiga qarab farqlanadi. Korporativ boshqaruv menejment bilan faqat rivojlanish strategiyasini ishlab chiqilishi bo‘yicha mos keladi.

Korporativ boshqaruv ta’limni boshqarish organlari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o‘z-o‘zini boshqaruv organlari, huquq-tartibot organlari, jamoat tashkilotlari va oilalarning belgilangan huquqiy, me’yoriy, iqtisodiy, tashkiliy mezonlar asosida birgalikda, hamkorlikda faoliyat yuritishlaridir.



2-rasm. Ta’limda korporativ boshqaruv texnologiyasi modeli

Shunday qilib, *ta'limda korporativ boshqaruv – ta'lim sohasi iste'molchilari manfaatlarini ta'minlab beruvchi eng asosiy vositadir.* Korporativ boshqaruv tizimini joriy etish nafaqat ayrim formal vazifalarni bajarishni balki, umuman boshqaruv tizimini mazmunini o'zgartirishni talab etadi.

Bizning fikimizcha, hozirgi kunda korporativ boshqaruv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy, hal qiluvchi omiliga aylandi. Korporativ boshqaruv tizimini amaliyotga joriy etish ta'lim muassasalari imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga va muassasadagi ma'lumotlar, holatlarning keng ochiq-oydinligiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Rasmiy nashr O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. 112 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. // 1-jild // – T.: O'zbekiston NMIU, 2017. 592 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Uza.uz. 25.01.2020.

4. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: "Voris-Nashriyot"., 2012. – 167 b.

5. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.

6. Мазур И.И., Шапиро В.Д. Управление качеством Учеб. Пособие // – М.: Омега-Л, 2005. –С.400.

Pardagul ERNAZAROVA,
Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani xalq ta’limi bo‘limi
psixolog metodisti

O‘QUVCHI-YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan. Muallif o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishdagi asosiy vazifalar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchilar, psixolog, kasb tanlash, kasb-hunarga yo‘naltirish, ajdodlar merosi, ijtimoiy hamkorlik, ta’lim tizimi.

В данной статье изложены педагогические и психологические аспекты профориентации для студентов. Автор предоставляет информацию об основных задачах профориентации для студентов.

Ключевые слова. Ученики, психологи, выбор профессии, профориентация, наследие предков, социальное партнерство, система образования.

This article outlines the pedagogical and psychological aspects of vocational guidance for students. The author provides information on the main objectives of vocational guidance for students.

Key words. Students, psychologist, career choices, career guidance, ancestral heritage, social partnership, education system.

Yoshlar bizning kelajagimiz, ular ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Yosh avlodni yangicha mustaqil va ijodiy fikrlaydigan tashabbus bilan faoliyat ko‘rsatadigan zamonaviy bilim kasb-hunarni puxta egallagan, taraqqiyot uchun ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir insonlar bo‘lib yetishishi asosiy vazifamiz hisoblanadi. Kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo‘lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o‘ziga xos murakkab, bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Kasb tanlash bu murakkab, lekin zaruriy jarayon bo‘lib, insonni kelajagini va yaxshi yashash imkoniyatlarini yaratuvchi, shuningdek, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, foydali mehnat qilish imkoniyatini yaratib beruvchi jarayondr. O‘quvchilar jamiyatda o‘z o‘rnilarini topishlari, kelajakda tanlagan kasblarida samarali faoliyat olib borishlari uchun yoshlikdanoq kasbiy qobiliyat va layoqatlarini aniqlab olishlari kerak. O‘qituvchi-pedagog, psixologlardan esa ularni kasbiy motivatsiyasini oshirib, kasbiy qiziqish va layoqatlarini tanlagan kasbiga

mos tushishini ta’minlashi hamda ularni bu borada to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishlari talab etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning ‘‘O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yilllarda yanada rivojlantirish bo‘yicha ‘‘Harakatlar strategiyasi’’to‘g‘risidagi farmonining Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari’’ bandida qayd etilganidek, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish’’dan iboratdir.

O‘quvchi-yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda umumta’lim muassasalari va ulardagi o‘quv-tarbiya jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi va undagi o‘quv tarbiya jarayoni yosh avlodni axloqiy, jismoniy va ruhiy jihatdan chiniqtirish bilan birga ularga kasbga yo‘naltiradigan maskan hisoblanadi.

Maktablarning yuqori sinflarida bu istak birmuncha barqarorlik va aniqlik kasb eta boshlaydi. Kuzatishlarimiz davomida o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar davomida shu narsa aniqlandiki, o‘quvchi-yoshlarga o‘zlari uchun mos kasb tanlashlarida ko‘maklashish bo‘yicha talaygina ishlar amalga oshirildi. Lekin ayrim ta’lim muassasalarida quyidagi kamchiliklar kuzatilayotganligini ta’kidlashimiz lozim:

– o‘quvchi-yoshlarga kasblar va ularning mohiyati haqida yetarli va to‘liq ma’lumotlar berilmayotganligi;

– umumta’lim muassasasi o‘quvchilariga ularning kelgusi hayotlari va tanlaydigan kasblari haqida yo‘l-yo‘riq berishda mahalliy sharoit ehtiyojlari to‘liq hisobga olinmayotganligi;

– o‘quvchi shaxsining u tanlagan kasbga layoqatliligini aniqlashdek muhim masala ham ko‘pincha e’tibordan chetda qolayotganligidan iborat.

O‘quvchi yoshlarning kasb tanlashga to‘g‘ri yo‘naltirish psixolog va pedagoglarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ma’lumki, kasb tanlash – ancha murakkab, uzoq kelajakka qaratilgan o‘quvchi-yoshlarning hayot mazmunini belgilashga yo‘naltirilgan ma’suliyatli ish hisoblanadi. Chunki, bu davrda o‘quvchi-yoshlarda ichki va tashqi omillar tufayli keskin kurashlar sodir bo‘ladi. Shuning uchun ota-onalar, o‘qituvchilar, umumta’lim maktablari psixologlari bu davrda ularga yordam berishlari bolalarning kelajakdagi ijtimoiy hayot yo‘lini to‘g‘ri tanlashlariga ko‘maklashishlari zarur. Bu borada umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan psixolog va pedagoglarga takliflar berish maqsadga muvofiqdir.

1. O‘quvchilarga kasblar haqida ma’lumot berish – bu borada quyidagi ikki holatni hisobga olish zarur bo‘ladi:

• o‘quvchilarni kasb turlari bilan to‘liq va aniq tanishtirish;

• ularga kasblarning mohiyati va ularning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yetarli tushunchalar berish.

O‘quvchilarni kasblar bilan tanishtirishga doir tadbirlarni o‘tkazishda umumta’lim muassasi jamoasini, ota-onalarni, kasbiy sohalarning ilg‘or mutaxassislarini taklif qilish, yoshlar ittifoqi tashkilotining faol yoshlarini chaqirish, ommaviy axborot vositalaridan unumli foydalanish ham yaxshi natijalar beradi.

2. O‘quvchilarning kasbga layoqatliligini aniqlash.

Psixolog mutaxassislarning ta’kidlashicha, jamiyatda umuman qobiliyatsiz inson bo‘lmaydi va har bir kishida nimagadir layoqat, qobiliyat mavjud. O‘quvchining kasbga layoqatliligini aniqlash deganda uning qaysi sohada ko‘proq qobiliyati borligini va qaysi ixtisoslikni egallasa ma’qul bo‘lishini, ya’ni kasb tanlashdagi tashqi (har bir kasb turining o‘ziga xos xususiyatlari va talablari) va ichki (shaxsning individual psixologik xususiyatlari) shartlarning o‘zaro muvofiqlik darajasini belgilash nazarda tutiladi. Chunki o‘ziga munosib kasbni topa olmasdan, o‘z kasbini tez-tez o‘zgartirib yuradigan, hayotda ham o‘z o‘rnini topa olmaydigan, qo‘nimsiz insonlar ham bor. Bu esa, shu kasbni tanlamoqchi bo‘lib yurgan haqiqiy layoqati bor o‘quvchi yoshlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun asosiy vazifa o‘quvch- yoshlarning o‘zlari tanlagan kasbga layoqatlilik darajasining mosligini iloji boricha to‘g‘ri aniqlashdan iboratdir.

Yoshlar tarbiyasi o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. Ta’limning yetakchi elementi maqsad hisoblanadi. Umumiy va bosh maqsadlar – o‘quvchi-yoshlarga bilim, malaka, ko‘nikmalarning jami o‘quvchilarning aqliy imkoniyatlarni ishga soluvchi maqsadlarni qo‘yadi.

Ko‘p yillik kuzatishlarimiz tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’limning asosiy maqsad va vazifalari quyidagi yo‘nalishlar orqali o‘quv-tarbiya jarayonining umumiy vazifalari doirasida shakllanadi:

– bilishga oid vazifa, uning ‘‘yo‘llari’’ quyidagilar hisoblanadi; bilimlar tizimi, maxsus ko‘nikma va malakalar tizimi, o‘quv-bilim faoliyatini amalga oshirish ko‘nikmalari, bunga o‘z-o‘zidan ta’lim olish ham kiradi;

– ta’lim-tarbiyani faqatgina bilim, malaka, ko‘nikmalarga erishgandagina yo‘naltirish to‘g‘ri deb tan olinishi mumkin, biroq so‘nggi kuzatishlarimiz davomida bu insoniy jihatdan qaraganda qattiq tanqidga uchramoqda;

– qadr-qimmatga oid vazifa bu tarbiya funksiyasi ‘‘yo‘llari’’quyidagilardan iborat;

– o‘quvchilar dunyoqarashi, qiziqishlari, baholash qobiliyatlari, ‘‘Men’’konsepsiyasi va o‘z-o‘zini to‘liq anglash asoslarini o‘rnatish, muammo qo‘yilishi, maktab o‘quvchisi shaxsining, uning istak, intilish, ehtiyoj, qiziqishlarining yo‘naltirilishi, shaxsiy tajriba, faoliyat, axloq-odob, muomala, munosabat, qayg‘urish, ishlarni amalga oshirish, yo‘l tutish va boshqa tajribalarni amalga oshirish;

– Ruhiy takomillashuv vazifasi, uning ‘‘yo‘llari’’da o‘quvchilarga intelektual doirada real yangicha ta’lim berish (ularning diqqati, ta’sirlanishi, fikrlashi, tasvirlashi, nutqi) ulardagi hissiy va iroda xususiyatlari kiradi;

– o‘quvchilarning ijodkorligini, ko‘makdoshligini rivojlantirish vazifasi;

– o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan, ularning sog‘lom turmush tarzini ta’minlashga tayyorgarlik olib boruvchi sog‘lomlashtirish vazifasi.

2. Bugungi globallashgan davrda biz o‘zimiz tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o‘quvchi-yoshlarimizning baxtu-saodatini, yetuk inson bo‘lib voyaga yetishini istar ekanmiz, ta’lim muassasalarida olib borayotgan ta’lim- tarbiyaviy ishlar o‘quvchi-yoshlarning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta’sir ko‘rsatish haqida doimo o‘ylashimiz, ushbu jiddiy va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifani ijobiy hal etishda hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishimiz zarur.

Bugungi kunda umumta’lim muassasalarining asosiy vazifasi o‘quvchi-yoshlar-

ga to‘g‘ri yo‘lni tanlashda yordam berish hisoblanadi. Maktab oiladan keyingi eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanib, u ijobiy ijtimoiy xulq qoidalarini o‘quvchi ongiga singdirib, o‘quvchining kasb tanlashida yetakchi vazifasini bajaradi. Davlatimiz kelajagi, millat taraqqiyoti bugungi yoshlarning bilimiga, onglilik darajasiga, saviyasiga, dunyoqarashiga, vatanparvarlik tuyg‘usini qanchalik darajada shakllanishiga bog‘liq. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda o‘quvchilarni psixologik-pedagogik tashxis qilish va kasb-hunarga yo‘naltirishni takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz.

– o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularni psixologik-pedagogik tashxis qilishning samarali metodlari va vositalarini aniqlash;

– yangi innovatsion metodlar va metodikalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq qilish;

– umumta’lim maktablari amaliyotchi psixologlarining tarkibini tahliliy ko‘rib chiqish, ularning malakasini muntazam oshirish;

– kasb-hunarga yo‘naltirishda boshqa ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash;

– maktablarda kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis xonalarini tashkil qilish va jihozlash.

Bundan tashqari, o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda quyidagi testlar va so‘rovnomalardan foydalanish zarur.

Siz yoqtirasizmi?

1. “Qiziqarli fizika”, “Fizikachilar hazili” kabi kitoblarni.

2. “Qiziqarli matematrika”, “Matematikaviy bo‘sh vaqtlar” kabi kitoblar o‘qishni.

3. Iqtisodiy geografiya, tashkilot faoliyatining iqtisodiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi bosmalarni, xo‘jalik sohalaridagi rivojlanishlarga qiziqishni.

4. “Yosh texnik”, “Yoshlar texnikasi” jurnallarini o‘qish, ilmiy-ommabop jurnallar yordamida radioelektronika, texnika sohasidagi yutuqlar bilan tanishishni.

5. Kimyo sohasidagi yangiliklar, buyuk kimyogarlarning hayoti va faoliyati haqida bilishni.

6. O‘simlik va hayvonlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishni.

7. Odamzot kasalliklar bilan kurashishni qanday qilib o‘rgangani, shifokorlar, tibbiyot sohasidagi yangiliklar to‘g‘risida xabardor bo‘lishni.

8. Geografik xarita va izohlar bo‘yicha turli davlatlar bilan tanishishni.

9. Tarixiy shaxslar va voqealar to‘g‘risidagi kitoblarni o‘qishni.

10. Dunyo adabiyotidagi klassik asarlarni o‘qishni.

11. San’atning rivojlanish tarixi bilan qiziqishni, opera, simfonik jaz musiqalarini tinglashni.

12. Maktab hayoti (tarbiyachi, o‘qituvchilarning ishi haqida) haqidagi kitoblar bilan tanishishni.

13. Oshpazlik, liboslar andozasini chizish, mebellarni loyihasini ishlab chiqish san’atiga qiziqish.

14. Urush va qurollar to‘g‘risidagi kitoblarni o‘qish.

15. Sportga oid gazeta, jurnallarni, sport va sportchilar to‘g‘risidagi kitoblarni mutolaa qilish.

16. Fizika borasidagi yangiliklar, buyuk fiziklarning hayoti va faoliyati to‘g‘risidagi

ilmiy-ommabop adabiyotlarga qiziqish.

17. Matematika borasidagi yangiliklar, buyuk matematiklarning hayoti va faoliyati to‘g‘risidagi ilmiy-ommabop adabiyotlarni ko‘zdan kechirish.

18. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, xo‘jalikning boshqa sohalari masalalarini o‘rganish, tashkilotlarni rejalashtirish va hisob-kitobini olib borish sohasidagi yutuqlarni o‘rganish.

19. Texnikaga oid ko‘rgazmalarda qatnashish yoki texnikaga oid yangiliklar dasturlarini eshitish (yoki qurish).

20. Tabiatda kimyoviy tajribalar o‘tkazishni, kimyoviy reaksiyalarni kuzatib borishni.

21. Botanika, zoologiya, biologiyani o‘rganish.

22. Odam organizmning tuzilish va ishlash xususiyatlari bilan tanishishni.

23. Foydali qazilmalarning yangi joylari to‘g‘risidagi tadqiqotlarni bilib yurishni.

24. Yurtimiz va chet ellarda sodir bo‘layotgan siyosiy hodisalarni muhokama qilishni.

25. Badiiy-tanqidiy maqolalarni o‘qishni.

26. Kinofilmlar, teatr postanovkalari, badiiy ko‘rgazmalarni muhokama qilishni.

27. Bolalar va o‘smirlarni tarbiyalash masalalarini muhokama qilishni, do‘stlar, sinfdoshlar, kichiklarning o‘z xulqini o‘zgartirish bo‘yicha yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi bilimlarni aniqlashni.

Jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bugungi zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonlarida eski an’anaviy uslublar bilan barkamol avlodni tarbiyalab bo‘lmaydi. Ta’limda yangi innovatsion texnologiyalardan yanada ko‘proq foydalanish, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining ma’naviy yetuk shaxs ekanligini isbotlab bera oladigan, o‘z qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsad va kasbga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash asosiy vazifamiz hisoblanadi. O‘quvchi yoshlarda bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, bo‘lajak kasb egalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim didaktik asos bo‘la oladi. O‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirish asosida ularda kasbiy qobiliyat shakllanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining shaxsiy imkoniyatlari, psixologik, intellektual va fiziologik xususiyatlariga tayangan holda ularni kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘naltirishda asosiy jihatlarni e’tiborga olish muhim vazifadir. Chunki kasbga yo‘naltirishda asosiy va natijaviy vazifa shundan iboratki, yosh avlodimiz, ya’ni umumta’lim muassasalari o‘quvchilarida kasb tushunchasini shakllantirib, o‘quvchi yoshlardagi moyillik va qiziqishni yuzaga chiqarib, imkoniyatlari qay darajada ekanligini aniq baholab, ayni vaqtdagi bajarayotgan ishi va tanlagan kasbi bilan bog‘liqlik jihatlarini, uning tayyorgarlik darajasini aniqlash, maktab amaliyotchi psixologlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, yolg‘izlik psixokorreksiyasini o‘z boshidan kechirayotgan, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchi yoshlar bilan ishlash, deviand xulq-atvorga ega bolalar bilan psixokorreksion mashg‘ulotlar olib borish, ularni faol o‘quvchi-yoshlar qatoriga olib chiqish, alohida rag‘batlantirish kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalardir.

O‘quvchilarni kasbga nisbatan qiziqishlarini rivojlantirish uchun maqbul shart-

sharoitlarni yaratishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

1. Kasb tanlashga oid ma'lumotlarni bilish uchun ta'lim shunday tashkil etilishi kerakki, bunda o'quvchi-yoshlar ma'lumotlarni o'rganishga nisbatan barcha imkoniyatlaridan foydalanadi hamda kasbga oid muammoli topshiriqlarni bajaradi.

2. Kasb-hunarlar haqidagi ma'lumotlar turli xil bo'lganidagina qiziqish ortadi. Ma'lumot va axborotlar bir xil bo'lganda zerikib qolishga olib keladi.

3. O'rganilayotgan kasbga qiziqishning yuzaga kelishi uchun ana shu kasb va uning alohida bo'limlari o'rganilishining zarurligi, muhimligi, maqsadga muvofiqligini tushunish nihoyatda zarur hisoblanadi.

4. Yangi kasblar haqidagi ma'lumotlar avval o'zlashtirilgan kasblar haqidagi bilimlar bilan qancha ko'p bog'liq bo'lsa, u o'quvchi yoshlar uchun shunchalik qiziqarli bo'ladi.

5. Unchalik qiyin bo'lmagan hamda oson bo'lmagan kasblar o'quvchi-yoshlarda qiziqish uyg'otmaydi. Kasb-hunarni egallash murakkab, ammo yetakchi o'rinda bo'lishi kerak.

6. O'quvchiga kasb haqida qancha ko'p ma'lumot berilsa, faoliyati baholansa, motivatsiya berilsa, unga kasb haqidagi ma'lumotlar bilan ishlash shunchalik qiziqarlidir.

Shuning bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali o'quvchilar kasb-hunarlar haqida to'liqroq ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Qachonki ular bu ma'lumotlardan to'g'ri foydalana olsalargina zamonaviy kasb-hunarlarni egallashlarida qiyinchiliklarga kamroq duch keladilar. Kasbga qiziqtirish, kasbga yo'llash va kasb o'rgatish jarayonlari – murakkab pedagogik tizim hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishi uchun o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borish muhim hisoblanadi. Ta'limda har bir fanni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi-yoshlarda shu fanning mohiyatini bilishga qiziqishini oshirish zarur.

Maktab amaliyotchi psixologi o'z ish faoliyatida o'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirishda pedagogik-psixologik tashxisga alohida o'rin ajratishi muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda psixolog maktab rahbariyati va ota-onalar, turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda har bir o'quvchining tanlagan kasbi bilan uning shaxsiy sifatlari orasidagi mutanosiblikni aniqlashi, shu bilan birgalikda quyidagi ishlarni amalga oshirishi zarur hisoblanadi:

• o'quvchilarga muntazam ravishda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi kasblar haqida ma'lumotlar berib borish;

• kasblarning demografik xususiyatlarini bayon qilish;

• o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi so'rovnomalar olish;

• o'quvchi-yoshlarning shaxsiy emotsional xarakter xususiyatlarini hisobga olgan holda kasblar bo'yicha qiziqishlarini shakllantirish;

• o'quvchlarga o'z kasbiy faoliyati natijasida hayotda munosib o'rin topgan mashhur shaxslar va ularning jamiyat va insoniyat oldidagi xizmatlari haqida ma'lumot berish;

• o'quvchilarga turli kasblarning jamiyatni rivojlantirishdagi o'rni haqida ma'lumotlar berish;

• ota-onalar bilan farzandlarini munosib kasbga yo'llash bo'yicha muntazam ra-

vishda suhbatlar o‘tkazish;

• o‘quvchilarga noto‘g‘ri kasb tanlashning salbiy oqibatlari haqida tushuntirish;

• o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘llash samaradorligini ta’minlash maqsadida umumta’lim muassasasida muayyan kasb turlari, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va muhimligi haqida alohida ko‘rgazmalar, anjumanlar, uchrashuvlar o‘tkazish va h.k.

Kasb-hunarga bo‘lgan e’tiqod barcha o‘quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Ayniqsa, texnologiya ta’lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e’tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, umumta’lim muassasalari o‘quvchi-yoshlarini kasb-hunarga samarali yo‘naltirish – ularga kelajakda munosib kasbning egasi bo‘lish, kelgusidagi o‘z kasblarini aniqlab olishga yordam ko‘rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik korreksion tizim hisoblanadi.

Yuqoridagi tadbirlarning amalga oshirilishi umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning keying ta’lim yo‘nalishlari bilan to‘liq qamrab olishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.

2. Umarova F. va boshqalar. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. (Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun o‘quv modullari) 1-modul.

–T., 2013. –12.

3. Rixsiyeva M. Psixologik treninglar va metodikalar to‘plami. – Jizzax. 2019-yil., 212,214,215,216,217.

Mirodil BARATOV,
yuridik fanlar doktori, professor

TA'LIM MUASSASALARI VA XO'JALIK (TADBIRKORLIK) YURITISH HUQUQI

Annotatsiya

Maqolada yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimida xo'jalik yuritish bilan bog'liq tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, muallif ta'lim muassasalarida mazkur faoliyatni samarali amalga oshirish bo'yicha o'z fkrlarini bayon etgan.

Kalit so'zlar. Xo'jalik (tadbirkorlik) yuritish huquqi, mulk, ko'chmas mulk, shartnomalar, davlat-xususiy sherikligi, uning shakllari, konsessiya, ko'chmas mulkni ijaraga berish.

В статье рассматриваются аспекты процедур, связанные с внедрением процедур управление хозяйственным деятельностью в системе образования в условиях обновляющегося Узбекистана. Также автор изложил свои мнение по эффективному осуществлению данной деятельности в образовательных учреждениях.

Ключевые слова. Хозяйственное (предпринимательское) право, собственность, недвижимость, договоры, государственно-частное партнерство, концессия, аренда недвижимости.

The article deals with aspects of procedures related to the implementation of procedures for managing economic activities in the education system in the conditions of an updating Uzbekistan. The author also presented his views on the effective implementation of this activity in educational institutions.

Keywords. Economic (business) law, property, real estate, contracts, public-private partnership, its forms, concession, rental of real estate.

Mamlakatimizda davlat mustaqilligining o'tgan uzoq yillari davomida xalq ta'limida muayyan tizim amal qilib keldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi asosida tizimning huquqiy negizlari shakllandi. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Hukumatining va Xalq ta'limi vazirining sohaga doir qator hujjatlari shular jumlasidandir.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "reja", "limit", "naryad" kabi resurslarni o'zida jamlagan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sarqitlari, "erishilgan muvaffaqiyatlarga mahliyo bo'lish", korrupsiya, qaysidir ma'noda "turg'unlik" kayfiyati, bir so'z bilan aytganda, eski stereotip bugungi shiddatli davr talablariga javob bermay qo'ydi. Endilikda davrning o'zi xalq ta'limi tizimining o'ziga xos bo'g'ini – maktab va uning jamoasi, xususan, maktab direktoridan zamonaviy, kreativ fikrlashni, tashabbuskorlikni, hamkorlar – turdosh muassasalar, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek , xorijiy hamkorlar bilan robitalarni aniq maqsadga, predmetga yo'naltirishni talab etmoqda. Bir so'z bilan aytganda, bugun maktab direktori tom ma'noda menejer bo'lishi lozim. U maktab joylashgan hudu-

dining egasi, boshqaruvchisi, homiysi va muhofazasini ta’minlashi lozim. Keng rakursda aytganda, bugungi kunda mavjud imkoniyatlarga asoslanish bu minimum daraja.

Ta’lim tizimida yuksak sifat samaradorligiga erishish butun jamiyat muammosi. Ertangi kun egalari, modomiki, bugun maktab partalarida ekan, ularni ochiq ko‘zli, siyosiy hushyor, vatanparvar, tadbirli, har bir jabhada o‘zining fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan inson qilib tarbiyalash, hech mubolag‘asiz, ta’lim xodimlari (maktab direktori, o‘qituvchisi va yordamchi personallar)dan yuksak bilim, kasbiy mahorat-malaka va kompetensiyani talab qiladi. Bu esa, tabiiyki, zanjirning bir tomonida bo‘lgan ushbu ijtimoiy qatlamning egallab turgan lavozimi va motivatsiyasiga uzviy bog‘liq. Toki, jamiyatda “o‘qituvchi” degan nom o‘zining munosib sharafiga, sha’niga ega bo‘lmas ekan, bunday holda, samarali natijaga erishib bo‘lmaydi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi[1] ijrosini ta’minlashga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2018-yil 5-sentabr, PF-5538-son) Farmoni[2], “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 5-sentabr, PQ-3931-son) Qarori[3] ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish hamda ular asosida pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini yanada takomillashtirishni talab etadi. Hujjatlarda qayd etilganidek, ushbu sohadagi moliya-xo‘jalik ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish, xalq ta’limi tizimi boshqaruvini tashkil etish davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirishda bir qator muammo va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi.

Xususan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotgani, rahbarlar, o‘qituvchilar va umumta’lim muassasalari boshqa xodimlarining kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlarining samarasizligi, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarni tekshirish haddan ziyod ko‘payib ketgani ularning asosiy funksional faoliyatidan chetga chiqishlariga sabab bo‘lib keldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish, xususan, rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof xo‘jalik-moliya mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan xalq ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish, bugungi kun mavzusidan kelib chiqib, ta’lim muassasasida moliya-xo‘jalik ta’minoti borasida huquqiy xabardorlik va uni amalda qo‘llay ola bilish ko‘nikmasini shakllantirish zarurati paydo bo‘ldi.

Xo‘sh, xo‘jalik (tadbirkorlik) yuritish huquqi o‘zi nima?

Avvalo, ushbu faslda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ayrim normalarining ayrim qismlari, xususan, *36-modda* (Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli...), *53-modda* (Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyoti-


[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son Farmoni (o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

[2] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018-yil, 06/18/5538/1840-son.


[3] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018-yil, 06/18/3931/1841-son.

ning negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi...), shuningdek *20-modda* (Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart) eslash lozim.

Darhaqiqat, har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bu o'rinda "shaxs" deganda, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (keyingi o'rinlarda – Fk)ga ko'ra[4], ham jismoniy shaxslar, ham yuridik shasxlarni tushunish lozim. O'z navbatida:



Tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar esa:



kabi turlarga bo'linadi.

Fuqarolik kodeksiga ko'ra, **muassasa** "boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilotdir". Muassasaning o'ziga biriktirib qo'yilgan va o'zi sotib olgan mol-mulkka bo'lgan huquqlari Fkning *"operativ boshqarish huquqi"*ga asoslanadi. Unga ko'ra, davlat muassasasi o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilab qo'yilgan doirada, o'z faoliyatining maqsadlariga (!), mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-

[4] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 2-songa ilova.

mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qilish[5], undan foydalanish[6] va uni tasarruf etish[7] huquqlarini amalga oshiradi.

Davlat muassasasiga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkning egasi ortiqcha, foydalanilmayotgan yoki noo‘rin foydalanilayotgan mol-mulkni olib qo‘yish hamda uni o‘zi xohlagan (!) tarzda tasarruf etishga haqli.

Qat’iy qoida shuki, muassasa mol-mulkini tasarruf etishda muassasa o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni va smeta bo‘yicha unga ajratilgan mablag‘larga sotib olingan mol-mulkni boshqa shaxsga berishga yoki o‘zgacha usul bilan tasarruf etishga haqli emas.

Ta’lim muassasasi – maktab o‘z maqomiga ko‘ra yuridik shaxsning muassasa turiga mansubdir. Muassasaga berilgan ta’rifning asosiy kontekstida, garchi “tijoratchilikdan iborat bo‘lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun” deyilgan bo‘lsa-da, keyingi o‘rinlarda qayd etilganidek, “ta’sis hujjatlariga muvofiq muassasaga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilgan bo‘lsa, bunday faoliyatdan olingan daromad va bu daromad hisobidan sotib olingan mol-mulk muassasaning mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda hisobga olinadi”. Ayni vaqtda muassasa o‘z majburiyatlari bo‘yicha ixtiyoridagi pul mablag‘lari bilan javob beradi. Bu mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, tegishli mol-mulkning egasi (hozirda maktablar asosan davlat muassasasi ekanini hisobga olsak, uning mulkdori davlat hisoblanadi. Davlat nomidan bunday o‘rinlarda moliya organlari qatnashadi, xususiy maktabda esa – uning mulkdori-muassisi) uning majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo‘ladi.

2018-yil 5-sentabrdagi PF–5538-son Farmonda qayd etilganidek, zarur tashkiliy-huquqiy va texnik-iqtisodiy sharoitlarni yaratish yo‘li bilan umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida nodavlat xizmatlarni ko‘rsatishga oid faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tarmog‘ini yanada rivojlantirish, ushbu sohaga davlat-xususiy sheriklikning turli shakllarini, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayoniga boshqaruvning yangi mexanizmlarini va sifat standartlarini joriy etish evaziga jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, umumta’lim muassasalarining moddiy-texnik holatini yaxshilash orqali xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish maqsad qilib olindi.

Ta’kidlanganidek, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta’minlash, ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirishda Xalq ta’limi vazirligining muvofiqlashtiruvchi roli va mas’uliyatini kuchaytirish, shuningdek, vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mazkur yo‘nalishdagi vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini aniq belgilash va tartibga solish lozim. Shuning uchun ham ushbu hujjatda umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlari va maktabdan tashqari ta’limga qo‘yiladigan davlat ta-

[5] *Egalik qilish* – mol-mulkni qo‘lda yoki biron joyda saqlab turish.

[6] *Foydalanish* – mol-mulkning iqtisodiy, foydali xususiyatini maqsadga muvofiq o‘zlashtirish. Maqsadga muvofiqlik u (mol-mulk) nima maqsadda yaralgan (yaratilgan) bo‘lsa, shu maqsadda foydalanishdir. Kitob – o‘qish, ilm olish uchun, koptok – sport tadbiri uchun, taom – yemoq uchun, avto – uzoqni yaqin, og‘irni yengil qilmoq uchun.

[7] *Tasarruf etish* – mol-mulkning yuridik taqdirini belgilash. Masalan, mulkni sotib yuborish, hadya qilish, ayirboshlash, meros qilib qoldirish, kelgusida sotib yuborish huquqi bilan ijaraga topshirish, hisobdan chiqarish (yo‘q qilib tashlash).

lablari umumiy o‘rta ta’limni moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobga olingan holda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri tomonidan tasdiqlanishi belgilandi.

2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son Qarorda belgilanganidek, **maqsad** – o‘qituvchi kasbining maqomi va obro‘sini oshirish, umumta’lim muassasalari, shuningdek, xalq ta’limi tizimi xodimlarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash, ularning samarali ishlashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratishdir. Bu degani ta’lim muassasasida xo‘jalik yuritishni, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish deganidir.

“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (2012-yil 2-may, O‘RQ–328-son) “tadbirkorlik faoliyati” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: *“Tadbirkorlik faoliyati* tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir”[8].

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) esa, belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir. Qonun belgilaydiki, davlat organlari (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyati subyektlari bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3- sentabrdagi “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 414-son Qarori bilan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash manbalarini:

- faoliyat turi bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan;
- byudjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga homiylik (beg‘araz) yordami berilishidan qo‘shimcha daromadlar olish hisobiga kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblanishi belgilangan.[9]

Mulk, ko‘chmas mulk xususida

O‘z-o‘zidan yuqoridagi masalalar mulk, ko‘chmas mulk tushunchalarining mazmun-mohiyatini bilishni talab etadi. *Mulk,* birinchidan, ashyoga nisbatan shaxsning egalik his-tuyg‘usi bilan bog‘liq munosabat, ikkinchidan, u yuzasidan kishilar o‘rtasidagi munosabatdir. Mulk o‘z egasida mulk huquqini vujudga keltiradi.

Mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir (Fuqarolik kodeksi, 164-modda).

Mulk daxlsizdir va u qonun bilan qo‘riqlanadi. Mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o‘zlarini saqlashlaridan iboratdir. Mulkdorning mol-mulkini olib qo‘yishga, uning huquqlarini cheklashga faqat

[8] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-yil, 18-son, 201-modda.

[9] O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to‘plami, 1999-yil, 9-son, 51-modda.

qonunlarda nazarda tutilgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasida mulkning: xususiy va ommaviy mulk shakllari mavjud. Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat mulk huquqining subyektlaridir.

Mol-mulk ko‘chmas mulk va ko‘char mulkka bo‘linadi.

Ko‘chmas mulk jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog‘langan boshqa mol-mulk, ya’ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o‘zgartirish mumkin bo‘lmaydigan obyektlar kiradi. Ko‘chmas mulk jumlasiga kirmaydigan mol-mulk ko‘char mulk hisoblanadi.

Ushbu qoidalarning barchasi ta’lim muassasasi – maktabga ham taalluqlidir. Maktab yuridik shaxs maqomiga ega. Maktab – mulkdor. Maktab davlat tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxs sifatida o‘z mol-mulkining mulkdoridir. U maktab ma’muriyatiga, yuqorida ta’kidlaganimizdek, operativ boshqaruv huquqi asosida berilgan.

Afsuski, uzoq yillar (aniqrog‘i, sobiq ittifoq mahali) mavjud jamiki mol-mulklarning 92 foizini davlat (umumxalq) mulki tashkil etgani, qolgan 8 foizi ham kolxoz (kooperativ) mulki bo‘lgani, amalda shaxsiy mulk[10] alohida mulk shakli sifatida e’tirof etilmagani hali yodimizda.

Bu o‘rinda so‘z ta’lim muassasasi mol-mulkiga nisbatan xuddi o‘zimniki-meniki, bizniki-o‘zimizniki tuyg‘usini shakllantirish ustida ketmoqda. Ushbu hududga, ushbu mol-mulkka shunday qarashni shakllantirmas ekanmiz, mol-mulk yana egasiz, xo‘jasiz qolaveradi. Bu o‘z-o‘zidan tashmachilik, o‘g‘irlik, talon-tarojga olib boraveradi.

Shartnomalar va ta’lim muassasalari xususida

Aynan yuqoridagi maqsadga erishish yo‘lida muqaddam uzoq davr amal qilgan – ma’muriy-buyruqbozlik resurslaridan batamom voz kechib, uni shartnomaviylik bilan to‘ldirish lozim.

Shartnoma – ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi (Fkning 353-moddasidan).

Shartnoma tuzish erkinligiga ko‘ra, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo‘l qo‘yilmaydi (shartnoma tuzish burchi Fkda, boshqa qonun yoki olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno). Taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin. Taraflar turli shartnomalarning elementlarini o‘z ichiga oladigan shartnoma (aralash shartnoma) tuzishlari mumkin. Aralash shartnoma bo‘yicha taraflarning munosabatlariga, agar taraflarning kelishuvidan yoki aralash shartnomaning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, elementlari aralash shartnomada bo‘lgan shartnomalar to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llaniladi.

Qonun hujjatlarida ko‘rsatib qo‘yilgan ayrim istisnolardan tashqari qolgan hollarda shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi.

Shartnomaning sharti taraflar kelishuvida boshqacha tartib belgilab qo‘yilmaganligi

[10] Xususiy mulk haqida so‘z bo‘lishi mumkin ham emasdi. O‘sha davrda amalda bo‘lgan Grajdanlik kodeksi o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, o‘z davrining mafkuraviy talablarini mustahkamlagan edi (106, 119-121-mm.).

tufayli qo‘llaniladigan norma (dispozitiv norma)da nazarda tutilgan hollarda taraflar o‘zaro kelishib, uning qo‘llanishini bekor qilishlari yoki unda nazarda tutilganidan boshqacha shartni belgilashlari mumkin. Bunday kelishuv bo‘lmaganda shartnomaning sharti dispozitiv norma bilan belgilanadi.

Agar shartnoma shartlari taraflar yoki dispozitiv norma bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, tegishli shartlar taraflar o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ish muomalasi odatlari[11] bilan belgilanadi. Ish muomalasi odatlari shunday holatki, deylik, Surxondaryoning Sherobod tumanidagi holat Denov tumanida yoki Farg‘onaning Marg‘ilon shahrida yoinki Toshkent shahrida takrorlanmaydi.

Qayd etilgan holatlar ta’lim muassasasi – maktabga ham uning rahbariyatiga ham tegishlidir.

Davlat-xususiy sherikligi, uning shakllari. Yuqorida qayd etganimizdek, bugun davrning o‘zi almisoqdan qolgan murvat (instrument, konstruksiya)lar o‘rniga modern shakllarni talab etmoqda. Boqimandalikni bugun hech kim kechirmaydi ham ko‘tarmaydi ham.

2018-yil 5-sentabrdagi PF–5538-son Farmonda xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish maqsadida xalq ta’limi tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida... zarur tashkiliy-huquqiy va texnik-iqtisodiy sharoitlarni yaratish yo‘li bilan umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida nodavlat xizmatlarni ko‘rsatishga oid faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tarmog‘ini yanada rivojlantirish, ushbu sohaga davlat-xususiy sheriklikning turli shakllarini samarali joriy etish belgilandi. 2018-yil 5-sentabrdagi PQ–3931-son Qarorda vazirlikning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta’lim xizmatlari nodavlat sektorini yanada rivojlantirish, xalq ta’limi sohasida davlat-xususiy sheriklik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish belgilandi.

Davlat-xususiy sheriklikning quyidagi *shakllari*ni joriy etish nazarda tutildi:

✓ nodavlat umumta’lim tashkilotlari binolarini qurish uchun beg‘araz asosda doimiy foydalanish uchun yer uchastkalarini berish;

✓ mavjud umumta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish va jihozlash sharti bilan nodavlat umumta’lim muassasalari obyektlarini qurish uchun yer uchastkalarini beg‘araz berish;

✓ yuklanganlik koeffitsienti past bo‘lgan yoxud rekonstruksiya qilish yoki ta’mirlashni (qayta jihozlashni) talab etadigan mavjud umumta’lim muassasalarini ijaraga berish;

✓ konsessiya[12] asosida qurilish uchun yer uchastkasi yoki rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun bino ajratish;

✓ bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini, shu jumladan faoliyat ko‘rsatmayotgan umumta’lim muassasalarining binolarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda “nol” xarid qiymatida sotish;

✓ xususiy sherikning mulki negizida tashkil etilgan nodavlat umumta’lim tashkilot-

[11] *Ish muomalasi odatlari* – tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo‘llaniladigan, qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi, biron-bir hujjatda yozilganligi yoki yozilmaganligidan qat’iy nazar, ish muomalasi odati deb hisoblanadi. Fuqarolik qonun hujjatlarida tegishli normalar bo‘lmagan taqdirda, bu munosabatlarni tartibga solishda mahalliy odat va an’analar qo‘llaniladi.

[12] *Konsessiya* – chet ellik investorga xo‘jalik faoliyatining muayyan turi bilan shug‘ullanish uchun davlat nomidan beriladigan ruxsatnoma. Faoliyatni amalga oshirish uchun davlat chet ellik investor (konsessor)ga konsessiya shartnomasi tuzish asosida mol-mulk, yer va yer osti uchastkalarini topshiradi. (O‘zbekiston Respublikasining “Konsessiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 9-son, 185-modda).

larini moddiy-texnik va moliyaviy ta’minlash.

Shuningdek, Qaror bilan:

– xalq ta’limi sohasida davlat-xususiy sheriklik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkinligi;

– davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuv Vazirlik tomonidan o‘tkaziladigan tanlov natijalari asosida tuzilishi, “xususiy sherikning mulki negizida tashkil etilgan nodavlat umumta’lim tashkilotlarini moddiy-texnik va moliyaviy ta’minlash” nazarda tutilgan holda tanlov o‘tkazilmasligi;

– xususiy sherik bilan davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuvni davlat tomonidan sherik sifatida Vazirlik tuzishi va xususiy sherik tomonidan kelishuv shartlarining bajarilishini monitoring qilishi;

– umumta’lim va maktabdan tashqari muassasalarning yer uchastkalari va ko‘chmas mulkini O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri bilan kelishmasdan begonalashtirish taqiqlanishi belgilandi.

Xususiy sherik zimmasiga davlat-xususiy sheriklik shaklidan kelib chiqqan holda investitsiya majburiyatlarining quyidagi turlari yuklanishi mumkin:

❖ ijtimoiy ko‘makka muhtoj oilalardan muayyan miqdordagi o‘quvchilarni imtiyozli ravishda o‘qitish;

❖ o‘ziga o‘tkazilayotgan umumta’lim muassasalarining mavjud o‘quvchilar kontingentini sifatli o‘qitishni ta’minlash;

❖ xususiy sherikka biriktirilgan umumta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish;

❖ bolalarni bolalar yozgi sog‘lomlashtirish oromgohlariga yuborish;

❖ o‘quvchilarni zamonaviy darsliklar, maktab formasi, anjomlar va boshqa maktab buyumlari bilan ta’minlash;

❖ davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuvda nazarda tutiladigan boshqa majburiyatlar.

Qarorga ko‘ra, davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi kelishuvlarning amal qilish muddatlari quyidagicha belgilandi:

– nodavlat umumta’lim muassasalari binolarini qurish uchun beg‘araz asosda doimiy foydalanish uchun yer uchastkalari berilganda – kamida 30 yil;

– mavjud umumta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish va jihozlash sharti bilan nodavlat umumta’lim muassasalari obyektlarini qurish uchun yer uchastkalari beg‘araz berilganda – kamida 20 yil;

– yuklanganlik koeffitsienti past bo‘lgan yoxud rekonstruksiya qilish yoki ta’mirlashni (qayta jihozlashni) talab etadigan mavjud umumta’lim muassasalari ijaraga berilganda – kamida 30 yil;

– konsessiya asosida qurilish uchun yer uchastkasi yoki rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun binolar berilganda – 15 yilgacha;

– bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari, shu jumladan faoliyat ko‘rsatmayotgan umumta’lim muassasalarining binolari “nol” xarid qiymatida sotilganda – kamida 30 yil;

– umumta’lim muassasalarining foydalanilmayotgan binolari (yoki ularning bir qis-

mi) xususiy sheriklarga maqsadli foydalanish uchun ijara to‘lovining “nol” stavkasi bilan ijaraga berilganda – 30 yilgacha;

– xususiy sherikning mulki negizida tashkil etilgan nodavlat umumta’lim tashkilotlari moddiy ta’minlanganda – kamida 10 yil.

Tadbirkorlik subyektlariga davlat-xususiy sheriklik shartlarida berilgan obyektlarda faoliyat boshlagan nodavlat umumta’lim tashkilotining kelishuvning amal qilish muddati davomida o‘z faoliyatini qayta ixtisoslashtirishi taqiqlanadi.

Ko‘chmas mulkni ijaraga berish. Qayd etilgan Farmon va Qarorlarda ta’lim muassasasiga tegishli mol-mulk ijarasi bilan bog‘liq normalar (ijara haqi, davlat ijara markazlari, ijara to‘lovining “nol” stavkasi, ijara haqini tasarruf etish kabi) belgilangan.

Mulk ijarasi shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi. (Fk, 535-modda).

Agar ushbu formatni ta’lim muassasasiga o‘girsak, ta’lim muassasasi – ijaraga beruvchi, xususiy sherik – ijaraga oluvchidir. *Egalik qilish, foydalanish*ning mohiyati xususida yuqorida ma’lumot berildi.

Qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmasa, ijaraga oluvchi ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish natijasida oladigan mahsulot, meva va boshqa daromadlar uning mulki hisoblanadi.

Mazkur masala davlat mulki obyektlaridan yanada samarali foydalanish maqsadi kun tartibiga qo‘yilayotgan bugungi kun va istiqbol uchun muhim bo‘lganidan uning ayrim jihatlariga qisqa-qisqa to‘xtalamiz.

Mulk ijarasining obyektlari. Qonunga ko‘ra, yer uchastkalari, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari va foydalanish jarayonida o‘zining tabiiy xususiyatlarini yo‘qotmaydigan boshqa ashyolar (ya’ni, iste’mol qilinmaydigan ashyolar) mulk ijarasiga berilishi mumkin.

Ijaraga beruvchi. Mol-mulkini ijaraga berish huquqi shu mol-mulk egasiga tegishlidir. Qonun yoki mulkdor tomonidan mol-mulkni ijaraga berish vakolati berilgan boshqa shaxslar ham ijaraga beruvchi bo‘lishlari mumkin. Qayd etilgan Farmon va Qarorga ko‘ra, bu o‘rinda ta’lim muassasasi ijaraga beruvchidir.

Shartnoma shakli. Mazkur shartnoma bir yildan ortiq muddatga mo‘ljallangan bo‘lsa, taraflardan birontasi yuridik shaxs bo‘lgan hollarda esa, muddatidan qat’i nazar, yozma shaklda tuzilishi shart. Ko‘chmas mulk ijarasi shartnomasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

Shartnomaning muddati. Mulk ijarasi shartnomasi shartnomada belgilangan muddatga tuziladi. Agar mulk ijarasining muddati shartnomada belgilanmagan bo‘lsa, shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi. Bunda taraflardan har biri boshqa tarafni bir oy oldin, ko‘chmas mulk ijarasida esa – uch oy oldin yozma ravishda ogohlantirib, istagan paytda shartnomadan voz kechishi mumkin. Qonun yoki shartnomada nomuayyan muddatga tuzilgan mulk ijarasi shartnomasini bekor qilish haqida oldindan ogohlantirishning boshqa muddatlari ham belgilab qo‘yilishi mumkin.

Qonunda mulk ijarasining ayrim turlari uchun, shuningdek, mol-mulkning ayrim

turlarini ijaraga olish uchun eng ko‘p (oxirgi) muddatlar belgilab qo‘yilishi mumkin. Bunday hollarda, basharti ijara muddati shartnomada belgilangan bo‘lmasa va qonunda belgilangan oxirgi muddat tugagunicha taraflardan hech qaysisi shartnomadan voz kechmasa, oxirgi muddat o‘tishi bilan shartnoma bekor bo‘ladi. Qonunda belgilangan oxirgi muddatdan ortiq muddatga tuzilgan bunday mulk ijarasi shartnomasi oxirgi muddatga teng muddatga tuzilgan hisoblanadi.

Ijaraga oluvchiga mol-mulkni topshirish. Ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga mol-mulkni shartnoma shartlari va mol-mulkning vazifasiga muvofiq holatda topshirmog‘i lozim. Mol-mulkni topshirishga tayyorlash, shu jumladan topshirish dalolatnomasini tuzish va imzolashga taqdim etish ijaraga beruvchining *burchi* bo‘lib, uning hisobidan amalga oshiriladi.

Ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish. Qat’iy tartib shuki, ijaraga oluvchi mol-mulkdan shartnoma shartlariga muvofiq, agar bunday shartlar shartnomada belgilanmasa – mol-mulkning vazifasiga muvofiq foydalanishi lozim. Agar ijaraga beruvchining yozma ogohlantirishiga qaramay, ijaraga oluvchi mol-mulkdan shartnoma shartlariga yoki mol-mulkning vazifasiga nomuvofiq foydalansa, ijaraga beruvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni va zararning qoplanishini talab qilishga haqli.

Ijaraga oluvchining ijaraga olingan mol-mulkni saqlash majburiyatlari. Qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, ijaraga oluvchi mol-mulkni yaxshi holda saqlashi, uni o‘z hisobidan joriy ta’mirlashi va saqlash bo‘yicha boshqa xarajatlarni qilishi lozim.

Ijaraga beruvchining talabi bo‘yicha mulk ijarasi shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish. Ijara shartnomasi ijaraga beruvchining talabi bilan sud tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin, agar ijaraga oluvchi:

- ijaraga beruvchining yozma ogohlantirishiga qaramasdan mol-mulkdan shartnoma shartlarini yoki mol-mulkning vazifalarini jiddiy ravishda buzgan yoxud bir necha marta buzgan holda foydalansa;
- mol-mulkni jiddiy yomonlashtirsa;
- shartnomada belgilangan to‘lov muddatini ketma-ket ikki martadan ortiq buzib, mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to‘lamasa;
- qonun hujjatlariga yoki shartnomaga muvofiq kapital ta’mirlash ishlarini bajarish ijaraga oluvchi zimmasidagi majburiyat bo‘lgan hollarda shartnomada belgilangan muddatlarda, shartnomada bunday muddat belgilangan bo‘lmasa, oqilona muddatlarda mol-mulkni kapital ta’mirlashni amalga oshirmasa.

Ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini yozma ravishda ogohlantirganidan va unga o‘z majburiyatlarini bajarish uchun imkoniyat berganidan keyingina shartnoma muddatidan oldin bekor qilinishini talab qilishga haqli.

Ijaraga oluvchining talabi bilan mulk ijarasi shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish. Ijaraga oluvchining talabi bilan mulk ijarasi shartnomasi sud tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin, agar:

- ijaraga beruvchi mol-mulkni foydalanish uchun ijaraga oluvchiga bermasa yoki mol-mulkdan shartnoma shartlariga yoxud mol-mulkning vazifasiga muvofiq foydalanishga to‘sqinlik qilsa;
- ijaraga oluvchiga topshirilgan mol-mulkda undan foydalanishga to‘sqinlik qiladigan kamchiliklar bo‘lib, ularni ijaraga beruvchi shartnoma tuzish vaqtida aytib o‘tmagan, ijaraga oluvchiga oldindan ma’lum bo‘lmagan va shartnoma tuzayotganda

mol-mulkni ko‘zdan kechirish yoxud uning sozligini tekshirish vaqtida aniqlanishi mumkin bo‘lmagan bo‘lsa;

- ijaraga beruvchi shartnomada belgilangan muddatlarda, agarda shartnomada muddat belgilangan bo‘lmasa, oqilona muddatlarda o‘z zimmasidagi mol-mulkni kapital ta’mirlash majburiyatini bajarmasa;
- ijaraga oluvchi javobgar bo‘lmagan holatlar tufayli mol-mulk foydalanishga yaroqsiz bo‘lib qolsa.

Yangi muddatga mulk ijarasi shartnomasi tuzishda ijaraga oluvchining imtiyozli huquqi. Qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajargan ijaraga oluvchi shartnoma muddati tugaganidan keyin yangi muddatga mulk ijarasi shartnomasini tuzishda sharoitlar teng bo‘lgan hollarda boshqa shaxslarga nisbatan imtiyozli huquqqa ega bo‘ladi. Ijaraga oluvchi ijaraga beruvchini mulk ijarasi shartnomasida belgilangan muddatda, agar shartnomada bunday muddat belgilangan bo‘lmasa, shartnomaning amal qilishi tamom bo‘lguncha oqilona muddatda bunday shartnomani tuzish istagi haqida yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

Ijara shartnomasini yangi muddatga tuzishda shartnoma shartlari taraflarning kelishuvi asosida o‘zgartirilishi mumkin.

Agar ijaraga beruvchi ijaraga oluvchi bilan yangi muddatga shartnoma tuzishni rad etsa-yu, ammo u bilan tuzilgan shartnoma muddati tugaganidan keyin bir yil ichida boshqa shaxs bilan mulk ijarasi shartnomasini tuzsa, ijaraga oluvchi o‘z xohishiga ko‘ra yo tuzilgan shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlar o‘ziga o‘tkazilishini va o‘zi bilan shartnomani yangilashni rad etish oqibatida o‘ziga yetkazilgan zararning to‘lanishini yoki faqat zararning o‘zi to‘lanishini sud orqali talab qilishga haqli.

Agar mulk ijarasi shartnomasining muddati tamom bo‘lganidan keyin ham ijaraga oluvchi mulkdan foydalanishni davom ettirsa va ijaraga beruvchi bunga e’tiroz bildirmagan bo‘lsa, shartnoma avvalgi shartlar asosida noma’lum muddatga qaytadan tuzilgan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–4947-son Farmoni (o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018-yil, 06/18/5538/1840-son.

3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.09.2018 yil, 06/18/3931/1841-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-yil, 18-son, 201-modda.

5. Xususiy mulk haqida so‘z bo‘lishi mumkin ham emasdi. O‘sha davrda amalda bo‘lgan Grajdanlik kodeksi o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, o‘z davrining mafkuraviy talablarini mustahkamlagan edi (106, 119-121-mm.).

Botir BAYMETOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
"Tasviriy san'at" kafedrasi professori
Xaytboy SULTANOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
"Tasviriy san'at" kafedrasi mudiri, dotsent

UZLUKSIZ TA'LIMDA "PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTER" TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqola "Pedagogik ta'lim innovatsion klaster" texnologiyalarini uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlariga tatbiq etish, "Maktab-laboratoriya" tajriba maydonlari faoliyatini takomillashtirish orqali umumta'lim maktablari va san'atga ixtisoslashgan maxsus maktablarda iqtidorli yoshlarni izlab topish, oliy ta'lim tizimiga maqsadli tayyorlash va kelajakda tasviriy san'at bo'yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Shuningdek, mualliflar mazkur tizimni amaliyotga samarali joriy qilishning bosqichlarini hamda uning natijalarini keltirib o'tishgan.

Kalit so'zlar. Xalq ta'limi, uzluksiz ta'lim, maktab-laboratoriya, innovatsion pedagogik ta'lim klasteri, tasviriy san'at, ilmiy pedagogik faoliyat, ustoz-shogird tizimi.

Статья посвящена вопросам внедрения технологий "Инновационный кластер педагогического образования" во все звенья непрерывного образования, совершенствования деятельности экспериментальных площадок "Школа-лаборатория" по поиску талантливой молодежи в общеобразовательных школах, специализирующихся на искусстве, целенаправленной подготовки к системе высшего образования и развития системы подготовки конкурентоспособных кадров по изобразительному искусству. Также авторы привели этапы и результаты эффективного внедрения данной системы в практику.

Ключевые слова. Народное образование, непрерывное образование, школа-лаборатория, инновационный педагогический кластер, изобразительное искусство, научно-педагогическая деятельность, система преподаватель-студент.

The article is devoted to the introduction of technologies ''Innovative cluster of pedagogical education'' in all levels of continuing education, improving the activities of experimental platforms ''School-laboratory'' to find talented teenagers in secondary schools specializing in art, targeted training for higher education and the development of a system of training competitive personnel in the visual arts. The author also presented the stages and results of effective implementation of this system in practice.

Key words. Public education, continuing education, a school laboratory, an innovative pedagogical cluster, visual arts, scientific and pedagogical activity, a teacher-student system.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, xususan oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan barcha mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar sifatini oshirishga, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga katta e’tibor berilmoqda.

“2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ham ta’lim sohasini tubdan takomillashtirishga e’tibor qaratilgan. Ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatda sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim turlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog‘liq umumiy jihatlar mavjud[1].

Darhaqiqat, keyingi yillarda uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda bir qancha sustkashliklarga yo‘l qo‘yildi. Maktabgacha, boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim tizimida o‘qitiladigan fanlarning uzviyligi va uzluksiligida kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Uzluksiz ta’limda o‘qitiladigan fanlarning bir-birini qaytarishi, fanlarning murakkablik darajasidan kelib chiqib tizimli ravishda o‘qitilmasligi yoshlarning bilim olishlariga to‘sqinlik qildi.

Oila va maktab hamkorligida yo‘lga qo‘yilgan sustlik natijasida farzandlarimizning kelajakda qaysi sohada faoliyat olib borishi, hayotda qanday kasb egasi bo‘lishidek ulug‘ maqsadlar amalga oshmay qoldi. Yaqin-yaqingacha o‘rta maktabni tamomlayotgan bitiruvchining kelajakda qaysi oliy o‘quv yurtiga kirib o‘qishi va qanday kasb egasi bo‘lishi ota-onaning katta muammosi edi. Hattoki, o‘n birinchi sinfni tugatayotgan bitiruvchi oliy o‘quv yurtiga hujjat topshiradigan oxirgi kunda ham qanday kasb egasi bo‘lishi mavhum qolgan.

Toshkent viloyati ta’lim tizimida mavjud kamchiliklarni o‘rganish va ularning tahlili shuni ko‘rsatdiki, pedagogik ta’lim yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish, istiqbolni rejalashtirish, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi aloqa va integratsiyaning sustligi, ta’lim subyektlari faoliyatidagi tarqoqlik, hududda pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning qondirilmasligi va ta’lim sifatining pasayishiga sabab bo‘lgan. Shundan kelib chiqqan holda institut Toshkent viloyatida pedagogik ta’lim innovatsion klasterini yaratish bilan bog‘liq yangi tizimni o‘zining ustuvor strategik yo‘nalishi sifatida belgilab oldi va shu tizim asosida muayyan ishlarni amalga oshirdi.[2]

Yuqori tezlikda muntazam o‘zgarib borayotgan hozirgi sharoitda bugungi kunda ta’lim tizimining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash o‘ta muhim vazifalardan hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida uzluksiz ta’lim tizimi uchun yuqori bilimlarga ega, pedagoglik kasbiga sidqidildan yondashadigan, ilmiy izlanishlar olib borishga moyil, o‘quv jarayoniga xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-metodik yangiliklarni joriy eta oladigan va ta’lim berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olishdek muhim sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan kreativ o‘qituvchilarni tayyorlash pedagogik innovatsion klasterning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

[2] G‘.I. Muhamedov. “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija” “Xalq so‘zi” gazetasi. 2019-yil 15-fevral.

ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.[3]

Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3152 sonli Qarori bilan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil etilishi ham aynan yuqoridagi masalalarni ijobiy hal etishga qaratilgan bo‘lib, mazkur institutga viloyatdagi maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining tarbiyachilari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, ayniqsa, aniq fanlar va chet tillari bo‘yicha o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylaridagi ta’lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan taminlash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli pedagog kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan.

Institutning tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan ta’lim tizimida innovatsion ta’lim klaster usulidan foydalanish bo‘yicha bugungi kunda institut jamoasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur vazifalardan kelib chiqib jamoa o‘zining yo‘nalishlari va rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Har bir fakultet, kafedralar miqyosida amaliy ishlarni olib borish yo‘l xaritasi tuzilib, ushbu vazifalarning ilmiy va amaliy muammolarini aniqlash, uning eng samarali yechimini topish hamda amaliyotga tatbiq etish maqsadida tadqiqot faoliyatini olib bormoqda. Xususan, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishning kunduzgi, sirtqi, kechki va maxsus sirtqi shakllarida ta’lim oluvchi talabalari kafedra professor-o‘qituvchilar rahbarligida o‘z faoliyatlarini o‘rta umumta’lim maktablarning ta’lim-tarbiya ish rejalari bilan bevosita bog‘liqlikda amalga oshirmoqda.

“Pedagogik ta’lim innovatsion klaster” – pedagogik ta’limga innovatsion yondashuvlarni shakllantirishda hamkorlik qiluvchi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ularning amaliy qo‘llanilishini ta’minlaydigan turli darajadagi ta’lim muassasalarining jamiyati. Uning tarkibiga kiruvchi ta’lim muassasalari Klaster doirasida shartnoma asosida o‘zaro hamkorlik qilish texnologiyasi. Bugungi kunda mazkur oliy ta’lim dargohida pedagogik ta’lim innovatsion klaster texnologiyalarini amaliyotga qo‘llash va raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu texnologiyaning asosiy maqsadi – bakalavr, magistrant va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan doktorantlarning ilmiy-metodik ishlanmalarini uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlariga tadqiq qilish hisoblanadi.

“Maktab-laboratoriya” tajriba maydonlari – umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, ta’limni rivojlantirish institutlari va boshqa ilmiy-uslubiy tuzilmalar bilan klaster subyekti sifatida ixtiyoriy ravishda hamkorlik qiluvchi muasssasa.

Umumta’lim maktablarda tashkil etilgan “maktab laboratoriya”larda iqtidorli yoshlarni izlash, ularni turli tanlovlarda qatnashishlarini ta’minlash va eng asosiysi kelajakda qanday kasb egasi bo‘lishini hozirdanoq tushungan holda mustaqil tanlashga yo‘naltirishdek muhim vazifalarni amalga oshirishdir. Buning uchun ta’lim mussasining

[3] “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.

pedogog rahbari, oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchisi va ota onalar bir tizimda harakat qilishlari lozim. Bu tizimning o‘zi ham alohida hamkorlik klasterini tashkil etishi kerak.

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri uzluksiz ta’lim tizimidagi barcha ta’lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligini ta’minlaydi. Hamkorlikda belgilangan vazifalar asosida uzluksiz ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkonini beradi.

Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o‘z tarkibiga kiruvchi ta’limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta’lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta’lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.[4]

Globallashuv va shiddat bilan o‘zgarayotgan zamonda ta’lim tizimiga innovatsion ta’lim texnologiyalari, xususan klaster usulini qo‘llab o‘qitish tizimini tashkil etishda quyidagi masalalarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, ikki tamonlama imzolangan shartnomalar asosida kafedra professor-o‘qituvchilarining umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta-maxsus kasb-hunar ta’limida tahsil olayotgan o‘quvchilar bilan tasviriy san’at xaqida suhbatlar tashkil etish va o‘quvchilarning iqtidorini e’tiborga olib kasbga yo‘naltirish.

Ikkinchidan, tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 1-3 kurs talabalarining pedagogogik amaliyotlarini umumta’lim maktablarida uzluksiz ravishda tashkil etish.

Uchinchidan, umumta’lim maktablari, oliy ta’limdagi tajribali pedagoglar, maktablarning fan o‘qituvchilari, metodistlar ishtirokida tasviriy san’atdan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, mashg‘ulot ishlanmalari, o‘quv-uslubiy majmualar va ko‘rgazmali didaktik materiallar majmuasini hamkorlikda yaratish.

To‘rtinchidan, maktabgacha va umumiy o‘rta umumiy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar bilan ijodiy suhbatlar, ko‘rgazmalar tashkil etish;

Beshinchidan, iqtidorli yoshlarni izlash va ularni tasviriy san’atga maqsadli tayyorlash uchun ota-ona-umumta’lim maktabi oliy ta’lim muassasasi hamkorligini tashkil etish.

Oltinchidan, umumta’lim maktablarning tasviriy san’at mashg‘ulotlarini o‘qitishni takomillashtirish muammolariga bag‘ishlangan mavzularda Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.

Yettinchidan, maktab o‘quvchilari uchun kafedrada tasviriy san’at turlaridan to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish. Alohida iqtidorga ega o‘quvchilar bilan individual ishlarni amalga oshirish, turli tanlovlarda qatnashtirish, oliy ta’lim tizimiga maqsadli tayyorlash.

Xulosa o‘rnida shularni aytish mumkinki, qadimdan sharqda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish masalalariga “ustoz-shogird” tizimi keng qo‘llanilgan. Bunda ta’lim yoki hunar o‘rganuvchi ustozga shogird tushib, ma’lum kasbni egallash, ilm olishda ustozdan namuna olgan. Tasviriy san’at sohasida pedagogik innovatsion ta’lim klasteri faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish ham qaysidir ma’noda mazkur yo‘nalishda ustoz-shogird tizimida faoliyat olib borishni ko‘zda tutadi hamda uzluksiz ta’lim tizimida quyidagi masalalarni hal etishda o‘zining quyidagi natijalarini beradi:

[4] G‘.I. Muhamedov. “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija” “Xalq so‘zi” gazetasi. 2019-yil 15-fevral.

➢ pedagogik innovatsion ta’lim klasteri faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish orqali umumta’lim maktablari va san’atga ixtisoslashgan maxsus maktablarda iqtidorli yoshlarni izlab topish, oliy ta’lim tizimiga maqsadli tayyorlash va kelajakda tasviriy san’atdan malakali pedagoglar, mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini ta’minlanadi;

➢ uzluksiz ta’lim mussasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarni kasbiy malakalarini oshirish va qayta tayyorlash maqsadida viloyat, tuman xalq ta’lim boshqarmalari bilan keng aloqa o‘rnatiladi;

➢ oliy ta’limda faoliyat olib borayotgan yosh o‘qituvchilarni uzluksiz ta’lim tizimida tasviriy san’atni o‘qitish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltiriladi;

➢ uzluksiz ta’lim uchun yangi avlod o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar, didaktik materiallar majmuasini yaratishda hamkorlik o‘rnatiladi;

➢ umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog metodistlarini ilmiy ishlarga jalb etiladi.

“Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri” yoshlarga tasviriy san’atdan ta’lim-tarbiya berishda “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalari ta’lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni amaliyotga joriy etilishining muhim shaklaridan biridir. Uzluksiz ta’lim tizimida samaradorlikni oshirish, umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim muassasalari va maxsus san’at maktablarida mavjud muammolarni bartaraf etishda oliy ta’limning ilmiy salohiyatidan keng foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

2. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.

3. Muhamedov G‘.I. “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija”. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019-yil, 15-fevral.

4. Muhamedov G‘.I. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ta’rif, tavsif, tasnif. (ilmiy risola). “Universitet”. Toshkent, 2019.

Sirojiddin TURG'UNBOYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
tayanch doktoranti

"IJTIMOIY MOSLASHUV" TUSHUNCHASINING MOHIYATI HAMDA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada xorijiy olimlarning asarlaridagi ijtimoiy moslashuv tushunchasi va mohiyati tahlili berilgan. Fan sohalarida ijtimoiy moslashuvning o'rni va roli tasvirlangan. Ijtimoiy moslashuv turlari, tuzulishi va funksiyalari haqida fikr mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, ijtimoiy moslashuv tushunchasi haqida muallifning umumiy xulosalari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy harakatchanlik, ijtimoiy normalar, moslashuv funksiyalari, moslashuv tuzilishi, ijtimoiy moslashuvning tasnifi.

В данной статье анализируются сущность и значение социальной адаптации в трудах зарубежных ученых. Описывается роль в науке. Обсуждены типы структур и функции социальной адаптации. Автор также приводит общие выводы о концепции социальной адаптации.

Ключевые слова. Социальная адаптация, социальная мобильность, социальные нормы, функции адаптации, структура адаптации, классификация социальной адаптации.

This article analyzes the essence and meaning of social adaptation in the works of foreign scientists. It describes the role of social adaptation in science. The types of structure and functions of social adaptation have been discussed. The author also provides general conclusions about the concept of social adaptation.

Key words. Social adaptation, social mobility, social norms, adaptation functions, adaptation structure, classification of social adaptation.

Insonning doimiy rivojlanish istagi tubdan o'zgarib turadigan ijtimoiy muhit moslashuvning doimiy manbaidir. Fan sohalarida ko'plab olimlar ijtimoiy moslashuv mazmunini tahlil qilishgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, olimlar tomonida ijtimoiy moslashuv tushunchasiga berilgan ta'riflar qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiradi.

Xususan, biologiyada moslashuv muammosi J. Buffon, Ch. Darvin, J.B. Lamarklar tomonidan ilmiy asoslangan. Ular bu tushunchani insoniyatning omon qolishi uchun asos deb ta'riflagan.

Faylasuflarning fikriga ko'ra, moslashish – tirik materiyaning mulkidir. Biroq, bu "organizm-atrof-muhit" tizimidagi moslashish qonuniyatlari "shaxs-atrof-muhit" munosabatlariga to'g'ridan-to'g'ri mos kelishini anglatmaydi. "Insonning ijtimoiy va biologik xususiyatlari o'zaro ta'sirlarda namoyon bo'ladi. Insonning biologik darajadagi moslashuvchan faoliyati ijtimoiy davrlarni boshdan kechiradi. Biologik moslashuvchan inson faoliyati hayvonlarning adaptiv xatti-harakatlaridan rang-barangligi, murakkabligi, ijti-

moiy yo‘nalishi va moddiy mahsulot ishlab chiqarish usuliga bog‘liqligi bilan farq qiladi”.

Y.A. Aleksandrovskiy, F.B. Berezin, V.G. Bushurov, A.G. Maklakov, I.I. Mamaychuk, A.A. Rean va boshqalar fikriga ko‘ra, moslashish tanadagi va atrof-muhit omillarini muvozanatlashda yordam beradi. Muvozanatlash jarayoni doimiy ravishda amalga oshiriladi, chunki tanaga ko‘plab atrof-muhit omillari va o‘ziga tegishli (uxlash holati, imtihon oldidagi hayajon va uni tushirish qobiliyati va boshqalar). Organizm va atrof-muhit statik emas, balki dinamik muvozanat sharoitida ularning nisbati doimiy ravishda o‘zgarib turadi va moslashish jarayoni doimiy ravishda amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, moslashish har qanday tirik organizmning mulki bo‘lib, ularning mavjudligini ta’minlaydi.

Moslashuvning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, P.K. Anoxin ularning barchasi foydali natijaga erishishga qaratilgan tizimdir, deb hisoblagan.

Shaxsning ijtimoiy moslashuvi muammosi sotsiologiyada markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Bu inson va ijtimoiy muhitning o‘zaro munosabatining asosiy va haligacha muhokama qilinadigan masalasidir. Ijtimoiy moslashishga qiziqish jamiyat rivojlanishining barcha davrlarida mavjud edi. Hozirgi tub ijtimoiy o‘zgarishlar vaqtida, uning mohiyati ijtimoiy munosabatlarning butun tizimini qayta qurish, shaxsning ijtimoiy moslashuvining dolzarbligi ayniqsa ravshan.

Ijtimoiy moslashuv jarayonini psixologik talqin qilishning o‘ziga xos xususiyati shaxsning individual muammolari, guruhdagi munosabatlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilishidir. Shu kabi ilmiy nazariyalar, A.N. Leontiyev, A.A. Nalchadzyan, A.V. Petrovskiy, V.A. Petrovskiylarning asarlarida aks etirilgan.

Shuningdek, Shustova, Natalya shaxsning ijtimoiy moslashuvini o‘rganish nazariy va amaliy xususiyatga ega ekanligini ta’kidlab, quyidagi xulosalarni bayon etadi:

1. Ijtimoiy moslashuv – bu shaxs va ijtimoiy muhitning universal aloqasi va o‘zaro ta’sirining tomonlaridan birini tavsiflovchi ijtimoiy jarayon. Ijtimoiy moslashuv jarayonida shaxsning amaldagi ehtiyojlari institutsional muhit doirasida qondiriladi. Ijtimoiy moslashuvning mohiyati shaxsning rivojlanishida yotadi. Bundan tashqari, moslashish manbai nafaqat ijtimoiy muhitda, balki shaxsning o‘zi, uning rivojlanish istagi bilan ham bog‘liq.

2. Ijtimoiy moslashuv ijtimoiy jarayon sifatida jamiyatni tashkil etish usuli bilan chambarchas bog‘liqdir. Moslashish jarayonining tabiati ko‘p jihatdan ijtimoiy dinamika bilan belgilanadi. Jamiyatning barqaror rivojlanish davridagi shaxsni moslashtirish inqirozga qaraganda boshqacha kechadi. Qadimgi qadriyatlar tizimining parchalanishi, anomiya holati, shuningdek, ijtimoiy tartibga solishning asosiy mexanizmlarining o‘zgarishi bilan tavsiflangan ijtimoiy inqiroz shaxsning moslashuvchan xatti-harakatlarining modellarida aks etadi. Ijtimoiy inqiroz sharoitida ehtiyojlarni qondirishning ijtimoiy ma’qullanmagan usullaridan foydalanish orqali ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish ehtimoli ortadi.

3. Ijtimoiy moslashish bu turli darajadagi jarayonlardan iborat bo‘lgan obyektiv mavjud bo‘lgan haqiqatdir: shaxsning moslashuvi va ijtimoiy guruhning moslashuvi. Shaxsning moslashishi ijtimoiy guruhning moslashuvining asosiy elementidir. Biroq, yuqori darajadagi tizimli darajalarga individual moslashish har doim ham bir xil emas. Shaxsiy moslashuvda shaxsning o‘ziga xos maqsadlari va ularni amalga oshirish birinchi o‘ringa chiqadi. Bundan tashqari, shaxsning maqsadlari mos kelishi, qarama-qarshi bo‘lishi yoki guruh maqsadlariga befarq bo‘lishi mumkin.

4. Moslashuv – bu shaxsning rivojlanishini ta’minlaydigan, haqiqiy ehtiyojlar darajasi va ularni qondirish darajasi o‘rtasidagi muvofiqlikni o‘rnatishning yaxlit, doimiy, dinamik, nisbatan barqaror ijtimoiy jarayoni. Moslashuv jarayonining yaxlitligi shaxsning yaxlitligi bilan ta’minlanadi, bu esa biron bir reja bilan shaxsning cheklanishini yo‘q qiladi.

Shaxs rivojlanishining cheksizligi bilan belgilanadigan moslashuvning uzlyuksizligi to‘liq va yakuniy moslashuvning mumkin emasligini ko‘rsatadi. Moslashish dinamikasi, ya’ni aktuallashtirish – qoniqish ehtiyojlarning oshishi moslashuv jarayonida o‘zgarishlar ro‘y berayotganligini ta’kidlaydi. Biroq, moslashuv ko‘rsatkichi qisqa vaqt ichida (kun yoki oy davomida) o‘zgarmaydi, bir necha oydan bir necha yilgacha bo‘lgan o‘zgarishlarni namoyon qiladi, ya’ni moslashuvning nisbiy barqarorligi qayd etiladi, bu insonning o‘rganishi bilan izohlanadi. Inson ma’lum bir ehtiyojni qondirishning turli usullaridan foydalanadi (ehtiyojni qondirishning muvaffaqiyatsiz urinishi yangi urinishlar bilan almashtiriladi). Surunkali norozilik holatida, moslashuv darajasining pasayishi kuzatiladi.

5. Ijtimoiy moslashuv tarkibi uchta tarkibiy qism bilan ifodalanadi: subyektlar, omillar va obyektlar. **Moslashuvning subyekti** – bu individualdir, moslashuvning boshqa subyektlarini (shaxslar, tashkilotlar va ijtimoiy institutlar) ajratish shartli, chunki ularni tashkil etuvchi (vakillik qiluvchi) barcha shaxslar uchun majburiy va umumiy ehtiyojlar to‘plami bilan belgilanmagan. **Moslashuv omillari** – bu moslashish indikatori qiymatini belgilaydigan shartlar. Ular ehtiyojlarning barcha tarkibini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, moslashuv omillari o‘zlarida muhim emas, faqat shaxsning haqiqiy ehtiyojlari kontekstida, ya’ni ularning ahamiyati mos keladigan ehtiyojni aktuallashtirish bilan belgilanadi. **Moslashuv obyekti** – moslashuvning faoliyat turlari, uning shartlari va natijalari, shuningdek, shaxs va shaxslarning umumiyligidir.

6. Ijtimoiy moslashishni o‘rganishda turli xil yondashuvlar individual va sotsiotsentrizmning qarshiligini kamaytirish mumkin. Individ sentrizmning yo‘nalishi – bu shaxsning ehtiyojlari va qiziqishlari. Ushbu yondashuv doirasida, moslashtirish bu amalga oshirish usulidan qat’i nazar, shaxsning haqiqiy ehtiyojlarini qondirishdir. Sotsiotsentrizm uchun boshlang‘ich nuqta ijtimoiy normadir. Shunga ko‘ra, ijtimoiy moslashuv – bu ijtimoiy normalar va qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligidir.

7. Ijtimoiy moslashishni o‘rganishda u yoki bu uslubiy yondashuvni tanlash moslashuv mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlash bilan bog‘liq. Moslashuv mavjudligi yoki yo‘qligi to‘g‘risida xulosa qilishga imkon beradigan moslashtirish mezoni moslashuvning mohiyatini aks ettirishi kerak. Bundan tashqari, u bitta bo‘lishi kerak. Bu moslashishni aniqlashda noaniqlikdan qochadi. Bizning fikrimizcha, bu insoniyatning rivojlanishi bilan bog‘liq. Moslashuv ko‘rsatkichlari aniq, qisqa va empirik tadqiqotlar o‘tkazish uchun qulay bo‘lishi kerak. Muammo ushbu ko‘rsatkichlarni – haqiqiy ehtiyojlarni qondirish ko‘rsatkichlarini ajratib ko‘rsatish orqali hal qilinadi.

8. Shaxsning ijtimoiy moslashuvi uning ma’lum bir ijtimoiy va kasbiy guruhga mansubligi bilan bog‘liq.

Ijtimoiy moslashuv – shaxsning ijtimoiy guruhga yoki u uchun yangi bo‘lgan ijtimoiy muhitga moslashish, rivojlanish jarayoni. Zamonaviy ijtimoiy moslashuv holatida shunday ijtimoiy jarayon tushuniladi, bunda shaxs, ijtimoiy guruh ham, ijtimoiy muhit ham ijtimoiy moslashish jarayonida bir-biriga faol ta’sir ko‘rsatadi.

Jamiyatdagi moslashish jarayonlarining intensivligi ko‘p jihatdan uning rivojlanishining qaysi bosqichidan o‘tayotganiga bog‘liq. Ijtimoiy moslashuv jarayonlari ma’lum intensivlikka ega bo‘lib, jamiyatning deyarli barcha qatlamlarini qamrab oladi.

Bundan tashqari, shuni ta’kidlash kerakki, ijtimoiy rivojlanish tezlashgani sayin, umuman jamiyatda moslashish jarayonlarining intensivligi oshadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy moslashuv jarayonlari, hatto rivojlanayotgan jamiyatda ham deyarli uzluksiz bo‘lib, o‘zgarishlarga moslashish qobiliyati nafaqat yosh, balki katta avlod uchun ham hayotiy muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zgarishga tayyorlik inson hayotidagi muvaffaqiyatning asosiy shartlaridan biriga aylanadi.

Natijada zamonaviy jamiyatda davlat va jamoat tashkilotlarining maqsadli faoliyati, ta’lim va amaliy fanning ijtimoiy moslashuv jarayonlarini amalga oshirishdagi roli sezilarli darajada oshdi.

Shaxs tomonidan psixofiziologik xususiyatlar, shuningdek, shaxsning ijtimoiy-demografik xususiyatlari ishlab chiqarishni moslashtirish muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. Albatta, shaxsning kasbiy tayyorgarligi va guruhda ishlash qobiliyati ishlab chiqarishni muvaffaqiyatli moslashtirish uchun juda muhimdir.

Ijtimoiy moslashuvning muhim jihati bu individual ijtimoiy rolni qabul qilishdir. Ijtimoiy moslashuvning samaradorligi ko‘p jihatdan shaxsning o‘zini va uning ijtimoiy aloqalarini qay darajada idrok etishiga bog‘liq. Ijtimoiy moslashuvning ekstremal ifodasi bu autizmdir.

Muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari bu odamning ushbu muhitdagi yuqori ijtimoiy holati, shuningdek, uning ushbu muhitga bo‘lgan psixologik mamnunligi va uning eng muhim elementlari (masalan, mehnat va uning sharoitlari, uning mazmuni, mehnatga haq to‘lash). Ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyati shaxsning ham, atrof-muhitning xususiyatlariga ham bog‘liq.

1936-yilda kanadalik fiziolog G. Sele “stress” va “moslashish sindromi” tushunchalarini kiritdi. Insonning normal hayoti ma’lum darajada jismoniy va ruhiy stressiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Insonda ma’lum bir keskinlik ohangi bor. Har bir inson o‘zini o‘zi o‘rganishi va u qaysi kasbni tanlashidan qat’iy nazar, o‘zini eng qulay deb biladigan keskinlik darajasini topishi kerak. Aks holda, befarqlik paydo bo‘lishi mumkin.

V.I. Dobrenko faqatgina inson o‘zgaruvchan sharoit va sharoitlarda o‘z xatti-harakatlarini o‘zgartirish qobiliyatiga ega ekanligini hamda “ijtimoiy moslashuv” tushunchasining mazmunini aniqlashning kaliti to‘g‘ridan-to‘g‘ri moslashish jarayonining mohiyatidir deb ta’riflaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy moslashuvning yetakchi yo‘nalishi shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatidan iborat bo‘lib, ular atrof-muhitning o‘ziga, shuningdek, shaxs hayotiy faoliyatining asosiy shakllariga o‘zaro bog‘liqdir. Ijtimoiy moslashuv sharoitlarga bo‘ysunishni anglatmaydi, balki maqsadga erishishni, ya’ni harakatchanlikni, o‘zgarishga qodirligini anglatadi.

Zamonaviy pedagogik kontekstda ijtimoiy moslashish deganda inson va uning atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirish, ular o‘rtasidagi muqarrar qarama-qarshiliklarni yumshatish tushuniladi va aynan shu yerda shaxsning ijtimoiylashishi, tarbiyasi va o‘zini-o‘zi rivojlantirishining muhim natijasi namoyon bo‘ladi.

Insonning shaxs sifatida tan olinishi, uning ijtimoiy hayotda shaxslar bilan o‘zaro munosabatga kirishishi bilan bog‘liq. Ijtimoiy moslashuv faoliyat turlariga qarab uch turga ajiratiladi – ishlab chiqarish jarayoniga moslashish, maishiy hayotga moslashish va insonlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilishi.

Shaxs ijtimoiy moslashuvining asosiy tarkibiy qismi samarali mehnat faoliyati, mustaqil bo‘lishi hamda undagi tashabbuskorlik xususiyatlarini shakllanganligidir. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, faol moslashuvda kasbiy bilim va ko‘nikmalar darajasi, shaxsni rivojlantirish qobiliyati, mavjud tajribaga moslashish va malaka oshirish muhim rol o‘naydi. Jamiyatning, mehnat jamoasining ta’siri, odamga ijtimoiy va ishlab chiqarish munosabatlari tizimida o‘z o‘rnini topishga yordam berish istagi muhim ahamiyatga ega.

S.I. Kapitsa ijtimoiy moslashuv boy tarkibga ega bo‘lib, u ong va xatti-harakatlar darajasida o‘z ifodasini topadi deb ta’kidlaydi. Ong darajasida haqiqat sezgir va aqliy tasvirlar ko‘rinishida aks etadi, uning jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va predmet tomonidan qabul qilingan qadriyatlarga yo‘naltirilganligi namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy mos-

lashuv o‘zining eng umumiy ko‘rinishida bu o‘z qobiliyatlarini baholash, kutish dinamikasi va ularni qondirish imkoniyatlari bilan bog‘liq. Xulq-atvor darajasida ijtimoiy moslashuv o‘zini xulq-atvorni oldindan belgilangan maqsad va shaxs tomonidan mustaqil qaror qabul qilish orqali tartibga solish sifatida namoyon bo‘lishini qayd etadi.

Shuningdek, ijtimoiy moslashuv tushunchasiga oid bir qator xulosalarini keltirib o‘tadi. Ya’ni:

• ijtimoiy moslashuv – bu yuqori darajada uyushgan, doimiy rivojlanayotgan ikkita tizim: ijtimoiy muhit va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradigan hodisa. Uning mohiyati moslashuv jarayonida barcha subyektlarining ehtiyojlari va talablari qondiriladi;

• ijtimoiy moslashuv – bu shaxsning ham ijtimoiy muhitning ham maqsadlari, motivlari va xususiyatlariga mos keladigan, shuningdek, insonning ushbu muhitda o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun shakllantiradigan belgilar tizimidir;

• ijtimoiy moslashuvning harakatlantiruvchi kuchi bu ongli ravishda yoki ongsiz ravishda, o‘z xatti-harakatlarini oqilona yoki hissiy jihatdan modellashtiradigan, insoniyatning ham, atrof-muhitning ham rivojlanishiga hissa qo‘shadigan kishi. Ijtimoiy rol o‘z funksiyalarini amalga oshirib, progressiv rol o‘ynaydi. Ularning asosiylari, ijtimoiy harakatchanlik mexanizmlarini shakllantirish funksiyasidir. Shunday qilib, ijtimoiy moslashuvning mazmuni, bu shaxs yoki guruh va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi yaxlit, dinamik, uzlyuksiz, nisbatan barqaror o‘zaro ta’sir jarayonidir, bunda odamlarning o‘zgaruvchan vaziyatda ongli ravishda harakat qilish, munosib xulq modellarini ishlab chiqish, oqilona foydalanish qobiliyatlari shakllanadi.

Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning yangi ijtimoiy sharoitlarga faol moslashuvi jarayonlari tushuniladi. Ijtimoiy moslashuv insonning muayyan funksiyalarni bajarish qobiliyatini aks ettiradigan holat ko‘rsatkichi bilan tavsiflanadi. Ushbu turdagi moslashuvning asosi bu tarkibga kiradigan shaxslar guruhining umumiy maqsadlari va qadriyatlari, shuningdek, ushbu madaniyatning qoidalari va urf-odatlarini tushunish, guruh a’zolariga xos bo‘lgan xulq-atvor qoidalarini qo‘llashdir. Ijtimoiy moslashuv jarayonida nafaqat tashqi sharoitlarga moslashish, balki shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlarini qondirish ham mavjud. Notanish ijtimoiy muhitga kirish, inson uning bir qismiga aylanadi va o‘zini o‘zi anglash va shaxsiyatining rivojlanishi sodir bo‘ladi. Ijtimoiy moslashuv jarayonida inson turli xil ijtimoiy vositalardan foydalangan holda o‘zgaruvchan muhitga moslashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Капица С.И. Понятие социальной адаптации в социологии / С.И.Капица // Вестник Чувашского Университета. – 2009. - №4. – С. 204-209

2. Мамайчук И.И. Психокоррекционные технологии для детей с проблемами в развитии. – СПб.: Речь, 2006. – С.400.

3. Морозов В.В. Противоречивость социализации и воспитания молодежи в условиях реформ. Социально-политический журнал. 2002. №1.

4. Овчарова Р.В. Практическая психология образования. – М. 2003.

5. Павленок П.Д. Теория, история и методика соц. работы. – М., 2004.

6. Перов И.М. Неформальные молодежные объединения. Социально-гуманитарные знания. – 2002. – №5. – С.18–35.

7. Социальная педагогика: Учебно-методический комплекс. – Оренбург: ОГППК, 2008. Горшенина Н.В.

Feruza EXSONOVA,
Andijon davlat unversiteti ‘‘Umumiy pedagogika’’ kafedra doktoranti

INNOVATSION YONDASHISH ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish masalalriga qaratilgan. Muallif, shaxsning an’anaviy fikrlashdan farqli ravishda ma’lum xatti-harakat, faoliyat yoki jarayon samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha o‘z tavsiyalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Kreativlik, intuitsiya, Innovatsiya, innovator, vizualizatsiya, kreativ fikrlash, mantiqiy fikrlash.

Статья посвящена вопросам развития креативного мышления учащихся начальных классов. Автор, в отличие от традиционного мышления человека, дал свои рекомендации по созданию новых идей, которые служат обеспечению определенного поведения, эффективности процесса, а также формированию навыков подготовки к позитивному решению существующих проблем.

Ключевые слова. Креативность, интуиция, инновации, новаторство, визуализация, креативное мышление, логическое мышление.

The article is devoted to the development of creative thinking of primary school students. The author, in contrast to traditional human thinking, gave his recommendations for creating new ideas that serve to ensure a certain behavior, the effectiveness of the process and the formation of skills to prepare for a positive solution to existing problems.

Key words. Creativity, intuition, innovation, innovator, visualization, creative thinking, logical thinking.

Innovatsion g‘oyalar ziyraklik, o‘tkir zakovat natijasida yoki mutlaqo tasodifiy paydo bo‘lishi mumkin. Ba’zan bir g‘oya boshqa bir g‘oya bilan qo‘shilib, intuitsiyani “uyg‘otishi” natijasida yangi narsa paydo bo‘ladi. Innovatsiya boshqalar bilan hamkorlik qilishda yoki inson o‘zining hayollari bilan yolg‘iz qolganda hosil bo‘lishi mumkin. Ilhom har kungi manba’lar, his-tuyg‘ular va qiziqishlardan kelishi yoki ong ostida paydo bo‘lishi mumkin. Ko‘plab innovatsiyalar muammolarni hal etish, rivojlantirish, tadqiqotlar olib borishning natijasidir; ba’zilari esa yaratib bo‘lingan innovatsiyalarning biri bilan qo‘shilishi natijasida yuzaga keladi. Vagner innovatorlardan intervyu olgan va ularning barida bir o‘xshashlikni topgan: ular o‘z g‘oyalarani vizualizatsiya, ya’ni ularni hayolan ko‘rganlar va o‘z maqsadlariga yetishishda ulardan samarli foydalanish yo‘llarini izlaganlar.

Govindarajanga ko‘ra, innovatsiya kreativlikni “chala” qolib ketishini oldini oladi. Vaholanki, kreativ fikrlovchilar samarali, yaxshi natija beruvchi g‘oyalarni o‘ylab topadilar va hattoki ba’zilari “agar harakat qilmasam, g‘oyalarim sahrodagi giyoh kabi so‘lib qoladi va jamiyatga keraksiz bo‘lib qoladi” degan fikrda bo‘ladilar. Kreativlik bizni ajoyib g‘oyalar o‘ylab topishga undaydi; innovatsiya esa ularni tatbiq etishga undaydi. Robinson innovatsiyaga shunday ta’rif beradi: “Innovatsiya tatbiq etilgan kreativlikdir”. Tasavvur, kreativlik va innovatsiya o‘zaro bog‘liqdir. Tasavvur innovatsiyani hosil qiladi. Kreativlik yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga yordam beradi. Innovatsiya g‘oyalarni o‘ylab topish va ularni amalda qo‘llash imkonini beradi. Robinsonga ko‘ra, “Innovatsiya original g‘oyalarni amalda tatbiq etish jarayonidir”.

Ko‘p hollarda innovatsiya kreativ darslarda muammoga asoslangan ta’limning bir qismi sifatida yuzaga keladi. O‘quvchilar berilgan ssenariyga ko‘ra muammo va tahminlarni aniqlaydilar, tadqiqot olib boradilar va innovatsion yechim topadilar. Bu innovatsiyaning ko‘rinishidir: u maqsadga xizmat qiladi, yuzaga kelgan ehtiyojni qondiradi va yechimga olib boradi. Kreativlikda o‘quvchilar tajribasini oshirish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

❖ Ehtiyoj nima? Mazkur vaziyatda muammo va tahmin nima?

❖ Yangilikning yangililigi nimadan iborat? Siz taklif qilgan innovatsiyani tatbiq etishga arziydimi? Sizning g‘oyangiz va takliflaringiz avval tatbiq etilgan g‘oyalardan nimasi bilan farq qiladi?

❖ Yechim nima? Nima uchun siz taklif qilgan g‘oya muammoning yechimi deb o‘ylaysiz?

❖ Muammo nima? Siz g‘oyangizni tatbiq qilishingizda qanday muammolar yuzaga kelishi mumkin va ularni qanday bartaraf etasiz?

O‘quvchilarga g‘oya amalga oshishi omillarini anglashda yordam berish uchun o‘qituvchilar innovatsion jarayonni ishlab chiqadilar. Qancha ko‘p o‘quvchi innovatsiya haqida gapirsa, boshqalarning innovatsion g‘oyalarini tahlil qilsa va jarayonni muhokama qilsa, o‘zlarini shuncha erkin his etadi.

Innovatsiya qiziquvchanlikdan boshlanib, amalda ish bidan yakunlanadi. O‘quvchilar o‘zlari tuzgan savollari asosida javoblar va yechimlar topishda tadqiqot olib borish kerak. O‘quvchilarning bir qismi kreativ jarayonni aqliy hujum va savollar asosida o‘rgansalar, demak ulardan bir qator g‘oyalarni topish va ularni o‘rganish qobiliyatiga egalar. Erkin va moslashuvchan fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan o‘quvchilar ko‘p hollarda asos qurmay turib, innovatsiyani yaratishni xohlaydi. O‘qituvchi har bir bosqichda ba’zi elementlarini qo‘llaganligini aks ettiradi. O‘qituvchilar sinfda har qanday elementdan foydalana bilishlari lozim; ba’zi o‘quvchilari nimalar yashash uchun kurashda qo‘l kelishini aniqlaydi.

O‘qituvchilar kreativ darslarda innovatsiyani quyidagi yo‘llar bilan rivojlantirishi mumkin:

❖ ***O‘quvchilarni innovatsiya uchun joy bilan ta’minlang.*** Sinfda o‘quvchilar yakka tartibda yoki kichik guruhlarda ishlari va g‘oyalar bilan almashishlari uchun ijodkorlik muhitini yarating.

❖ ***Innovatsiyani majburiy mezonga aylantiring.*** Natija aniq bo‘lishi uchun maqsadni aniq qo‘ying. Innovatsion yondashuvni o‘quvchilarning har kungi hayotlariga olib kirish uchun ulardan, masalan, sinfda shovqindan qutilish muammosining innovatsi-

on yechimlarini topishni so‘rang. Bu innovatsion jarayonni konkretlashtirib, real hayotdagi ko‘rinishini namoyon etadi.

❖ ***O‘quvchilarga o‘ylash uchun vaqt bering.*** Innovatsion g‘oyalar yuzaga chiqishi uchun vaqt kerak. Hozirgi paytda mashhur innovatsion kompaniyalarda (masalan, Google, 3M) ish kuni jadvaliga “bo‘sh vaqt” ham kiritilgan; bu “ishchilarga o‘ylash, kreativ yondashish, ishchanlik darajasini oshirish imkonini beradi”.

❖ ***O‘quvchilarga nimani va qanday baholashni o‘zlariga qo‘yib bering.*** Ba’zi o‘quvchilar uchun taxminlar katta ijobiy natijaga olib kelishi mumkin. O‘quvchilarni natijalarni aniqlashga jalb eting. Ular qanday qilib natijalarning samaradorlik darajasini aniqlaydilar?

❖ ***O‘quvchilaring ko‘rsatayotgan natijalari uchun ularni maqtab turing.*** Maqtov samarali bo‘lishi uchun o‘rinli bo‘lishi kerak. Kulib turgan chehra o‘quvchilarga bajargan topshiriqlari yuzasidan ekanligi to‘g‘risida signal beradi.

Kreativ potensialni ijtimoiy mohiyat kasb etishini e’tirof etadigan falsafa maktabi mavjud. I.Soyerning qayd qilishicha, “kreativ qobiliyatning yuzaga kelishidagi eng muhim jihat uning jamoaviy faoliyat va ijodiy davralarda shakllanishi sanaladi”. Agar mazkur fikr maktab hayotini tartibga solishga tatbiq etilsa, u holda o‘qituvchi loyihalarni yaratish tizimida doimo yangi g‘oyalarni ilgari surish jarayonidan qoniqish hosil qilishi uchun o‘quvchilarning hamkorligiga asoslanuvchi jamoani tashkil eta olishi kerak. Har bir o‘quvchida boshqalarni yangi yoki takomillashgan g‘oyalar to‘g‘risida o‘ylashga ilhomlantiradigan g‘oyalarning ketma-ket tug‘ilishiga erishish o‘quvchilarni hamkorlikda ishlash va improvizatsion yondashuvdan foydalanish asosida o‘qitishda samarali bo‘lishi mumkin. “O‘quv fanlari bo‘yicha qilinadigan improvizatsiya tushunchalarni tushunmasdan yodlashdan ko‘ra ko‘proq puxta tushunishga olib keladi”. O‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikka erishishni osonlashtirish ularning birgalikda, ijtimoiy munosabatlardan faoliyat mazmuniga doir bilimlarni olishlari uchun rahbarlik qilishni bildiradi.

O‘quvchilar samarali hamkorlik qilish holatlarida bo‘lishlari va “katta ishonchga ega bo‘lish” darajasida kreativ tafakkur yuritish uchun ularning ijodiy potensial ham qarorlarni ijodiy qabul qilishlari ijtimoiy muhitda bo‘lishlari kerakligi talab etiladi. Ular xatolarga yo‘l qo‘yish yomon emasligini, chunki aynan xatolar yangiliklarga intilish yo‘lida kerak ekanligini tushuna olishlari kerak. O‘qituvchi kreativ tafakkur boshqa ko‘nikmalar kabi o‘quvchilarga oqilona ravishda innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardor bo‘lishlariga xizmat qilishini ta’minlay bilishi zarur. Ahamiyatli tushunchalarni belgilash va muhitda yangiliklarni yaratish uslubi o‘quvchilar tomonidan jarayonning xuddi yangiliklarning o‘zi va kreativ tafakkur kabi muhimligini tushunilishiga yordam beradi. Novatorlar foydalanadigan o‘sha uslublardan foydalanilganda umumiy uslub kreativ tafakkurni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kreativ fikrlashning boshqa ko‘nikmalari kabi innovatsiya ham o‘quvchilarga mohiyatni chuqur anglab yetishga yordam beradi. Mavjud muammolar yuzasidan innovatsion yechimlarni taklif qilish uchun o‘quvchilar matnda bayon etilgan muammo va uning mohiyatini anglab yetishlari zarur. Bu boradagi zarur bilimlarga ega bo‘lishlari uchun o‘qituvchi o‘quvchilardan matnning qaysi o‘rnida ehtiyoj ifodalanganligini topishni, matnda ko‘rsatilgan muammoning sabablarini aniqlashni, taklif etil-

gan yechimning ahamiyatini ta'riflashni talab qiladi. Agarda topshiriq o'quvchilardan fikrlashni talab etsa, innovatsion jarayon samarali kechadi.

Innovatsion ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan darslarning muvaffaqiyatli kechishi uchun o'quvchilar fikrlash ko'lamini kengaytirishga e'tibor qaratishlari lozim. Unga ko'ra o'quvchilar dastlabki g'oyalariga qaytirishlari mumkin; o'qituvchi o'quvchilarga maqsad mavjud muammo yoki vaziyatga innovatsion yondashishdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi,

Foydalanilgan adbyotlar:

1. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб.: СПГУТД, 2006.

2. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.

3. Большая психологическая энциклопедия / Самое полное современное издание. – М.: Эксмо, 2007. – С. 254.

4. Джуринский А.Н. История педагогики / Учебное пособие. – М.: ГИЦ Владос, 1999. – 430 с.

5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya \\ Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – T.: " Fan van texnologiyalar", 2007. – 176 b.

6. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 1996. – 41-bet.

7. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Ikkinchi nashri. – T.: "O'qituvchi" NM ijodiy uyi, 2008. – 496 b.

8. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996

9. Choriev S. Mantiq / Ma'ruza tezislari. – Qarshi: Qarshi DU, 2008. – 5-bet.

10. http://school.holm.ru/club.

Asroridin SAMIYEV,
Termiz davlat universiteti
"Pedagogika" kafedra katta o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU ISO MUHAMMAD TERMIZIY RIVOYAT QILGAN HADISLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada dunyoning imomi, buyuk muhaddis Abu Iso Muhammad Termiziy rivoyat qilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risidagi hadislarning mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, barkamol yosh avlodni tarbiyalashda ushbu hadislarning ahamiyati muallif tomonidan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Ta'lim islohoti, fan-texnika, globallashuv, hadis, tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

В статье освещено содержание хадисов о духовно-нравственном воспитании, повествующих в трудах Великого мухаддиса Абу Исы Мухаммеда Термизий. Также автор проанализировал значение этих хадисов в воспитании гармонично развитого молодого поколения.

Ключевые слова. Реформа образования, наука и техника, глобализация, хадисы, воспитание, духовно-нравственное воспитание.

The article highlights the content of hadiths about spiritual and moral education, which are narrated in the works of the Great muhaddis Abu Isa Muhammad Termiziy. The author also analyzed the significance of these hadiths in the upbringing of a harmoniously developed young generation.

Key words. Education reform, science and technology, globalization, hadiths, upbringing, spiritual and moral education.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik davrida iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-madaniy jihatdan katta yutuqlarga erishdi. O'tgan davr mobaynida jamiyat tamomila yangi turmush, yangi hayot qurishga qadam qo'ydi. Buyuk ajdodlarimiz uzoq asrlar davomida yaratgan g'oyat ulkan va bebaho ma'naviy hamda tarixiy madaniy merosdan keng foydalanish va yosh avlodni ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy-axloqiy meros va qadriyatlar asosida tarbiyalash imkoniyatlari vujudga keldi. Bu imkoniyatlardan foydalanish butun xalqimiz, ayniqsa, o'qituvchilarning zimmasiga katta vazifalar yukladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14- fevraldagi PQ-2774 sonli qarori bilan Imom Termiziy Xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tashkil etildi hamda 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-sonli Prezident Farmoni bilan

O‘zbekiston tarixida birinchi marta “Hadis” ilmi maktabi tashkil etildi va “Hadisshunoslik” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasidagi kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hadis ilmi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 1-noyabrdagi 896- sonli Qarori qabul qilindi.

O‘zbekistonda hadisshunoslik ilmini rivojlantirish va undan ta’lim-tarbiyada keng foydalanish uchun Prezidentimizning mazkur Qaror va Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining mazkur Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida ko‘hna va navqiron Termiz zaminida yashab ijod qilgan va butun dunyoda “Muhaddislar imomi” nomi bilan mashhur bo‘lgan Imom Termiziy, “Amir ul-mo‘minin”, “Imom al-muhaddisiyn” degan sharafli nomga sazovor bo‘lgani Imom Ismoil Buxoriy, avliyolar hakimi Hakim Termiziy asarlaridagi ma’naviy-axloqiy tarbiya haqidagi hadislarni chuqur o‘rganish va barkamol avlodning ta’lim tarbiyasida foydalanish talab etilmoqda. Chunki Imom Buxoriy, Imom Termiziyning hadislari ming yillardan buyon butun musulmon dunyosida ma’naviyat-ma’rifat xazinasi sifatida xizmat qilib kelgan va hozir ham bu an’ana davom etmoqda.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning juda muhim omillaridan biri bu dunyoning globallashuvi va fan texnikaning misli ko‘rilmagan taraqqiyoti natijasida zamonaviy axborot maydonlaridagi harakatlarning tez sur’atlar bilan hayotimiz, turmush tarzimizga kirib kelayotganligidir. Bu voqea va hodisalarning ijobiy tomoni bilan birga, salbiy jihatlari ham bor. O‘spirin va o‘smir yaxshi narsani yomondan, oqni qoradan ajrata olmaydi va insonning xususiyati shuki, u yaxshi narsadan ko‘ra ko‘proq yomon narsaga e’tibor qaratadi. Salbiy ta’sirli voqea va hodisa ko‘proq odamlar diqqatini o‘ziga tortadi, ayniqsa, foydali va foydasiz mavzularning farqiga bormaydigan yo ajrata olmaydigan yosh o‘smir va o‘spirinlarning diqqatini o‘ziga jalb qiladi va asta-sekin ongini zaharlaydi.

Agar insonning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, u ijtimoiy rivojlanadi. Axloqsiz, tarbiyasiz inson tubanlashadi va ijtimoiy illatlar (o‘g‘rilik, yolg‘onchilik, ichkilik, firibgarlik, dangasalik) kabi nuqsonlarda namoyon bo‘ladi.

Eng buyuk muhaddislar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, Imom Abu Iso Muhammad Termiziy, Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy, Imom Ahmad Nasoiy, Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Moja kabi allomalar Islom dunyosida Qur’oni karimdan keyin turadigan eng nufuzli manba deb sanalgan oltita ishonchli to‘plamlarning mualliflari hisoblanib, bu allomalar orasida yurtdoshimiz, bobomiz dunyoning Imomi ulug‘ muhaddis Imom Abu Iso Muhammad Termiziy ham shu buyuk zotlar qatoridan o‘rin olgan.

Ism va nasabi Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok Sulamiy Bug‘iy Termiziy, Kunyasi Abu Iso (ya’ni Isoning otasi).

